

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

5/2021

Bosh muharrir:

Umarov Alisher Yusubjanovich

Tolipov O'tkir Qarshiyevich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Barno
Adilova Saodat
Mamadaliyev Abdumajid
Muslimov Narzulla
Nishanova Zamira
Panjiyev Qurbonniyoz
Palchik Gennadiy
Safarova Roxat
Tolipova Jamila
Tulenova Karima
Tursunov Samar
To'rayev Samad
Urazova Marina
Xalilov Ruslan
Xodjayev Begzod
Shaxmurova Gulnara

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrda 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.



PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND
METHODICAL JOURNAL

5/2021

CHIEF EDITOR

Umarov Alisher Yusubjanovich

Tolipov O'tkir Qarshiyevich
(deputy editor-in-chief)

EDITORIAL BOARD:

Abdullayeva Barno
Adilova Saodat
Mamadaliyev Abdumajid
Muslimov Narzulla
Nishanova Zamira
Panjiyev Qurbonniyoz
Palchik Gennadiy
Safarova Roxat
Tolipova Jamila
Tulenova Karima
Tursunov Samar
To'rayev Samad
Urazova Marina
Xalilov Ruslan
Xodjayev Begzod
Shaxmurova Gulnara

The founder: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

OLIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARI ISLOHOTLARNI BELGILOVCHI TENDENSIYA SIFATIDA

Rezume. Maqolada oliy ta'lim didaktikasida zamonaviy ta'lim trendlari va ularning ilm-fan rivojidadagi ahamiyati haqida fikr bayon etilgan. Muallif maqolada ta'lim trendlariga qisqacha ta'rif berib, ularning mamlakatdagi oliy ta'lim didaktikasini rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslagan.

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, rivojlanish, ta'lim trendlari, raqamli texnologiyalar.

Резюме. В статье рассматриваются современные образовательные тенденции в дидактике высшего образования и их значение в развитии науки. В статье автор кратко описывает образовательные тенденции и научно обосновывает их роль в развитии дидактики высшего образования в стране.

Ключевые слова: высшее образование, развитие, образовательные тренды, цифровые технологии.

Abstract. The article examines modern educational trends in the didactics of higher education and their importance in the development of science. In the article, the author briefly describes educational trends and scientifically substantiates their role in the development of didactics of higher education in the country.

Basic concepts: higher education, development, educational trends, digital technologies.



SH.A.ABDULLAYEVA*

Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish inson hayotining barcha sohalarini qamrab olar ekan, axborot jamiyatini shakllantirish jarayonida o'zbek ta'limi sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. 2020 yilning 24-sentyabrida prezidentimiz tomonidan Oliy Majlis Senatida mamlakatimiz o'qituvchilariga qaratib aytilgan tabrik nutqida mamlakatimiz uchinchii renessansni boshidan kechirayotganligi to'g'risida fikr bildirildi. Renessans – "madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi"¹. Binobarin, mamlakatimizda raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan jarayon aynan Uchinchii Renessans asosiga qurilayotganligini bildiradi. 2020 yil – mamlakatimizda "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb belgilanishi bejiz emas. "Uchinchii Renessans to'rtinchii sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqlii) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O'z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi"². Binobarin ushbu jarayon mamlakatimizda bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi, uning insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik, moddiy-moliyaviy ta'minoti bo'yicha ishlab chiqilgan majmuaviy dasturlar yangi Renessans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart. "Ilmiy, ilmiy-texnologik ta'minot taqozosidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak"³.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ta'lim trendlari sifatida baholanar ekan, bu uning o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan dinamika ko'rsatkichini belgilaydi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida Uchinchii Renessans g'oyasi ta'lim, madaniyat, ilm-fan sohalarida yuqori ko'rsatkichlarni, ya'ni AKT sohasida sun'iy intellekt yaratish,

* **Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna**, TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor. **E-mail:** abdullayeva.shaxzoda@mail.ru

¹ Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси: <https://lex.uz/docs/4545884>

² Ўзбекистонда янги уйғониш-Учинчи Ренессанс: <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-yangi-ujonish-uchinchi-renessans>

³ **Плешаков В.А., Воинова О.И.** Об агентах и средствах киберсоциализации «Homo Cyberus»'a // Homo Cyberus. – 2019. – № 1(6): journal.homocyberus.ru/Pleshakov

nanotexnologiya, biotexnologiyalar va shu kabi yo'nalishlardagi vazifalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bularning barchasi inson omiliga qaratilgan bo'lib, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, insonning yaxshi turmush qurishi, farovon hayot kechirishiga mo'ljallangan. "Har qanday buyuk rejalar, buyuk g'oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu havasligicha qolib ketadi"⁴. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo'lishini talab etadi. Ammo o'zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma'naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Zamonaviy ta'lim trendlarining xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. Shu sababli, sun'iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan "to'rtinchi sanoat inqilobi" insonga qo'yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta'lim-tarbiya tizimini ularga moslashtirish kerakligini anglatadi.

Oliy ta'lim muassasalarining barcha faoliyati kelgusida muvaffaqiyatli mutaxassis shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Buning uchun tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, aniq maqsad va vazifalarni belgilash, zarur tashkiliy qo'llab-quvvatlash tuzilmalarini yaratish, professor-o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish, o'quv dasturlari va talabalarni baholash tizimlarini qayta ko'rib chiqish zarur.

Ta'lim trendlari – bu uning o'zgarishlarini belgilovchi tendensiyalaridir. Birinchidan, bu ta'lim paradigmasining asosi bo'lgan yangi sharoitlar va faol o'qitish usullarini yaratishdir. Ikkinchidan, tanqidiy fikrlaydigan va funksional jihatdan savodli, o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab turadigan, tez o'zgarib turadigan dunyoda muvaffaqiyatli hayot uchun o'z qobiliyatlarini tezda qayta qo'radigan, moslanuvchan mutaxassislarni tayyorlash demakdir. Ilg'or o'qitish usullarini joriy etish jamiyatda madaniy o'zgarishlarni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarining tuzilishi yangi g'oyalar almashinuvi, talabalarning muvaffaqiyatli loyihalarni bajarishi, ularni rivojlantirish va amalda qo'llash maqsadida osonlashtiriladigan tarzda tuzilishi kerak.

Talabalarga haqiqiy amaliy ko'nikmalarni o'rgatish kelajakda ish bilan ta'minlashda, shuningdek, ularning kelgusida egallaydigan kasbiy malakalarini oshirishda yordam beradi, hamkorlikning samarali yechimlarini topish yo'li hisoblanadi. Hamkorlikda oliy ta'lim muassasalarining birlashmalarini yaratish, ularga ta'lim xizmatlarining jahon bozorida foydali pozitsiyalarini egallashga yordam beradigan alyanslar tuzish tendensiyasi mavjud.

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va onlayn o'quv materiallari keng tarqalgan bo'lsada, hozirda butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham barcha aholi guruhlari uchun bir xil maromda Internetdan foydalanish yuklamasini bajarish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, kelajakda talab qilinadigan talabalarning kasbiy ko'nikmalari, ijodkorlik qobiliyatlari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish OTMLar uchun eng ustuvor vazifadir.

Mamlakatimizda 2018 yilda oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya asosida mamlakatdagi barcha OTMLarining o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati qayta ko'rib chiqildi va yangi mazmunda o'z faoliyatini qayta qura boshladi. Prezident qarori asosida "2017-2021 yillarga mo'ljallangan oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash dasturi" qabul qilindi (2017 yil 20 mart). Shuningdek, so'nggi yillarda qabul qilingan oliy ta'lim tizimini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan 10 dan ortiq huquqiy xujjatlar oliy ta'lim rivoji va mamlakat ijtimoiy hayotida tub burilish yasadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi.

⁴ Плешаков В.А., Воинова О.И. Об агентах и средствах киберсоциализации // *Ното Cyberus*. – М., 2019. – № 1(6).

Davlat ta'lim tizimi bilan birgalikda respublikaning barcha hududlarida norasmiy va noformal xorijiy tillarni o'qitish markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Mana shunday til markazlari Germaniyaning DAAD, Koreyaning KOIKA, Yaponiyaning JICA, Isroilning MASHAW, Hindiston madaniyat markazi, AQShning EDUCATIONAL EXCHANGE PROGRAM, Buyuk Britaniyaning BRITISH COUNCIL kabi muassasalari, ularda tashkil qilingan resurs markazlar, Madaniyat markazlari, kutubxonalar, internet materiallari, tutorlik xizmatlari, stajirovkalar va xorijiy ellarga tanlov asosida o'qishga yuborish xizmatlari, shuningdek, Xitoy, Fransiya va boshqa elchixonalarda tashkil qilingan til markazlari orqali faoliyat olib bormoqda. Elchixonalar tarkibida tillar bo'yicha turli tanlovlar, xorijiy stajirovkalar o'tkazish an'anaga aylangan. Masalan, AQSh elchixonasida Ta'lim masalalari bo'yicha Maslahat Markazi (TMM) faoliyat olib boradi. Mazkur markaz AQShda ta'lim olishga qiziquvchi talabalarga yordam beradi. TMM, yoshlarning AQShda ta'lim olish bo'yicha materiallardan foydalanishga imkon yaratadi. Ular ichida o'quv dasturini tanlash, o'qishga qabul qilish shartlari, moliyaviy yordam va o'qish bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha bepul maslahat berish xizmatlarini ko'rsatishadi. AQShda ta'lim olayotgan O'rta Osiyolik talabalar soni o'tgan so'nggi o'n yillikda avvalgiga qaraganda 20 foizga oshgan. 2017-2019 o'quv yilida 870 ga yaqin O'zbekistonlik talabalar AQShda taxsil olgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2012-2013 yildagi 586 talabadan ancha yuqoridir. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda turli madaniyat markazlari jadal faoliyat olib boradi. Masalan, respublikada mavjud ellikka yaqin madaniyat markazlari O'zbekistonda yashab, mehnat qilayotgan turli millat va elatlar madaniyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar universitetlarining mamlakatimizdagi filiallarini ochish ishiga asos solindi. Ulardan Buyuk Britaniyaning Toshkent xalqaro Vestminster universiteti, Toshkentdagi Singapur menedjmentni rivojlantirish instituti, Toshkentdagi Turin politexnika instituti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkentdagi filiali, Gubkin nomidagi neft va gaz universitetining Toshkentdagi filiali, Moskva davlat universitetining Toshkentdagi filiallari mana shular jumlasidandir.

Uzluksiz ta'lim oliy ta'limning poydevori hisoblanadi. Bilimlarga asoslangan jamiyat va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga intilayotgan mamlakatlar har doimgidan ko'ra aholining bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish, xodimlarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilishmoqda. Bu universitetlar va korporatsiyalar o'rtasidagi yaqin hamkorlikni yo'lga quyish, ish beruvchi va tahsil oluvchi, ishlab chiqarish korxonalari bilan yaqindan aloqani o'rnatishda namoyon bo'lmoqda. Axborot manbalarini tahlil qilish natijasida bugungi kunda zamonaviy ta'lim yo'nalishlarini ikkita asosiy trend (yo'nalish)ga ajratish mumkin:

1-trend. O'rganish insonning asosiy kundalik faoliyatiga aylanishi zamonaviy ta'lim yo'nalishlarini belgilab beruvchi ko'rsatkichdir. Har bir inson har kuni yangi narsalarni o'rganishga ishtiyoqmand bo'lishi, o'quv-biluv faoliyati haftasi 14 soatgacha davom etishi muqarrar. 2025 yilga kelib 60 yoshdan oshgan odamlar bugungi 20 yoshdagilar kabi uzoq vaqt o'qiydilar, yoshlar esa, bugungi kunga qaraganda ikki baravar ko'p tahsil olishga ehtiyoj sezishadi.

2-trend. Hayot davomida tahsil olish. Insonning hayoti davomida yangiliklarni o'rganish, ularni o'zlashtirish uchun ehtiyoj oshadi. Bu insonda texnologiyalar va g'oyalarning tez o'zgarishi bilan asosiy ko'nikmalarga aylanadi. Texnologiyalar va g'oyalarning tez o'zgarishi bilan asosiy ko'nikmalardan biri – eskilarni "mustahkamlash" va yangi narsalarni o'rganish qobiliyatlari bo'ladi. Hozirgi ta'lim tizimi o'zgarishi kerak, chunki endi hech kim bitiruvchiga 4 yil ichida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligini rejalashtira olmaydi. Shuning uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish institutlari fundamental ta'limga qo'shiladi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi trendlarni e'tirof etmoqchimiz.

3-trend. Raqamli texnologiyalar rivojlanib borishi bilan insonlar tobora ko'proq farovonlik va qulaylik izlashga majbur qiladigan ehtiyojlari ortib bormoqda. Bu esa, onlayn kurslardan foydalangan holda ta'limni individuallashtirishni talab qiladi. Talaba kutilgan ehtiyojlariga to'liq moslashtirilgan onlayn kurslar yordamida o'quv jarayonidan ko'proq foyda olishi, o'quv materialini o'zlashtirishda optimal natijalarga erishishi mumkin. Shu bilan birga, individual yondashuv samarali bo'lishi ta'minlanadi.

4-trend. Teskari o'qitish. Bu aralash ta'limning alohida holati – jonli tarzda, an'anaviy ma'ruzalar o'rniga onlayn va oflayn tarzidagi mashg'ulotlarning tashkil qilinishi. Bunda professor-o'qituvchilar faqat amaliy mashg'ulotlar uchun to'liq tayyorgarlik ko'rishadi: savol-javob, suhbat, muloqot kabi ta'lim shakllari rivojlanadi.

5-trend. Ta'lim jarayonini avtomatlashtirish. Professor-o'qituvchilar uchun tejamkor yechimga aylanadigan va eng muhimi, talabalarning ta'lim natijalarini yig'ish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradigan o'quv kurslari va materiallarini yaratish uchun Internetda maxsus vositalardan foydalanish.

6-trend. Mobil texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim kapsulalarini yaratish. Uzoqdagi ta'lim sub'ektlari bilan jonli muloqot o'rniga barcha ma'lumotlar kichik bloklarga, bilim qismlariga bo'linadi, ulami tezkorlik bilan (yo'lda, transportda, yugurish yo'lakhasida) o'zlashtirish mumkin. Buning uchun murakkab materiallarni qisqa, mantiqiy jihatdan to'liq bloklar qatoriga ajratish kerak.

7-trend. Kengaytirilgan real voqeaviylikdan foydalangan ta'lim. Ta'lim foydalanuvchi muhitiga moslashadi va ancha samaraliroq bo'ladi. Kengaytirilgan reallik texnologiyalarining tarqalishi o'quv jarayoniga sezilarli darajada ta'sir qiladi, ammo virtual haqiqat va unga kirish imkoniyati asosiy "tezlashtiruvchi"ga aylanadi. Odamlar vizual va eshitish hissi orqali onlayn ta'limni takomillashtirishi mumkin.

8-trend. Ta'limni geymfikatsiyalash (o'yin sifatida o'rganish). Vizualizatsiya va interaktiv ishtirok etish. Yig'ilgan ballar. Jamoa musobaqasi. Yangi bosqichga o'tish. Hamma narsa kompyuter o'yinlaridagi kabi, ammo o'quv materiallari bilan yo'g'rilgan holatda amalga oshiriladi.

O.I. Voinova va V.A. Pleshakovlarning ta'kidlashicha, barchamiz jamiyatning kiber-ijtimoiylashuvi davrida yashayapmiz. "Kiberjamiyat – bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya, kompyuter, elektron, raqamli va Internet texnologiyalari orqali real va virtual makonlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning dolzarb haqiqati sifatida birlashgan va birgalikdagi jamoaviy faoliyatni tashkil etgan odamlar jamiyatidan iboratdir" [4, 121]. Binobarin, bunday holda, kiber-jamiyatdagi aloqa o'lchovi – bu kiberfazo orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri kiber-makon bilan shaxslarning dialogi, uning turli ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Axborot ushbu dialogning vositasi va natijasiga aylanadi. Demak, talabalarda turli kompetensiyalar striming texnologiyalari asosida rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarga zarurat oshadi.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim trendlarining rivojlantiruvchi vazifasi ta'lim sub'ektlarining fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohalarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. Zamonaviy ta'lim trendlarini oqilona yo'naltirish orqali bo'lajak mutaxassislarni aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, ob'ektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

JADVALLI MASHQLAR “ONA TILI” FANINI O’QITISHDAGI QULAY VOSITA SIFATIDA

Rezume. Maqolada yangi innovatsion usul bo’lmish jadvalli mashqlar, ularning ona tili o’qitishdagi qulayligi, vaqtni tejashdagi roli haqida soz yuritiladi.

Tayanch so’zlar: mashqlar, jadvalli mashqlar, leksikologiya, grammatika, umumiy tilshunoslik, morfologiya sintaksis.

Резюме. В статье рассматриваются новые инновационные методики табличных упражнений, их удобство при обучении родному языку, их роль в экономии времени занятия.

Ключевые слова: упражнение, схема-упражнение, лексикология, грамматика, общее языкознание, морфология, синтаксис.

Abstract. The article discusses new innovative techniques of tabletop exercises, their convenience in teaching the native language, their role in saving class time.

Key words: exercise, scheme-exercise, lexicology, grammar, general linguistics, morphology, syntax.



M.A.HAMRAYEV *

Ona tili fanidan o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda mashqlar tizimidan foydalanish eng qulay usullardan biri ekanligi har bir ona tili o’qituvchisiga ayon. Mashqlar talabalarning ma’ruza mashg’ulotlarida olgan bilimlarini qay darajada o’zlashtirganligini sinashda juda katta samara beradi. Shu sababli bo’lsa kerak, boshlang’ich sinflardan tortib to yuqori sinflar uchun ona tili bo’yicha yaratilgan darsliklarda mashqlar o’zining munosib o’mini egallagan. Oliy ta’limda ona tili bo’yicha talabalarga beriladigan nazariy bilimlarning hajmi kattaligini hisobga olib, odatda, ma’ruzalar alohida, mashqlar alohida kitob holda nashr qilinadi. Tajribadan ma’lumki, mashqlar to’plamida berilgan mashqlarni yana qaytadan talabalar o’z daftarlariga ko’chirib, keyin shartlari bo’yicha bajarish uchun ko’p vaqt talab qilinadi. Ta’kidlash lozimki, hozirgi tezkor zamonda vaqtning qadri borgan sari ortib bormoqda. Kam vaqt ichida ko’plab topshiriqlarni bajarish, bizningcha, mavzuni o’zlashtirishga yordam beradi. Ana shularni hisobga olib, mashqlarning yangi shaklini yaratish zaruriyati paydo bo’ldi. Bunda biz jadvallardan foydalanishga qaror qildik. Ona tilining barcha bo’limlari bo’yicha topshiriqlarni jadvalga joylashtirgan holda bajarish g’oyasi bu kabi mashqlarning barchasiga singdirilgan.

Quyida shunday mashqlardan ona tili bo’limlaridan kelib chiqqan holda namunalar keltiramiz.

“UMUMIY TILSHUNOSLIK DAN MA’LUMOT” bo’limidan quyidagi mashqni keltiramiz. 6-mashq. Xalqaro tillarni ajratib, jadvalga yozing¹.

Shotland, ingliz, irland, chjuan, xitoy, kartaliy, abxaz, ingush, udmurt, nemis, eston, venger, mordov, fransuz, darg’in, rus, svan, avar, batsbiy, guriy, ispan, tuareg, lazgin, somali, arab, kobil, oysor, ivrit, shilx.

Xalqaro tillar	Xalqaro bo’lmagan tillar
ingliz, ...	shotland, ...

Ko’rinyaptiki, talaba berilgan namunaga qarab, xalqaro mavqega ega bo’lgan tillarni ajratib yozsa bo’ldi.

“FONETIKA” bo’limi bo’yicha bir mashqni ko’rib chiqamiz.

12-mashq. Berilgan gapdagi unillarning guruhlari bo’yicha nechta o’rinda qatnashganini

* Xamraev Madrim Abdrimovich, TDPU Boshlang’ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. E-mail: xamraev.madrim@mail.ru

¹ Hamrayev M.A. Ona tilidan jadvalli mashqlar toplami. – T.: TDPU, 2020. – B. 5.

jadvalga yozing.

1. Tepadan chakka tomib badanlarni junjiktiradi, ruda ortilgan vagonetka eshelonlari o‘tganda, quloqlariga barmoqlarini tiqib, devorga yopishgancha to‘xtab turishadi (As.M.).

Old qator unlilar soni	Orqa qator unlilar soni	Yuqori tor unlilar soni	O‘rta keng unlilar soni	Quyi keng unlilar soni	Lablangan unlilar soni	Lablanmagan unlilar soni

Bu mashq shartiga ko‘ra talaba/o‘quvchi unli fonemalarning guruhlari bo‘yicha turlarining nechta o‘rinda uchraganligini aniqlashi lozim. Demak, u birinchidan, unlilarning qanday guruhlarga bo‘linishini eslashi lozim, ikkinchidan, berilgan gapda bir xil guruhga oid unlilar necha marta qatnashganligini sanab chiqishi kerak va bu shu mavzu bo‘yicha olgan bilimini yana ham mustahkamlaydi.

“**LEKSIKOLOGIYA**” bo‘limi bo‘yicha berilgan mashqlarda shu bo‘limga oid tushunchalarga xos barcha xususiyatlarni qamrab olishga qarakat qilindi. Masalan:

46-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning paronimik juftlarini topib, ma‘nolarini jadvalga joylashtiring².

1. Biroq qanchalik urinmasin, O‘ktamjonning suratini ko‘z o‘ngida tiklay olmadi (S.Anorboyev). 2. Odatda to‘p otsa ham uyg‘onmaydigan Akmal hom semiz bu safar nima bo‘lib Mashrabdan oldin uyg‘ongan, ariq bo‘yida o‘tirib, pishillab etigini kiyardi (O.Y.). 3. Shu ketishimiz bo‘lsa, oxiri nima bo‘larkin-a? (A.Nesin)

№	So‘zlar	№	So‘zlar
1	Suratini (rasmimi) – sur‘at (tezlik)	5	
2		6	
3		7	
4		8	

Mashqda paronimik xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar tayyor holda berilgan. Talaba/o‘quvchi namunaga qarab oldin shu so‘zning mazkur gapdagi ma‘nosini jadvalga yozadi, keyin uning paronimik juftini o‘zi mustaqil topadi va ma‘nosini izohlaydi.

Endi grammatika bo‘yicha berilgan mashqlarga o‘tamiz.

“**MORFOLOGIYA**” bo‘limidan quyidagi mashqni ko‘rib chiqamiz:

96-mashq. Affiksatsiya usulida otdan yasalgan sifatlarni topib, yasovchi qo‘shimchani tagiga chizing va jadvalga joylang³.

1. Beqaror, beqo‘nim yoshlik ularni ne ko‘ylarga solmadi (S.Ahm.). 2. Kim biladi, balki Vahobjon afsonavor bu oqshomda o‘z baxtini, muhabbatini qo‘riqlayotgandir (S.Ahm.). 3. Ilmsiz, hatto qo‘l qo‘yishni bilmaydigan odam qanday qilib sizdek ilmi odamga pir bo‘ladi? – ko‘zlarini ayyorcha qisdi Salim (O.). 4. Qachon qaramang, vijir-vijir gap. Dahanaki jang qizigandan qiziydi (J.Abd.). 5. Saidiy “badhazm” degan kishilardan biri Sharif edi (A.Q.).

² Hamrayev M.A. Ona tilidan jadvalli mashqlar toplami. – T.: TDPU, 2020. – B. 23.

³ Hamrayev M.A. Ona tilidan jadvalli mashqlar toplami. – T.: TDPU, 2020. – B. 49.

Gap	Teng bog'lanish	Tobe bog'lanish
1	ko'chalariga, joylariga (ohang)	shaharning ko'chalariga qo'shimcha) (kelishik
2		
3		

Bu bo'limdagi mashqlarning o'ziga xosligi shundaki, ma'lum turkumga kiradigan so'zning bitta xususiyati aniqlanadi va tahlil qilinadi. Har bir turkumga bag'ishlangan mashqlarning oxirgisi shu turkumga xos so'zlarni to'liq tahlil qilishga bag'ishlanadi.

“**SINTAKSIS**” bo'limidan quyidagi mashqni misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

1-mashq. Gaplar tarkibidagi teng va tobe bog'langan so'zlarni aniqlang va namunadagiday jadvalga joylang⁴.

1. U shaharning serqatnov ko'chalariga, gavjumroq joylariga shoshildi (As.M.). 2. Biz hamma bo'rilarni, hamma qonxo'rlarni, zolimlarni yanchib tashlaymiz! (O.) 3. Trubkani shaqillatib tashladi-yu, motorga gaz berdi (S.Ahm.).

Gap №	So'zlar	Gap №	So'zlar
1	Beqaror, beqo'nim	6	
2		7	

Sintaksisda asosan gapga xos xususiyatlar haqida so'z yuritiladi, shuning uchun jadvallarga gapni to'liq ko'chirmasdan, ularning tartib raqamlarigina yoziladi va uning ro'parasiga shu gapga xos bo'lgan xususiyat yozib qo'yiladi. Masalan:

9-mashq. Buyruq gaplarning raqamlarini jadvalga yozing va mazmun jihatidan turlarga (buyruq, maslahat, iltimos, istak) ajratib jadvalga yozing.

1. Qani endi, A'zamjon ham shunaqa bo'la qolsa edi (S.Ahm.). 2. Zelixon shunday deb soatiga qaradi: televizorni qo'y. “Vremya”ni ko'raylik-chi? (T.Malik). 3. Shirin yuzingdan shirin so'zing yaxshi, degan eskilar. Shirin so'zingni ayama bulardan, bolam (O.Y.). 4. Qani endi o'sha kunlar qaytib kelsa (S.Ahm.). 5. Bo'lmasa, sizdan iltimos, – viloyat rahbari Shukurovga yuzlandi, – shaxsan o'zingiz o'sha ayolni chaqirib, bir gaplashsangiz (O.Y.).

Gap	Gapning mazmuniy turi	Gap	Gapning mazmuniy turi
1	Istak, orzu	4	
2		5	
3		6	

Tinish belgilariga bag'ishlangan mashqlarda ham shunday yo'l tutiladi. Shu tariqa ona tili fanining barcha bo'limlari bo'yicha jadvallarga joylashtiriladigan mashqlar beriladi. Bunday mashqlarning afzalligicha bayon qilish mumkin: 1) Talabalarning vaqtini tejaydi, ya'ni berilgan topshiriqlarni ikki marta yozish shart emas. 2) Bu mashqlarning javoblari oldindan tayyorlab qo'yilsa, ularni talaba/o'quvchilarning o'zlari ham tekshirishlari mumkin. 3) Talaba/o'quvchilar berilgan namunalariga qarab topshiriqlarni bajarishlari mumkin. 4) Bu mashqlarning elektron variantlari ham yaratilishi mumkin.

⁴ Hamrayev M.A. Ona tilidan jadvalli mashqlar toplami. – T.: TDPU, 2020. – B. 90.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDAN FOYDALANISH

Rezume. Maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida fanlarni integratsiya imkoniyatlari asosida o'qitishda talabalarning mustaqil, erkin fikrlash, tashabbuskorligiga sharoit yaratish, bu faollikning to'liq o'quvchilar tomonida bo'lishiga erishish hamda ijodiy, sog'lom dunyoqarashini rivojlantirish, ularda topqirlik, zukkolik, izlanuvchanlik malakalarini shakllantirishi to'g'risida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: ona tili ta'limi, integratsiya, ko'rgazmalilik, ta'lim tarbiyaning birligi, izchilik, didaktik tamoyil, komil inson, boshlang'ich ta'lim, millat ruhi, sog'lom dunyoqarash, kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash.

Резюме. В статье рассматривается создание условий для самостоятельного, свободного мышления, инициативы учащихся при преподавании предметов на уроках родного языка в начальной школе на основе интеграционных возможностей, полноценное достижение этой активности учащимися и развитие творческого, здорового мировоззрения. Предполагается, что формируются навыки сообразительности, смекалки, любознательности.

Ключевые слова: образование на родном языке, интеграция, демонстрация, единство образования, последовательность, дидактический принцип, совершенный человек, начальное образование, национальный дух, здоровое мировоззрение, наблюдение, исследование, интерпретация, сравнение различий.

Abstract. The article discusses the creation of conditions for independent, free thinking, the initiative of students when teaching subjects in the lessons of their native language in elementary school on the basis of integration opportunities, the achievement of this activity by full-fledged students and the development of a creative, healthy worldview.

Key words: education in the native language, integration, demonstration, unity of education, consistency, didactic principle, perfect person, primary education, national spirit, healthy worldview, observation, research, interpretation, comparison of differences.



D.X. SHODMONQULOVA*

Mustaqil respublikamizda zukko, bilimdon va ishbilarmon yoshlarni tayyorlab berish o'rta maktab oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. O'quvchi shaxsida mustaqillik va faollik kabi jihatlarni tarkib toptirish va rivojlantirish hozirgi kun ta'limining muhim talabidir. Faollik, ijodiylik tushunchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Agar faollik o'quvchining u yoki bu ko'rinishidagi faoliyatda o'zini shaxs sifatida namoyish etish deb qaralsa, ijodiylik ushbu faoliyatda ishtiroki jihatlarni aniqlaydi. Hozirgi kun ta'limi o'quvchidan jarayonda aynan shu ishtirokni, ya'ni ham faol, ham mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyati shakllangan bo'lishini talab qiladi. Bunday talab hozirgi informatsion texnologiyalar kun sayin rivojlanib borayotgan asrda o'quvchilar bilish faoliyatini rivojlantirish, jahon andozalariga mos darajada dunyoqarashini kuchaytirib berish uchun zarurdir.

Bugun mustaqil O'zbekistonda ona tili, davlat tili va xorijiy tillarini o'qitishga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda, yangi asr va istiqloqlarning aniq talabu ehtiyojlariga muvofiq bu yo'nalishda behad ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Tilning, xususan, ona tilining shaxs kamolotidagi o'rini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu ulkan haqiqatni hamisha ta'kidlaganlarki, bu so'zlarni hech kim, ayniqsa, boshlang'ich sinf, til va adabiyot o'qituvchilari unutishga haqqi yo'q. "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan

* **Shodmonqulova Dilorom Xalikovna**, TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti dotsenti, p.f.n. **E-mail:** nisanbaeva.akmaral@mail.ru

judo bo'lishi muqarrar"¹. Zero, to'g'ri ta'kidlaganidek, ona tili va tafakkur bir-biridan ajralmas bir butunlikdir, tafakkur ona tili vositasida shakllanadi va mana shu til orqali voqelanadi, yuzaga chiqadi. Shuning uchun ta'lim tizimida ona tili ta'limi o'quvchi tafakkurini rivojlanishiga maxsus mo'ljallangan, ixtisoslashgan o'quv predmetidir. Tafakkur ona tili orqali shakllantiriladi va rivojlanadi. Bu darslar bolaga ona tili imkoniyatlarini berishi, uni tafakkurning kaliti bo'lgan ona tili imkoniyatlari xazinasiga olib kirishi, bu boyliklardan foydalanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. Buning uchun, avvalo, biz ona tili fanini birinchi boshlang'ich nuqtasini o'quvchilarda boshlang'ich sinfdayoq shakllantirishimiz kerak. Zero, poydevori mustahkam bulgan imorat asrlarga bo'y cho'zadi.

Zamonaviy darslarning muhim talablaridan biri fanlarni uszviy aloqadorlikni ta'minlashdan iborat. Bu, o'z navbatida, darslarda o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, ularda fanlarning nazariy jihatlari egallashlarini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ona tili, adabiyot va metodika fanlarining o'qitilishi integratsiyasining afzalligi, birinchidan, mavzu, bo'lim, bob va fanlararo bog'lanishlar natijasida talabalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirish ko'nikmalari takomillashadi, ular tabiiy va ijtimoiy hodisalarni kuzatadi, qiyoslaydi, xulosalaydi va xotirada saqlaydi. Natijada talabada ijodiy tafakkur, mustaqil ishlash qobiliyati rivojlanadi. Ikkinchidan, ta'lim mazmunini ilmiylik, ongillik, faollik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik, ta'lim-tarbiyaning birligi, izchilik didaktik tamoyillarning amalga oshirishga zamin hozirlaydi. O'qituvchi o'z oldiga qo'ygan bunday dolzarb vazifani bajarishda yangi pedagogik texnologiyalarning sifat ko'rsatkichlarining o'zaro uyg'unligi zamonaviy dars talabidir. Chunki oliy ta'lim tizimida, ona tili fanining integratsiyasini ta'minlash pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonga joriy qilish bilan birga fanlararo aloqadorlik asosida o'qitish o'quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta'minlaydi. Buning uchun, avvalo, yoshlarni ma'naviy barkamol va komil inson qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. "Komil inson"ning asosiy fazilatlaridan biri uning ma'naviy yetukligidir.

Ilmiy bilimlarning differensiyasi va integratsiyasi jarayonlari birgalikda mavjud bo'lib, ular dunyoni bilib olishning turli shakllari hisoblanadi. Bu tushunchalardan - birinchisi ilmiy bilimlarni bir necha mustaqil fanlarda differensiyalashga yo'naltirilgan bo'lsa, ikkinchisi, ilmiy bilimlarni turdoshlik xususiyatlari va mohiyatlari bo'yicha bitta fanga omuxtalashtirishga, ya'ni integratsiyalashga yo'naltirilganligidir. Integratsiya tushunchasi yaqin 15-20 yil oldin bizning leksikonimizga kam iste'mol qilingan bo'lsa-da, ular ta'lim-tarbiya jarayonida turli darajada qo'llanillar edi. Kundalik hayotda, xususan, tevarakatofimizda yuz berayotgan tabiat hodisalarida fan-texnika ishlab chiqarish va maishiy xizmatning barcha jabhasida integratsiyalashmagan faoliyat jarayonini tasavvur qilish qiyin. Ular mohiyatan ilmiy bilimlar integratsiyasidir. Demak, integratsiya hayotiy ehtiyoj bo'lib, usiz ishlab-chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanmaydi. Shu bois "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa davlat hujjatlarida ta'lim mazmuniga integrativ yondashish alohida qayd qilindi.

Bashariyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida o'quvchining har bir tushunchani egallashda bir yoki bir necha fanlar qatnashadi. Bu ham o'quv fanlarini integratsiyalash mumkinligini tasdiqlaydi. O'quv fanlarini integratsiyalashda ularning funksional vazifalarni mushtarakligi – yaqinligi hisobga olinadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib boshlang'ich ta'limda fanlarni integratsiya imkoniyatlari asosida o'qitish talabalarning mustaqil, erkin fikrlash, tashabbuskorligiga sharoit yaratadi, bu faollikning to'liq o'quvchilar tomonida bo'lishiga erishtiradi hamda ijodiy, sog'lom dunyoqarashini rivojlantiradi, ularda topqirlik, zukkolik, izlanuvchanlik malakalarini shakllantiradi. Ta'limni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlarining negizida barkamol avlod tarbiyasi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Bu narsa, o'z navbatida, milliy

g'oya tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumiy dunyoqarashni belgilab beruvchi faol hayotiy pozitsiya ko'nikmasi yetarli darajada shakllantirilmasa, mustaqil davlatning talab va ehtiyojlariga mos keladigan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazib bo'lmaydi. Binobarin komil inson tarbiyasining boshlang'ich nuqtasini biz maktab ta'limida yetakchi fan hisoblangan ona tili o'quv fanining o'rni boshlang'ich sinflarda ahamiyati beqiyosdir. Ona tili barcha fanlarni o'rganishning kaliti hisoblanadi. Tilning sir-asrorlarini bilmagan inson, uning go'zalligini ham jozibasini ham his qilolmaydi.

Til millat borligi va birligini ta'min etadigan, xalq tafakkur tarzining tamalida turadigan, qavmning qalbi qo'ridagi qiyossiz qudratni sog'lom saqlaydigan, milliy ma'naviyat, milliy o'zlik degan teran tushunchalarning hamisha boqiyiligini bildiruvchi vositadir.

Til ta'limini tubdan yangilash maqsadida induktiv metodga asoslangan o'quv darsliklari bugungi kunda pedagogik amaliyotda keng tatbiq etilmoqda.

"Umumiy o'rta ta'lim ona tili o'quv dasturi"ning uqtirish xatida shunday deyiladi: "Ona tili ta'limining bosh maqsadi og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. ... Maktabda ona tili fanini o'qitishning so'nggi natijasiga o'qitishning amaliy yo'nalishini yangilash orqaligina erishish mumkin"².

Shuningdek, dasturda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalari aniq, ravshan belgilab berilgan. Ona tili ta'limi oldiga quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlanishga qaratilishi lozim. Ma'lumki, til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash, fikr mahsulini yozma va og'zaki ravishda berishi, ichki kechinmalarni bayon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Hazrat Alisher Navoiy kishilarning o'zaro aloqa vositasi sifatida jamiyat taraqqiyotida katta o'rin egallashini, u insonni hayvondan ajratuvchi asosiy belgilardan biri ekanligini alohida ta'kidlab bunday yozgan edi:

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdurki, berur xabar jonga jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Ona tili o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan ana shu vazifasi o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doim o'zlarini o'rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'lum qiladilar.

Ona tili mashg'ulotlari faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalaydi. Nutq madaniyati juda katta va keng qamrovli soha bo'lib, u bolaning kundalik salom-aligidan tortib, kimga, nimani, qachon, qayerda va qanday so'zlashgacha bo'lgan barcha nutqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu madaniyat sirlari ham, avvalo, ona tili mashg'ulotlarida til hodisalarini ijodiy o'zlashtirish jarayonida singdiriladi.

Xullas, ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgiriligini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'quvchilarni ijodiy tafakkur sohibi qilib yetishtirish zaruriyatini dolzarb masala qilib qo'ydi. Mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan avlodgina O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlay oladi.

Ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash, ijodiylik deganda nimani tushunish lozim? Matbuotda ijodiy tafakkur xususida, jumladan, shunday fikr bayon etilgan edi: "Ijodiy tafakkurning

bir necha tarkibiy qismlari bor. Bulardan asosiylari quyidagilar: birinchidan, bolada shaxsiyat, mustaqillik, "men"lik tushunchasi: hissi va g'ururini shakllantirish va bu "men"ning faol yaratuvchi, butun borliqqa, ko'rgan, eshitgan, bilgan narsalarga, qilishi kerak bo'lgan va qilayotgan ishiga nisbatan shaxsiy hukmga ega bo'lishi zarurligini rivojlantirish kerak. Uning shaxsiy hukmi xususiylik sifatida ijtimoiy umumlikning ro'yobga chiqish shakli, turi bo'lmog'i lozim, ya'ni bola o'zini "men" deb bilsa, boshqalar ham xuddi shunday "men"lar ekanligini, boshqa shaxs, uning qiziqishlarini hurmat qilishi, ayni zamonda, o'ziga nisbatan hurmat qilish ekanligini to'la tushuntirish kerak. Ikkinchidan, o'z fikrini asoslay olishi va uni himoya qilish. Uchinchidan, maqsadga erishishning bir necha, umuman, cheksiz vositalari, yo'llari, imkoniyatlari mavjudligini bilish, bu vositalarni izlash va har bir vositadan aniq sharoitda to'g'ri foydalana olish"³.

O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi ijodiy tafakkur qobiliyatiga va uni o'zgalarga singdirish mahoratiga ega bo'lishi zarur.

"O'qituvchi bolalarga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimlarga ega bo'lishi kerak"⁴, – deb bejiz aytishmagan.

Biz uzoq yillar davomida maktabda reprodaktiv, ya'ni berilganini qayta so'zlab berish, bayon qilish ta'lim usulidan foydalanib keldik. Davr yangicha talab qo'yimoqda: endi o'quvchi kitobda yozilganini emas o'z fikri, o'z izlanishlari mahsulini ko'rsatishi lozim, ona tili imkoniyatlaridan foydalanib, ularni to'g'ri va ravon bayon qila olish mahoratini namoyon qila olishi kerak. O'quvchida bunday malaka va ko'nikmalar ona tili mashg'ulotlarida uning muttasil mustaqil izlanishi asosidagina shakllantirilishi va rivojlanishi mumkin.

Ona tilidan yangi dasturning "Kontekstual asoslari" bo'limida darslarda o'quvchilarning quyida ko'rsatilgan mustaqil ish faoliyatlari sanab o'tilgan⁵: 1) kuzatish; 2) izlanish; 3) alohidaliklarni sharhlash; 4) qiyoslash; 5) umumiylikni sharhlash; 6) farqlarni sharhlash; 7) tasnif etish; 8) hukm chiqarish; 9) aloqadorlikni aniqlash; 10) qo'llash kabi.

Xulosa qilib aytganda, har bir yangi mavzu o'quvchiga, albatta, ma'lum turdagi va darajadagi yangi bilim beradi. Ona tilidan beriladigan yangi bilimlar bolaning tildan foydalanish imkoniyatlarini ochish, yozma va og'zaki nutqini boyitishga, fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qilishi kerak.

Ona tilini o'qitishning boshqa fanlardan tub farqi shundaki, ko'pgina fanlarni ularning asosiy tushunchalarini bola faqat maktabdagina o'rganadi. Ona tili esa, o'quvchiga tanish, u maktabda ona tilini yangi bir narsa sifatida o'rganmaydi, balki ona tili imkoniyatlaridan foydalana olish malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtiradi, kengaytiradi, abadiy nutq me'yorlarini puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Ona tili ta'limining samaradorligi mustaqil turmushga qadam qo'yayotgan yoshlarning nutqiy taraqqiyot darajasi bilan baholanadi.

Zero, nutqiy faoliyatga tayyor bo'lmagan shaxsni turmushga tayyor deb bo'lmaydi. Maktab o'quvchilarida yuqori darajada rivojlangan og'zaki va yozma nutq o'z-o'zidan shakllanmaydi, albatta. O'quvchilarda nutq tadbirkorligini tarbiyalash, fikrni tinglovchiga ixcham va aniq, ravon va tushunarli ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishda ona tili ta'limida integratsiyalashgan darslarini tashkil etish nechog'lik muhimligini unutmashimiz kerak.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH (PEDAGOG-PSIXOLOGLAR MISOLIDA)

Rezume. Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim qarordir. Maqolada kelajakdagi kasbni tanlash jarayonining har tomonlama tahlili keltirilgan. O'quv jarayonida kasbning sub'ektiv qiyofasining o'zgarishini baholash hamda pedagog-psixolog faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *pedagog-psixolog, kasbiy-pedagogik faoliyat, pedagogik kompetensiya.*

Резюме. Выбор карьеры – самое важное решение в жизни каждого. В статье дан комплексный анализ процесса выбора будущей карьеры. Оценка изменений субъективного образа профессии в образовательном процессе, а также информация о деятельности педагога-психолога.

Ключевые слова: *педагог-психолог, профессионально-педагогическая деятельность, педагогическая компетентность.*

Abstract. Choosing a career is the most important decision in a kaidogo's life. The state provides a comprehensive analysis of the process of choosing a future career. Assessment of changes in the subjective image of the profession in the educational process, as well as information on the activities of a teacher-psychologist.

Key words: *teacher-psychologist, professional pedagogical activity, pedagogical competence.*



R.A. YUNUSOV*

Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyoti, islohotlarni amalga oshirish muvaffaqiyati, demokratik erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi urinishlar, mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash kabi muhim masalalar aynan yoshlarga, ularni erkin va mustaqil fikrlash ruhida, islohotlarning faol davomchisi sifatida tarbiyalashga bog'liq. Shuning uchun mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, uning ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-marfiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol shaxsni voyaga yetkazishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu haqida to'xtalib, "Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog'liq" deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, yuqorida bugungi kunda ta'lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi ko'p jihatdan yoshlarga bog'liq ekanligini e'tiborga olsak, ularning ongu-tafakkuri rivoji ko'p jihatdan ularning huquqiy bilimlarga egaligi hamda ahloqiy va huquqiy ongini qaror toptirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarining voyaga etish, rivojlanish davrlari bilan uyg'unligi dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillastirib borish jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti istiqbolidagi vazifalarni amalga oshirish uchun eng zarur omil hisoblanadi. Yurtimizda yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta'lim jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo

* **Yunusov Ravshan Alimjanovich**, Toshkent davlat stomatologiya institute Yoshlar masalalari va ma'naviy-marfiy ishlar bo'yicha prorektori. **E-mail:** yunusov_r1986@mail.ru
https://constitution.uz/uz/pages/prezident_maruzasi_25yil

boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlar; noaniq vazifalarni bajarish; bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanish; kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda namoyon bo'ladi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar o'z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida pedagog-psixologlarning kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida pedagoglar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Shu munosabat bilan pedagog-psixologlarni oliy ta'lim muassasasidagi faoliyatlarini faollashtirish bugungi kunda talab qilinayotgan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub'ektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub'ektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlari nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi².

Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi.

Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlari hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish; qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish; ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish; faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnatish olish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar; muayyan ma'naviy qadriyatlar, dunyoqarash, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilish hissining mavjudligi; o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish.

Sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan biri A.S.Kosogovanning³ fikricha, pedagogik nuqtai nazardan "o'qituvchining kasbiy kompetentligi – bu, tajriba, nazariy bilimlar, amaliy malakalar va muhim ahamiyatli shaxsiy sifatlarning integratsiyasi asosida shakllangan murakkab individual-psixologik tuzilma bo'lib, o'qituvchining pedagogik faoliyatni to'laqonli bajarishga tayyorligini anglatadi". Kasbiy kompetentlikning ushbu ta'rifi uning tizimli tuzilmasidan darak beradi. Bu tuzilma tajribada amalga oshirilgan, shaxsga oid tegishli

² Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностью ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Екатеринбург, 1999; Ишмухамедов Р., Мирсолиева М. Укув жараёнида инновацион таълим технологиялари. – Т.: Fan va texnologiya, 2014. – В. 60.

³ Косогова А.С. Развитие у педагогов культуры трансляции способов познавательной деятельности. – Иркутск: ИГПУ, 2008. – 120 с.

sifatlar asosida shakllanadigan kompetensiyalardan tarkib topadi.

⁴ <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/materialy-mo/2015/12/17/sovremennye-obrazovatelnye-tehnologii-v-nachalnoy-shkole>

активность. Игровые коллизии вызывают у учащихся стремление анализировать, сопоставлять, исследовать скрытые причины явлений. Это – творчество! Это то, что и составляет явление познавательной активности. Собственно игра вызывает важнейшее свойство учения – потребность учиться и узнавать.

Неустойчивость познавательного интереса к обучению у детей, отсутствие внимания к единице языка как предмета изучения на уроках русского языка делают предельно сложным преподавание русского языка.

Использование игры помогает в той или иной степени снять ряд трудностей, вести изучение и закрепление материала на уровне эмоционального осознания, что способствует в дальнейшем появлению познавательного интереса к русскому языку как учебному предмету.

Русский язык – серьёзный и сложный предмет. На этих уроках обучающимся приходится много писать, а потому учитель должен уделять особое внимание здоровьесберегающим технологиям⁵.

Большое значение имеет организация урока. Учитель строит урок в соответствии с динамикой внимания детям, учитывает время для каждого задания, чередует виды работ. Так, например, во время объяснительного диктанта целесообразно не только объяснять орфограммы, пунктограммы, но и провести морфемный, фонетический и лексический разборы.

Использование компьютерных технологий в современной школе на уроках русского языка в условиях всеобщей компьютеризации является важной и неотъемлемой частью образовательного процесса.

Разнообразные интересы школьников уже не могут быть удовлетворены лишь материалами традиционного учебника и словом учителя. Интернет-ресурсы предоставляют обширные материалы, целесообразные для изучения языка, и как источник накопления теоретических знаний (своеобразная энциклопедия), и как средство, позволяющее осуществить языковое развитие обучающегося.

Одним из преимуществ использования новых информационных технологий является переакцентирование с вербальных методов обучения на методы поисковой и творческой деятельности.

Использование образовательной информации, размещенной на дисках, не является заменой учебников или его новых вариантов. Оно создает основу для организации самостоятельной деятельности учащихся по анализу и обобщению материала при широком использовании индивидуальных и групповых форм организации учебного процесса.

Использование образовательной медиатеки позволяет представить обширный и самый разнообразный материал, выбрать последовательность знакомства с предлагаемой информацией и степень глубины этого знакомства, «извлечь» любой материал и использовать его в самостоятельных работах школьников, озвучить любой текст.

Современное образование, рассматриваемое как социальный институт, система, процесс, результат, представляет собой единство обучения и воспитания, которые реализуют основные принципы смены парадигмы с информационной, сооб-

⁵ <https://zhuksch2.edumsko.ru/collective/method/post/628116>

⁶ <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/materialy-mo/2015/12/17/sovremennye-obrazovatelnye-tehnologii-v-nachalnoy-shkole>

O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Rezume. Bugungi kunda darslarga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda o'qish darslarini ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish, shuningdek, o'quvchulami fikrlashga undaydigan savol, test topshiriqlardan ham o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'quvchilarini matini o'qish va tushunish darajasini oshiradi, o'quv materialini o'zlashtirishga yordam beradi va sifatini oshiradi.

Tayanch so'zlar: metod, o'qish, PISA, PIRLS, baholash, muammoli vaziyat, ilg'or pedagogik texnologiyalar.

Резюме. Учитывая сегодняшние требования, важно организовать занятия в классе с использованием передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий, а также с использованием вопросов, тестов и заданий, которые побуждают учащихся мыслить. Это помогает ученикам читать и понимать текст, помогает им освоить материал и улучшает их качество.

Ключевые слова: методика, чтение, PISA, PIRLS, оценка, проблемная ситуация, передовые педагогические технологии.

Abstract. Given today's requirement, it is important to organize classes in the classroom using advanced pedagogical and information and communication technologies, as well as using questions, tests and assignments that encourage students to think. This helps students read and understand the text, helps them master the material and improves their quality.

Key words: methodology, reading, PISA, PIRLS, assessment, problem situation, advanced pedagogical technologies.



X.J. SATTOROVA

Bugungi kunda butun jahon mamlakatlarida ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar qatori mustaqil O'zbekistonimizda ham bu borada bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o'rta, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsad qilib olindi¹" degan so'zlari fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi.

Qolaversa, mamlakatimiz o'quvchilari 2021-yilda ta'lim sifatini baholash bo'yicha yirik xalqaro tadqiqot – PISA dasturida ishtirok etdi. Ushbu tadqiqot bizga ta'lim tizimida ulkan islohotlarni amalga oshirishga turtki bo'luvchi qimmatli axborot va tahlillarni berish, shuningdek, yurtimiz o'quvchilarining bilim darajasini dunyo bolalari bilimi bilan solishtirishga imkon yaratdi. Ya'ni 2021-yildagi PISA reytingida 85 ta davlat qatorida O'zbekiston ham namoyon bo'ldi. PISA sinovining bitta davriyligida qatnashish uchun 654 ming yevro to'lash talab qilinadi. O'zbekistonning ushbu dasturda ishtiroki davlat byudjeti hamda xalqaro moliyalashtirish institutlari tomonidan moliyalashtirilishi rejalashtirilgan. Bu esa, davlatimizning ta'lim tizimiga qanchalik katta e'tibor qaratayotganligining yorqin namunasidir. Zero, "Ta'limga kiritilgan investitsiya – kelajakka

¹ Sattorova Xadicha Jabborovna, TDPU dotsenti. E-mail: sattarovaxadicha4@gmail.com

¹ "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. 2018-yil 25-yanvar.

qo'yilgan sarmoyadir", – deydi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

O'qitish jarayonida o'qituvchining nazorat qilib borishi, o'quvchilar bilimini tekshirishi va baholashi muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida tekshirish, baholash bilimlarni mustahkamlash va aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'qishga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Bugun kunda ta'lim sifatini yangicha xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash tizim shakllanmoqda. Shuning uchun har bir fan o'qituvchisi xalqaro baholash tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi va o'quvchilarni PISA va PIRLS baholash imtihonlariga tayyorlashi lozim. PISA va PIRLS o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimini va ularni amaliyotda qo'llay olishini baholaydi.

PISA dasturida 15 yoshli o'quvchilar bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda, inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyati baholanadi va uch yilda bir marotaba o'tkaziladi.

PIRLS dasturida 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasi aniqlanadi va baholanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi, murakkab muammoli vaziyatlarini hal etish, o'rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishi, ularning har xil yutuqlari aniqlanib baholanadi.

O'quvchilarning har xil topshiriqlar asosida javoblari ularning bilimlarini aks ettiradi va o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchining qanday o'zlashtirayotganligini, u o'quv materialini qanchalik egallaganligi darajasiga qarab baholanadi. Shuning bilan birga ular ma'lum darajada o'qitishning sifatini ham aniqlaydi.

4-sinfda "Ziyrak uch yigit"² ertagi bilan tanishtirishdi o'quvchilarni quyidagi savol va topshiriqlar asosida baholash mumkin.

Ziyrak uch yigit

Savollar:

1. Tuyaning bir ko'zi ko'r, uning ustiga birida yog', ikkinchisida asal bo'lgan ikki idish osilganligini kim aytdi?

A) Ismoil

B) Ibrohim

C) Umar

D) Tuyaning egasi

2. Ismoil tuyaning qaysi jihatini bashorat qildi?

A) Tuyaning bir tishi tushgan edi

B) Tuyaning bir ko'zi ko'r edi

C) Tuya ustiga birida yog', ikkinchisida asal bo'lgan ikki idish osilgan edi

D) Tuyaning rangi sariq edi

3. Ertakdagi voqealar ketma-ketligini raqamlar bilan ifodalang

1 raqami qo'yilgan.

___ Tuyaning egasi yigitlarni tuyani o'g'irlaganlikda aybladi.

__1__ Uch ziyrak yigit yo'ldan o'tib ketgan tuyaning izlarini ko'rib qoldi.

___ O'rta yoshli bir kishi tuyasini yo'qotib qo'ygani aytdi.

___ Hokim g'azablanib yigitlarni zindonga tashladi.

___ Ziyrak yigitlar tuyaning egasiga uning belgilarini aytishdi.

² Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2020. – 240 b.

4. Nima uchun tuyaning egasi yigitlar o'g'irlik qilmaganini aytishsa ham ularni aybladi. Ikkita misol keltiring _____

5. Hokim yigitlarni zindonga tashlashdan oldin ularga nima dedi? _____

6. Tuya egasi hokimdan yigitlarni ozod qilishini so'raganining sababini 1 ta misol bilan izohlang _____

7. Qanday qilib Ibrohim tuyaning bir ko'zi ko'rligini bildi?

A) Yo'ning bir tomonida yumronqoziq bir joyni yalab turgandi

B) Tuya faqat bir tomondagi o'tlarni yeb borgan

C) Yo'ning ikkinchi tomonida pashshalar g'uvullashardi

D) Chunki tuyaning bir tishi tushib qolgan edi

8. Ertakda yigitlar qanday xislatlarga ega ekanligi aytilmoqda. 1 ta misol keltiring _____

9. "Tuya tishlari bilan o'tni tortganda, har tishlab tortilgan o'tlardan bittasi qolib ketavergan, bu esa, tuyaning bir tishi yo'qligini ko'rsatdi". Ertakda bu gapni kim aytdi?

A) Ismoil

B) Ibrohim

C) Umar

D) Tuyaning egasi

10. Umar hokim haqida qanday taxmin qildi?

11. Hokim asl haqiqatni kimdan so'rab bildi?

A) Ibrohimdan

B) Onasidan

C) Umardan

D) Ismoilidan

12. Hokim oshpaz o'g'li ekanligini bilganidan so'ng onasiga qanday munosabatda bo'ldi?

A) G'azablandi

B) Onasiga tasalli berdi, ko'nglini ko'tardi

C) Onasidan yuz o'girdi

D) Hokimlikdan voz kechdi

13. Umar hokimning oshpaz o'g'li ekanligini qanday izohlab berdi? _____

14. Ertak qismlariga mos sarlavhalar toping.

1-qism: _____

2-qism: _____

3-qism: _____

Demak, o'qish darslarida o'quvchilar bilimni baholashda qo'llangan savol, test va topshiriqlar o'quvchining o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganligini aniqlab bilim, ko'nikmalar va malakalarini shakllantiradi.

MAKTAB O'QUVCHILARI IJTIMOYLAISHUVIDA OILA VA MAKTAB MIKROMUHITNING O'RNI

Rezume. Maqola dunyo pedagogikasida alohida tadqiqot obyekti sifatida dolzarb ahamiyatga molik shaxs ijtimoiylashuvi, unda oila va maktab ijtimoiy institutlarining o'rni, xususan, shaxs va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ijtimoiylashuv kategoriyasining omillari, bosqichlari, vositalari, roli, ahamiyati, shuningdek, mavjud muammo va uning yechimlari borasidagi mushohadalarga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: *ijtimoiylashuv, omil, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy institut, muhit, muloqot, pedagogik qo'llab-quvvatlash, bilish, demografik holat, ijtimoiy mavqe.*

Резюме. В статье акцентируется внимание на социализацию личности как отдельном объекте изучения в мировой педагогике, показана роль семьи и школьных социальных институтов, в частности, факторы, этапы, инструменты, роль, значимость категории социализации, связанной с развитием личности и общества.

Ключевые слова: *социализация, фактор, социальная адаптация, социальный институт, среда, общение, педагогическое сопровождение, познание, демографическая ситуация, социальный статус.*

Abstract. The article focuses on the socialization of the individual as a separate object of study in world pedagogy, the role of the family and school social institutions, in particular, factors, stages, tools, role, significance of the category of socialization associated with development. personality and society

Key words: *socialization, factor, social adaptation, social institution, environment, communication, pedagogical support, cognition, demographic situation, social status.*



B.O. PARDAEV*

Hozirgi sharoitida o'sib kelayotgan yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuviga o'z ta'sirini o'tkazadigan qator omillar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri oila ijtimoiy instituti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda "Mahalla" o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgan.

Oila va maktab singari an'anaviy ijtimoiy institutlarning samarali faoliyati yoshlarning mustaqil hayotda o'z o'rini topishida alohida o'ringa ega. Mazkur muammoga bo'lgan mamlakatimizdagi ustuvor e'tiborni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev quyidagicha ta'kidlaydi: "...yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qatiyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz"¹.

Oila bola uchun birinchi va eng yaqin ijtimoiy qo'rg'on sanaladi va bolaning ijtimoiylashuvida yetakchi muhit sifatida muhim iz qoldiradi. N.M.Egamberdieva bu xususida shunday yozadi: "Oilaga kirish – ma'lum emotsional munosabatlar tizimida ishtirok etish, shu ijtimoiy guruhga mansub bo'lish, u bilan umumiy tarixga ega bo'lish, belgilangan joyda

* **Pardayev Bekmurod O'tapov'latovich**, Toshkent davlat pedagogika universitetining Boshlang'ich ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi. **E-mail:** pardayev.bekmurod@mail.ru

istiqomat qilish demakdir"². Aynan oila bolaning jamiyatga kirishiga yordam beradi, unga ism qo'yadi, uzoq tarixga borib taqaladigan shajaraga ega qiladi, bolani jamiyatda mavjud qoidalarga mos tarzda o'zini tutish, boshqa insonlar bilan muloqotga o'rgatadi. Bola oilada ilk bor jins bilan bog'liq ijtimoiy rollar taqsimotini anglab yetadi. Shunday qilib, aynan oilada individning dastlabki ijtimoiy mohiyati shakllanadi. Insonning dastlabki 20 yoshgacha bo'lgan ijtimoiy mavqeini uning ota-onasining jamiyatda tutgan o'rnini belgilab beradi, ya'ni ota-ona qayerda va qanday sharoitda yashayotganligi bolaning ijtimoiylashuv darajasiga ta'sir qiladi. Ota-onaning kasbi oilaning madaniy va ma'lumotlilik darajasini belgilaydi.

Shu bilan birga, oilaning ijtimoiy institut sifatida ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ham unutmash kerak. Ota-onaning ijtimoiy mavqei, ishxonasida lavozimining pastligi, ichimlikka ruju qo'yanligi, oilaning to'liq emasligi, ya'ni ota yoki onaning yo'qligi, janjalga moyilligi, ota-onalarning o'zini tutishidagi ruhiy og'ishning mavjudligi. Bolaga nisbatan nosog'lom munosabat kabilar bolaning dunyoqarashi, xarakteri, ijtimoiy xulqida o'zining chuqur salbiy asoratini qoldiradi. Albatta, bu yerda sabab-oqibat natijalaridan ham ko'ra, shaxsning tug'ma xususiyatlari muhimroq sanaladi. Masalan, ichkilikka ruju qo'yan insonning bolasi araqxo'r bo'lishi yoki o'z bolaligidagi tajribalariga tayangan holda spirtli ichimlikka butun umr nafrat bilan qarashi; bolaligida ota-onasi tomonidan zo'rovonlikdan jabr ko'rib o'sgan bolalar o'ta shafqatsiz, boshqalarni qiynab lazzatlanadigan shaxslar bo'lishi yoki zo'rovonlikka qarshi kurash faoli, insonparvar shaxs bo'lib yetishishi mumkin. Aynan oila davlat jamiyat hayotiga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Oila inson mahsulotini ishlab chiqarish bilan kifoyalanib qolmasdan uning ijtimoiylashuvining birlamchi omili, ijtimoiy instituti hisoblanadi.

Biz oila ijtimoiy muhitini o'rganishda O'zbekistonda mavjud 7200000dan ortiq oilalarning quyidagi uchta holati bilan bog'liq asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratdik:

Oilaning demografik holati.

Oilaning ijtimoiy holati.

Oilaning iqtisodiy holati.

Oilaning demografik holati shu oila a'zolari soniga, uning muayyan vaqt oraliqidagi o'zgarib turishiga, shuningdek, oilaning geografik joylashuv o'rniga qarab belgilanadi. Ya'ni oila a'zolari miqdorining sifat tarkibi, oila istiqomat qiladigan xonadonning ilmiy-madaniy markaz sanaladigan poytaxtda, viloyat, tuman markazlarida yoki mamlakatning hozircha muhandislik kommunikatsiyalari yetarli darajada taraqqiy qilmagan chekka qishloqlari hududida joylashganligi belgilab beradi. Oilaning ijtimoiy holati boshlang'ich sinf o'quvchisi istiqomat qiladigan oiladagi undan yoshi katta bo'lgan barcha a'zolarining dunyoqarashi, ma'lumot darajasi, milliy an'ana va qadriyatlarga bo'lgan munosabati orqali aniqlanadi.

Oilaning iqtisodiy-moliyaviy darajasi esa, kichik yoshdagi maktab o'quvchisining ta'lim olishi, kiyinishi, ovqatlanishi, dam olishi uchun oilaning moliyaviy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu degani sanab o'tilgan har uchala mezon bo'yicha mukammal va to'kis oilada tarbiyalanayotgan bolalarning samarali ijtimoiylashuvi kafolatganligini yoki aksincha demografik, ijtimoiy va iqtisodiy parametrlari nisbatan past bo'lgan oilalarda ulg'ayayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashganlik darajasi talab darajasida bo'lmasligini anglatmaydi.

I.G.Suxinnng e'tiroficha, maktab o'quvchilarining asosiy oilaviy tushkunlik omillari quyidagilardan iborat:

1-omil. Spirtli ichimliklar iste'mol qilish.

2-omil. Ota-onalari ajrashgan.

3-omil. Bola o'z oilasida tarbiyalanmaydi (bobo, momosi bilan yashaydi).

4-omil. Bola oilasida tarbiyalanmaydi, boshqa (buvi, buva)larning qaramog'ida, ularning muhiti ham nosog'lom.

5-omil. Yolg'iz onaning tarbiyasida.

6-omil. Ota-onalar ijara uyida istiqomat qiladi.

7-omil. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan o'zaro muloqotda qiyinchiliklarga uchrashi.

8-omil. Bola oilada istiqomat qiladi, lekin o'z holiga tashlab qo'lgan³.

Oiladagi har qanday noxush o'zgarishlar bola shaxsi rivojlanishida salbiy oqibatlariga olib keladi. A.A. Rean, N.V. Bordovskaya, S.I. Rozum, N.M. Egamberdieva, Sh.A. Abdullaeva oiladagi o'zgarishlarni ikki tipga ajratadi: tarkibiy (tarkibiy yaxlitlikning buzilishi) va psixologik buzilish (oilada mavjud shaxslararo munosabatlar tizimining o'zgarishi, shuningdek, salbiy qadriyatlar tizimining rivojlanishi). Oiladagi tushkunlik omillari darajasi quyidagi tartibda taqsimlandi: birinchi o'rinda ota-onalarning ajrashish omili (22-25%); ikkinchi o'rinni bolaning o'z oilasida tarbiyalanmayotganligi omili egalladi (bobo, momosi bilan yashaydi)" (NS – 19-24 %) va bolaning o'z uyida istiqomat qilishi, lekin o'z holiga tashlab qo'yilganligi omili egalladi (19-24%); uchinchi o'rinda – ota-onalarining nosog'lom turmush tarziga amal qilishlari, ichkilikka ruju qo'yanlik omili ekanligi ma'lum bo'ldi (10-12%); to'rtinchi o'rinni – yolg'iz onalar tarbiya qilishi band etdi (5-11%); beshinchi o'rinni esa, oilaning muhim yashash joyig ega emasligi belgilab berdi (0-4%) va bola o'z oilasida nosog'lom ijtimoiy muhitda yashashi omili egalladi (0-4%). Aytish kerakki, ayrim bolalarning bir qator tushkunlik omillari girdobiga tushib qolishi eng muhim ijtimoiy institut sanaladigan oilada salbiy o'zgarishlarining kuchayishiga, uning vayron bo'lishiga olib keladi.

Oilaviy tushkunlik omillarining foizining kattaligi bunday oilalarda ulg'ayayotgan bolalar kontingentiga pedagogik qo'llab-quvvatlash yordami ko'rsatilishining obyektiv ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Bolaning ijtimoiylashuvida oiladan keyin muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy institut sifatida maktabning alohida o'rni mavjud. Oilada bolaning ijtimoiylashuvi stixiyali kechadi. Maktabda esa, u ongli, maqsadli xarakterga ega bo'ladi. Maktab bola uchun ijtimoiy dunyoning birinchi va asosiy modeli sifatida chiqadi. Aynan maktab tajribasi bolaga kattalar dunyosi amal qilib yashayotgan qonun va qonuniyatlarni o'zlashtirish va turli ijtimoiy rollar, insoniy munosabatlarga amal qilib yashash usullarini o'rgatadi.

Maktab ijtimoiylashuvining ahamiyati bolaning maktabda uzoq muddat bo'lishi hamda buning majburiyligi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, maktab bola uchun ijtimoiy olamning deyarli asosiy modeli sanaladi, negaki o'quvchi kattalar dunyosida yashab ketish qonun va qonuniyatlari asosini aynan maktab partasida o'zlashtiradi.

Ta'kidlash o'rinliki, bolaning maktabdagi ijtimoiylashuvi mashg'ulotlar asnosida o'quvchining tengdoshlari, ustozlari bilan muloqoti, ommaviy chiqishlari hisobiga hamda maktab hayoti muhiti tufayli amalga oshiriladi.

A.A. Rean maktab o'quvchilari ijtimoiylashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratligini ta'kidlaydi: 1) o'quvchilarda muloqot qilish va o'zaro aloqada bo'lish qobiliyatini shakllantirish; 2) his qilish va tajribaga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatini shakllantirish; 3) bilim va o'z-o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatini shakllantirish; 4) ijod va ijodkorlikka ehtiyoj hamda qobiliyatni shakllantirish⁴.

Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlasak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki, maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni,

jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Bejizga, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikmi alohida ta'kidlagan⁵. Maktabda o'quvchilarning ijtimoiylashuviga shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi. Muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi: 1. Faoliyat turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, uning erkin yo'nalganligi. 2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish. 3. Shaxsiy «Men» obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, uz ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish⁶.

Maktab o'quvchisining har tomonlama rivojlanish jarayoni maktab ta'limi, uning boshqaruv roli, pedagogning faoliyatidan iborat murakkab mexanizmining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Bugun maktab jamiyat taraqqiyotining boshqa bosqichlarida oila va boshqa ijtimoiy institutlarning vazifasini bajarishiga to'g'ri kelmoqda. Maktab jamiyatning insonni turli ijtimoiy sharoitlarga moslashishi, ijtimoiy maqomini shakllantiruvchi birlamchi differensiyasini amalga oshiradigan mexanizmi rolini o'tamoqda. Ta'lim tizimi jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sanaladi, ya'ni ta'lim mazmuni shakllanishiga jamiyatning ta'siri yoki ta'lim ta'sirida jamiyatning o'zgarishi hodisasini tushuntirishda maktab va jamiyat o'rtasida ijtimoiy tartibga soluvchi vazifasini o'taydi.

Maktabda ijtimoiylashuv ongli tarzda amalga oshiriladi va subyektli, obyektli, protsessual va qadriyatli shakllarda amalga oshiriladi. E'tirof etilayotgan o'zgarishlar sharoitida inson voqealar rivojidan ortda qolmaydi, natijada o'quvchining hayotiy qadriyatlari o'zgaradi, dunyoni anglashi yangi miqdor va sifat darajasiga ko'tariladi.

Maktabda ijtimoiylashuv shaxsning u yoki bu ijtimoiy guruh, jamoaga kirishish jarayonini o'zida aks ettiradi. O'quvchida aynan shu guruh vakili sifatida unga xos qadriyat, me'yor va ko'rsatmalarning tashuvchisi sifatida zarur jihat va qobiliyatlarni ishlab chiqishi zarur bo'ladi. Maktab hayotini an'anaviy tashkil qilish asosan o'rnatilgan ijtimoiy munosabatlar, axloq namunalari, ijtimoiy tartiblarni ishlab chiqish vazifalariga javob bergan bo'lib, qayta ishlash, ijod qilish kabi jihatlarni nazarda tutmagan. Hozirgi vaziyatda maktabga bo'lgan talab o'zgarimoqda. Dunyo pedagogika fani va amaliyotida ta'limning maqsadi sifatida erkinlik, o'z-o'zini rivojlantirish yetarli darajada aniq va to'liq o'zlashtirilgan, biroq bizning maktablarimizda bu kabi vazifalarning dolzarbligi endi anglanish ostonasida turibdi.

A.V. Mudrik zamonaviy maktab nafaqat bolaning ijtimoiylashuvi, balki jamiyat hayotiga ta'sir etishga qodir bo'lgan barcha ijtimoiylashtirish mexanizmlariga ega deydi.

Olim maktabning bu kabi asosiy mexanizmlarini ikki asosiy yo'nalishga ajratadi: ijtimoiy-psixologik – bolaning ijtimoiy xulq me'yorlarini stixiyali o'zlashtirishi, biror namunaga taqlid, biror inson yoki guruhga o'xshashi, qiyoslanishi; ijtimoiy-pedagogik – bolaning jamiyatda o'rnatilgan stereotip, me'yor va qarashlarni o'zlashtirishi⁷.

Boshqacha aytganda, bola maktabda ta'lim-tarbiya olish jarayonida tayanch bilimlarni egallaydi, shu bilan birga, xohlasa, xohlamasa, yangi ijtimoiy rollar, axloq me'yorlari va qadriyatlar tizimi, muomala madaniyatini o'zlashtiradi.

Mutaxassislar tomonidan maktabni bola ijtimoiylashuvi quroli sifatida e'tirof etishi bilan birga uning o'ziga xos muammolari mavjudligini ta'kidlashadi. Buni ular maktabda shaxs ijtimoiylashuviga nisbatan zamonaviy yondashuvda o'quvchining hayotidan faol tashqi ijtimoiy ta'sirni chiqarib tashlaganlari holda ko'proq nazariy-ma'rifiy jihatdan qurollantirishning ustuvorligi bilan izohlashadi va muammoni hal qilish uchun quyidagi

tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etishadi: ta'lim muassasalari faoliyatiga izchillik asosida shaxs ijtimoiy rivojlanishini psixologik-pedagogik loyihalashtirishni joriy qilish, o'quvchining ijtimoiy-muloqot faolligini stimullashtirish, maktab va oilaning yagona tarbiyaviy ta'sir tizimini yaratish.

Hozirgi maktablarimizning bola ijtimoiylashuviga ta'siri salmoqli bo'lishi uchun yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash amaliyotiga yangi ijtimoiy dasturlarni kiritish zarur. O'quvchi shaxsi samarali ijtimoiylashuviga erishishda ta'lim va tarbiya uzviyligiga erishish juda muhim.

I.S. Konning yozishicha: kim fanni o'rganib, xulqda ortda qolayotgan bo'lsa, u o'zlashtirishda ortda qolayotgan bo'ladi. Olimning e'tiroficha, inson tarbiya tufayligini odam bo'ladi. Ta'lim uni aqlliroq qiladi, lekin yaxshi qilolmaydi, deb hisoblagan⁸.

Sharq va G'arb uyg'onish davrining boshqa mutafakkirlari ham shaxsning shakllanishida tarbiyaning roli muhimligini, ta'lim esa, tarbiyaning muhim vositasi ekanligini hamda tarbiyaning ta'limga nisbatan murakkab jarayonligini ta'kidlashgan.

Maktablarimizda shaxs ijtimoiylashuvi jarayonini tubdan o'zgartirishda pedagogika fanining nisbatan yangi sohasi sanaladigan akmeologiya katta umid uyg'otmoqda. Akmeologiya o'quvchi shaxsi maqsadini belgilash, qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy cho'qqiga erishishda ma'naviy kuchga egalik, axloqiy-intellektual erkinlik, ijodiy imkoniyatlarini ochish masalalarini qamrab oladi. Bu davr talablaridan kelib chiqqan holda pedagogika fani hamda maktab amaliyotini yangi mazmun, o'quv-tarbiya jarayonini yangi texnologiyalar bilan boyitadi. Oila va maktabda bolaning samarali ijtimoiylashuvini ta'minlashda ota-ona hamda pedagoglarning akmeologiya fan asoslaridan xabardorliklari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa shuki, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv – millat va mamlakat, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga qodir bo'lgan maktab o'quvchilarini tayyorlashning muhim shartlaridan biri sanaladi. Ushbu jarayonning sifati va samarasi ko'p jihatdan ota-ona va pedagoglarga bog'liqligi tufayli har ikkala ijtimoiy institutning mavqeini oshirish, ular o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yangi va yuksak pog'onaga olib chiqish davlat va jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanishini davrning taqozosi sifatida anglash maqsadiga muvofiq.

BUYUK MUTAFAKKIRLARNING TA'LIM VA TARBIIYA XUSUSIDAGI QARASHLARI TALQINI

Rezume. Maqolada ta'lim va tarbiyaning inson kamolotida tutgan o'рни va roli, Sharq va G'arb mutafakkirlarining bu boradagi pedagogik qarashlari xususidagi qimmatli fikrlari xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, tarixiy mumtoz manbalarda mavjud aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyaga doir qomusiy olimlarning qarashlari to'g'risidagi mumtoz mulohazalari yoritilgan. Maqolada shaxs tarbiyasida ilm-ma'rifatning ulkan ahamiyatiga alohida urg'u berilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, ijtimoiy tarbiya, tarbia nazariyasi, pedagogika tarixi, axlohiy tarbiya, individual xususiyat, xalq pedagogika, aqliy rivojlanish.

Резюме. В статье рассматриваются роль и место образования и воспитания в развитии человека, приведены ценные взгляды восточных и западных мыслителей на этот счет. Есть также мумифицированные комментарии к взглядам энциклопедистов на умственное, физическое, духовное, эстетическое воспитание, которые имеются в классических исторических источниках. В статье подчеркивается большое значение науки и образования в воспитании личности.

Ключевые слова: образование, социальное воспитание, педагогическая теория, история педагогики, нравственное воспитание, индивидуальный характер, народная педагогика, умственное развитие.

Abstract. The article examines the role and place of education and upbringing in human development, the valuable views of Eastern and Western thinkers on pedagogical views on this matter. There are also mummified comments on the views of encyclopedists on mental, physical, spiritual, aesthetic education, which are found in classical historical sources. The article emphasizes the great importance of science and education in the upbringing of the individual.

Key words: education, social education, pedagogical theory, history of pedagogy, moral education, individual character, folk pedagogy, mental development.

Xalqimiz azal-azaldan ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor bilan qaragan. Uni faqat shaxsiy, xususiy ish sifatida emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lgan jiddiy ijtimoiy vazifa sifatida qadrlagan, o'zidagi bilim, ko'nikma va malakalarni saqlash, ko'paytirish, qadrlay bilishni, ayni paytda bularning barchasini boshqalarga yetkazishni ham o'zi uchun odat deb bilgan. Buni biz uzoq tariximizga nazar tashlab yaqqol bilishimiz mumkin. Pedagogka tarixini bilish esa, zamonaviy ta'lim texnologiyalari mohiyatini teranroq ilg'ash imkonini beradi. Zero, "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmagan ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur".

Buyuk tanqidchi V.G.Belinskiyning fikricha, "Go'zallikni hamma tushunavermaydi va tushunishi shart ham emas. Uni faqat ozchilik, sara kishilargina tushunadilar. Kimki tabiatan ruhdan yaralgan bo'lsa, u ruhning tanaga va tana qalbi – aqlga muayassar bo'lmagan hamma ne'matiga dahldor. Aql insonni barcha hayvonlardan yuksakka ko'taraveradi, lekin faqat idrokkina insonni barcha narsadan ustun qiladi".

Ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan dastlabki qaydlar Avesto yodgorligida uchraydi. Bevosita turkiy muhitda esa, buni O'rxun-Enasoy yodgorliklaridagi ayrim manbalar orqali payqashimiz qiyin emas. Ta'lim-tarbiya Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi hayotida har doim juda katta



A. NISANBAYEVA *



A. CHINALIEVA *

* **Nisanbayeva Akmarak Kaldibeyvna**, TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti dotsenti, p.f.n. **E-mail:** nisanbaeva.akmaral@mail.ru, **Chinalieva Ajamal**, TDPU magistranti. **E-mail:** chinalievaoyjamol@gmail.com

ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan. Xalqimizda "Dono topib gapirar" degan maqolning mashhurligi bejiz emas. Ammo unga amal qilish o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi.

Chiroyli, o'rinli, mantiqli gapirish zarurati barcha kasblar uchun ham muhim. Ammo bu o'qituvchilar uchun alohida zaruratdir. Zero, o'qituvchining asosiy ish quollaridan biri ham so'zdir. Ammo bu o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi. Buning uchun juda katta mehnat qilish talab etiladi. Bu mehnat esa, uni bilgan, bu yo'ldagi marra va manzilni aniq tasavvur etgan shaxs – ustoz-murabbiy nazorati ostidagina tashkil etilishi kerak.

"Avesto" yodgorligining ko'pgina o'rinlarda bola tarbiyasiga, ta'lim-tarbiya jarayonlariga bo'lgan munosabat aks etgan o'rinlar mavjud.

Buyuk mutafakkirlarimiz Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar ta'lim-tarbiya, o'qituvchi xususida alohida to'xtab o'tishgan. Ular insonning shaxs sifatida kamol topishida ilm olishning, ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida o'zlarining qimmatli fikrlarini aytib o'tganlar. Ayni paytda ular bu borada faqat ustoz-murabbiylarning emas, balki jamiyatning har bir a'zosi zimmasidagi vazifalarni ham chetlab o'tishmagan.

O'rta Osiyoning ulug' mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (873-950) o'zining ilmiy ishlarida insonning munosib ravishdagi kamoloti uchun ta'lim va tarbiyaning o'rni va ahamiyati nihoyatda katta ekanligini takror va takror qayd etadi. U "Ilmlarning kelib chiqishi" ("Ixso ul-ulum") nomli risolasida badiiy asarni ifodali o'qish, o'qiganini hikoya qilib berish zo'r san'at ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha, hikoyachilikda (o'qishda) o'tkir ta'siri bo'lgan ana shu san'atda o'ziga munosib o'rin egallagan kishilar hakim deyiladi va u o'qishni, notiqlikni egallagan san'atkor, faylasuf, donishmand bilan tengdir. Forobiy har bir kishining o'ziga xos, individual xususiyatga ega bo'lishini, ta'lim-tarbiya jarayonida bu xususiyatlarga e'tibor berish shart ekanligini alohida uqtiradi: "Kishilar jismoniy va tug'ma qobiliyat, kuch-quvvatda bir-birlaridan ortiq - kam bo'ladilar".

Forobiyning ta'kidlashicha, "Har kimki ilm-hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo'lishiga intilsin, axloqli-odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat va makr-hiyaladan uzoq bo'lsin". Bugina emas, "Rohatlanish, dard chekish va qayg'urish asosiy tabiiy xislat hisoblanadi, ular tufayli fazilatlar va illatlar o'zlashtiriladi va, nihoyat, balog'at va bilimlarga, ya'ni rivojlanishga tarbiya va mashq orqali erishiladi".

Tarbiyaning buyuk imkoniyati shundaki, u orqali inson yaxshi va yomon, foydali va zararli narsalarni ajratishga erishadi. "Tarbiya oqillikni vujudga keltiradi. Kishining tarbiyasi bo'lmasa, u bema'nilikni xush ko'radi".

Forobiy komil insonlar haqida gapirganida, ularning bevosita nutqiga, so'zni tushunish va tushuntirish imkoniyatlariga ham e'tibor beradi. Uning yozishicha, u suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur".

Forobiyning bevosita san'at hamda o'qituvchi-murabbiy nutqi haqida ham bir qator jiddiy kuzatishlar olib borganligi yaxshi ma'lum. "Katta musiqa kitobi", "Lafz – so'zlar va harflar haqida kitob", "Ritmlar klassifikatsiyasi haqida kitob", "Musiqa haqida so'z", "Yozuv san'ati haqida kitob", "Abu Nasrning she'r va qofiyalar haqidagi so'zi", "Shoirning she'r yozish san'ati qonunlari haqida" va boshqa asarlari shu haqdadir.

Forobiy she'r tuzilishi, uning mohiyati, eng muhimi, she'r vositasida badiiy adabiyotni o'rganish va o'rgatish usullari haqida ham qimmatli fikrlar bildirgan.

Forobiy notiqlik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy usulda ko'rsatib beradi: "Demak, bundan ma'lum bo'lishicha, isbotda ilm, tortishuvda ikkilanish, ritorikada ishontirish ahamiyatli bo'ladi".

Ibn Sinoning asarlarida ta'lim va tarbiya, ayrim fanlarni o'qish-o'rganishga oid qimmatli fikr-mulohazalar ham talaygina. U o'z pedagogik qarashlarida muhitning shaxs tarbiyasiga

jiddiy ta'sir ko'rsata olishini maxsus uqtiradi. Olim ilm olishning uzluksiz jarayon ekanligini, biroq olam sirlarini bilishda inson doimo intilishi, harakat qilishi zarurligini ta'kidlaydi:

Hech bir gap qolmadi, ma'lum bo'lmagan,
Juda oz sir qoldi, mavhum bo'lmagan,
Bilimim haqida chuqur o'ylasam,
Bildimki, hech narsa ma'lum bo'lmagan.

Ibn Sinoning qaydlaridan biz o'sha davrdagi ta'lim-tarbiya tizimi hamda uning mazmun va mohiyati haqida ayrim tasavvurlarga ega bo'lishimiz mumkin. Uning yozishicha, "Bola olti yoshga yetgach, uni murabbiy va muallim ixtiyoriga topshiriladi. Ta'lim asta-sekinlik bilan berilishi kerak; birdaniga uni kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim". Olim ayrim adabiy namunalarning inson ruhiyatiga kuchli ta'sir qilishini kuzatgan. Jumladan, oshiqlik holati haqida gapirib, shunday deydi: "G'azal eshitganda ahvoli shodlik va kulguga yoki g'amginlik va yig'iga tomon o'zgaradi, ayniqsa, judolik va hajr tilga olinganda shunday bo'ladi".

Demak, adabiyotning, so'z san'atining inson ruhiyatiga ta'siri juda qadim zamonlardanoq yaxshi ma'lum bo'lgan. Jamiyat a'zolari undan o'z o'rnida foydalanish bo'yicha ham tegishli tajribalarni to'plab borgan.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosida ham olam hodisalarini o'rganishga imkon beradigan ko'plab fikr-mulohazalar mavjud. U "ko'z bilan ko'rgandan eshitgan afzaldir" degan haqidaga rioya qiladi. Bilimni esa, "qaytarish va takrorlash natijasidir", deb biladi. U bilim olishda va o'rgatishda usullarning xilma-xilligini, shakllarning rang-barangligini e'tirof qilgan. Chunki deydi olim, "doimo bir xil narsaga qaray berish malolli va sabrsizlikka olib keladi (o'quvchi) fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi, birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u kishi "Har bir yangi narsada lazzat bor" deyilganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi".

Olim "Avesto", "Kalila va Dimna", arab adabiyoti, hind adabiyotiga oid ko'plab misollarni tahlil qiladi, qiyoslaydi, ulardan o'mak va namunalar olishga chaqiradi.

Ayrim asarlarni o'qish uslubi eshituvchilarga ta'sir qilishning muhim omili ekanligi qadimgi turkiylarga yaxshi ma'lum bo'lgan. Jumladan, "Tishastvustik" sutrasida deklamatsiya bilan o'qishga ko'rsatma berilgan. M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk»i orqali XI asrgacha bo'lgan turkiy ta'lim-tarbiya tizimi haqida ayrim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Jumladan, u alohida, birgalashib va ko'plashib o'qish haqida ishoralar beradi.

Yusuf Xos Hojib so'z va uning ma'nolari haqida alohida to'xtab o'tadi. U so'zni, ayniqsa, badiiy so'zni muqaddas hodisa sifatida sanaydi:

Yashil ko'kdin indi yag'iz yerka so'z,
So'zi birlil yangluq ag'ir qildi o'z.
So'z bo'z yerga yashil ko'kdan tushdi,
So'zi tufayli inson o'zini ulug' qiladi.

Adib tilni uquv va bilimlarning tarjimoni deb biladi. U elchilar haqidagi bobda so'zning ichki va tashqi, o'z va ko'chma ma'nolari haqida gapiradi.

Insonning aqlu zakovati mana shu hodisalarni ajrata olishida ham namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Uqushlug' kerak kaz yalavach, o'rug,
Biliglig kerak so'zka, bilga, yo'rug.
Yana bilsa so'zning ichi ham tashi,
Etilsa aning o'tru buzmish ishi.
Elchi juda zakovatli, xotirjam (bo'lishi) kerak,
Bilimli, so'zga dono, tadbirli (bo'lishi) kerak.
Yana so'zning ichi ham tashini bilsa,
(Toki) uning tufayli buzilgan ishlar tuzalsa.

Soʻzning ichi va tashini bilish uchun uni bildiradigan kishi ham kerak boʻladi. Demak, oʻsha davrlarda mana shu zarurat mavjud boʻlgan. Biz bundan soʻz maʼnolarini izohlab, sharhlab oʻrganishning yaxshi yoʻlga qoʻyilganini tasavvur etishimiz mumkin boʻladi. Bunday oʻqitishning madrasa taʼlimidagi ustuvor yoʻnalish ekanligi esa, fan tarixidagi yaxshi maʼlum boʻlgan hodisadir.

Yusuf Xos Hojib farzandlarni inson umrning mazmuni, “koʻrur koʻz yaruqi” deb biladi.

Adib oila masʼuliyati, ayniqsa, farzandlar tarbiyasining nihoyatda jiddiy masʼuliyat yuklashiga alohida eʼtibor qaratadi:

Kimung boʻldi ersa oʻgʻul, qiz, kisi,

Nekuteg kelir ul kishining usi.

Kimning oʻgʻil, qiz va xotini boʻlsa,

Qanday qilib u kishining uyqusi keladi (1151).

Farzandlarga munosib taʼlim va tarbiya berilishi kerak. Aks holda kishi koʻp qiyinchiliklarga, kulfatlarga duchor boʻlishi mumkin:

Oʻgʻul-qiz saqinchi bu tubsuz tengiz,

Oʻgʻul-qizsarigʻ qildi qirgʻu mengiz (1150).

Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlarini kuzatish shuni koʻrsatmoqdagi, unga oʻz davri xalq pedagogikasining ham taʼsiri sezilarli boʻlgan:

Behuda va boʻsh qoʻyma, yigʻib, tergab tut,

Tergab tutilsa, soʻng bola baxt topadi.

Oʻgʻil-qiz kichikligida nimani oʻrgansa,

To qarib oʻlmaguncha uni unutmaydi.

Ulgʻaygan qari (kishi) nima deydi, eshitgin,

Sinagan, uqqan hamda bilib soʻzlagan kishi.

Kichik ekan oʻgʻilga bilim oʻrgat,

Kichiklikda bilim oʻrgansa, qoʻli baland boʻladi.

Mahmud Qoshgʻariy XI asming buyuk mutafakkiridir. Uning qomusiy olim sifatida koʻplab fanlarga oid maʼlumotlarni toʻplagani va oʻzining “Devonu lugʻot it-turk” asarida aks ettirgani yaxshi maʼlum. Olim bu asarida oʻzini yirik tilshunos va adabiyotshunos sifatida ham koʻrsatadi. Devondagi adabiy parchalar nihoyatda keng mavzularga bagʻishlangan. Ularning janrlari ham rang-barang. Olim bu asarlarga tegishli izoh va sharhlar berishning goʻzal namunalarni tavsiya etadi. Kitobda ayrim janrlar, badiiy-tasviriy vositalar, sheʼriy vaznlar haqida ham koʻplab maʼlumotlar, izoh va talqinlar mavjud. Baʼzi hollarda ayrim adabiy asarlarning oʻqilishi, ularning maʼno xususiyatlari haqidagi koʻrsatmalarning mavjudligi adabiy taʼlimning oʻsha davrdagi holati haqida dastlabki tasavvurlarni bera oladi.

Olim oʻz kitobidagi materiallarni joylashtirish haqida, ularni kitobxonlarga yetkazish haqida uzoq muddat bosh qotirgan: “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli soʻzlar, sajlilar, maqollar, qoʻshiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorongʻi joylarini yoritdim. Bu ish ustida soʻzlarni oʻz joyiga qoʻyish, kerakli soʻzlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yillar mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli soʻzlarni oʻz joyida koʻzlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim”.

Asarda koʻplab adabiy parchalar mavjud. Ularning katta qismi xalq ogʻzaki ijodiga mansubdir. Ayniqsa, maqollarning koʻplab namunolari jamlangan. Muhimi, olim ularning mavzu doiralarini, qoʻllanish xususiyatlarini ham koʻrsatib beradi. Jumladan, “Ashich aytur: tubum altun, qamich ayur: men qaydaman?” “Qozon aytur: tubim oltin, choʻmich

aytur: men qaydaman?”

Bu masal o'zining kimligini biladigan tanish kishilar oldida maqtanuvchi kishiga nisbatan aytiladi”. Yoki “Ag'ilda o'g'laq tug'sa, ariqda o'ti unar – molxonada buzoq tug'lsa, ariqda o'ti chiqadi” maqoli keltiriladi, unga shunday izoh beriladi: “Bu maqol ovqat yoki rizq uchun ortiqcha urinish va qayg'urish kerak emasligi uchun aytiladi”. Yana bir misol: “Erik erni yag'lig', ermagu bashi qanlig'. – Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik. ... Bu matal yalqovlikni tashlashga, g'ayrat bilan ishlashga undab aytiladi”.

Maqollarning orasida kam so'zlashga, oz so'z bilan ko'p ma'no uqtirishga undaydiganlari ham bor: ta'lim so'zug uqsa bo'lmas, yalim qaya yiqsa bo'lmas. – Ko'p so'zni tushunib bo'lmaydi, qattiq toshni yiqitib (sindirib) bo'lmaydi.

Asarda she'r vaznlarini aniqlashga doir harakatlar mavjudligini ko'rsatadigan dalillar bor. Jumladan: “ko'g” so'zining izohida, she'rning vazni, bu yir ne ko'g uza ul – bu she'r qaysi vaznda?” degan misol uchraydi.

“Erdam bashi til – eng yaxshi xulqning boshi tildir” degan maqol ham Mahmud Qoshg'ariy yozib olgan nodir maqollardan biridir.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya jarayonlarining nazariy masalalari bilan ham, amaliy masalalari bilan bevosita shug'ullangan buyuk mutafakkirlarimizdan biridir. Uning ta'lim va tarbiya, mudarris, ustoz va shogirdlar haqidagi fikr-mulohazalari qanchalik muhim bo'lsa, ilm-ahliga, ta'lim-tarbiya muassasalariga ko'rsatgan homiyligi, bu sohadagi tashabbus va mehnatlari ham shunchalik qadrlidir. Biz bu yerda faqat “Mahbub ul-qulub” asarini eslash bilan chegaralanishimiz mumkin. Bu asar bevosita ta'lim-tarbiyaga oiddir. Unda adib yuksak insoniy fazilatlar hamda insonlik sha'nini yerga uruvchi qusurlar haqidagi qarashlarini bayon etadi, bu sohadagi o'zining hikmatlarga to'la mulohazalarini izhor qiladi. Bobur, Munis, Ogahiy, Dilshod Barno, Anbar Otin, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa adiblarimiz ijodida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, uning shakli va mazmuniga oid qimmatli fikrlar mavjud.

Xulosa shuki, sanab o'tilgan fikrlarning bari biz uchun katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan o'rinli foydalanish katta samara beradi.

¹ **Каримов И.** Тарихий хотирасиз келажак йўқ: Тарихчи олим ва журналистлар билан суҳбат // *Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурашимиз*. – Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 149.

² **Белинский В.Г.** Адабий орзулар. – Т., 1977. – Б. 90. 3 ўша китоб, 188-б.

³ **Ҳомидий Ҳ.** Кўҳна Шарқ даргалари. Бадиий-илмий лавҳалар. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 28.

⁴ **Форобий.** Афлотун қонунлари моҳияти // *Фозил одамлар шаҳри*. – Т.: Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 23.

⁵ *Ўша китоб, 30-б.*

⁶ **Форобий.** Фозил шаҳар одамлари қарашлари // *Фозил одамлар шаҳри*. – Т.: Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 159-160.

⁷ *Ўша китоб, 18-б.*

⁸ **Абу Али ибн Сино.** Шеърлар ва тиббий дoston / Тузувчи А.Ирисов. – Т., 1981. – Б. 51.

⁹ **Абу Али ибн Сино.** Тиб қонунлари. Уч жилдлик сайланма. 1-ж. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 90.

¹⁰ **Абу Али ибн Сино.** Тиб қонунлари. Уч жилдлик сайланма. 2-ж. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 21.

¹¹ **Абу Райҳон Беруний.** Уйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи А.Ирисов. – Т.: Ёш гвардия, 1973. – Б. 22.

¹² *Ўша китоб, 40-б.*

¹³ **Кошқарий Маҳмуд.** Туркий сўзлар девони (*Девону луғот ит-турк*) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. Уч томлик. I-том. – Т.: Фан, 1960. – Б. 44-45.

¹⁴ *Ўша китоб, 86-б.*

¹⁵ *Ўша китоб, 98-б.*

¹⁶ *Ўша китоб, 100-б.*

¹⁷ **Кошқарий Маҳмуд.** Туркий сўзлар девони (*Девону луғот ит-турк*) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. Уч томлик. III том. – Т.: Фан, 1963. – Б. 27.

¹⁸ *Ўша китоб, 147-б.*

СОДЕРЖАНИЕ ВНЕКЛАССНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Rezume. Maqolada rus tilida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va uning mazmunini aniqlashning ayrim masalalari muhokama qilinadi. Sinfdan tashqari ishlarni rus tili darslari bilan bog'lash tamoyiliga muvofiq, u dasturda o'rganilgan til va nutq materialining mazmuni bilan bog'liq.

Tayanch so'zlar: darsdan tashqari ishlar, munosabat, tushuncha, bilim, tahlil, shakllantirish, dunyoqarash, yangilik, mazmun.

Резюме. В статье рассмотрены некоторые вопросы организации внеклассной работы по русскому языку и определено ее содержание. В соответствии с принципом связи внеклассной работы с уроками русского языка, оно соотносится с содержанием языкового и речевого материала, изучаемого по программе.

Ключевые слова: внеклассная работа, отношение, понятие, знание, анализ, формирование, кругозор, новизна, содержание.

Abstract. The article discusses some of the issues of organizing extracurricular work in the Russian language and the definition of its content.

In accordance with the principle of linking extracurricular work with Russian lessons, it correlates with the content of the language and speech material studied in the program.

Key words: extracurricular work, attitude, concept, knowledge, analysis, formation, outlook, novelty, content.



З.М.УРАЗОВА *

Одним из нейтральных вопросов организации внеклассной работы по русскому языку является определение ее содержания. В соответствии с принципом связи внеклассной работы с уроками русского языка оно соотносится с содержанием языкового и речевого материала, изучаемого по программе. Наряду с этим на внеклассных занятиях можно рассматривать и такие вопросы, которые непосредственно не связаны с программой по русскому языку, но которые интересуют учащихся и способствуют расширению их лингвистического кругозора.

Таким образом, содержание внеклассной работы по русскому языку составляют два круга вопросов: вопросы, связанные с программным материалом, направленные на углубление знаний учащихся по русскому языку и способствующие привитию практических навыков русской речи; вопросы, не связанные с учебным материалом, предусмотренные программой, способствующие расширению общего кругозора учащихся, представляющие дополнительный материал для речевой тренировки.

Yoshlarning kitob o'qishiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi¹ farmoyishini e'lon qildi. Ushbu farmoyishlari kitob mutolaasi yo'lida yoshlarni savodxonlikka undash, badiiy kitoblar o'qishga jalb qilish hamda ma'nauy yetuk yosh avlodni tarbiyalashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Farmoyishiga muvofiq jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarini chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining kitob ishlab chiqarish va kitobxonlik madaniyatini yanada yaxshilash masalasiga kuyunchaklik bilan yondashayotganida chuqur ma'no, ezgu maqsad mujassam. Chunki kitob insonning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch, insoniyatning tarixiy xotirasi, kelajak yo'llarini yorqin ko'rsatib berishga qodir mash'aladir.

* **Nusratova Hamida Chulibayevna**, TDPU Boshlanlang'ich ta'lim fanlari kafedrasida dotsenti. **E-mail:** hamida.nusratova@mail.ru

¹ "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi Farmoyishi.

Insoniyat tarixi kurashlardan, aql va ma'rifatning rivojidan, uning nodonlik ustidan g'alabasidan, yaxshilik va yomonlikning kurashidan iborat. Insoniyat doimo muntazam taraqqiyot yo'lidan borgan. Inson tafakkurini o'zida aks ettirib, saqlab kelayotgan ijtimoiy xotira shu taraqqiyot negizida tashkil etadi. Ijtimoiy xotira insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida biror-bir axborotni yoki ma'lumotni qayerdadir qayd etish, ro'yxatga olish, saqlash, qayta ishlov berish, kimgadir, avloddan-avlodga yetkazishning o'sha davrga xos shakllaridan iborat bo'lgan. Bu shakllar ma'lum bir sifatga, qiyofaga yoki vositalarga ega bo'lgan. Jamiyatlar taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida tilning paydo bo'lishi dastlabki tajribalarni o'zlashtirib, tahlil qilib, mehnat quollarini takomillashtirish, ulardan foydalanish jarayonlarida ko'zga tashlangan. Eng muhim belgilar tuzilmasidan iborat yozuvning paydo bo'lishi esa fikrlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolish, avloddan-avlodga yetkazish imkonini kengaytiradi. Avval xalq og'zaki ijodi ko'rinishida, keyinchalik yozma shaklda paydo bo'lgan ma'lumotlar almashinuvi og'zaki va yozma adabiyotning paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada, avval og'zaki ko'rinishdagi matnlar yozma shaklga aylanadi.

Insoniyat tomonidan yaratilgan ikkinchi kashfiyot - kitob yuzaga keldi va hamma bilim sohasida adabiyotning mavjudlik shakllariga aylandi. Davrlar davomida kitobning shakl-shamoyili, sifati, betatillishi, tashqi ko'rinishi, ishlab chiqarilishi takomillashib bordi. Antik davrda o'rama kitoblar shakllangan bo'lsa, keyinchalik eramizning IV asrga kelib, muqovaga ega qo'lyozma kitoblar paydo bo'ldi. XV asrga kelib esa, qo'lyozmalarni qo'lda ko'chirib yozishdan kitob chop etishga o'tildi. XX asr oxiriga kelib esa, ilg'or mamlakatlarda elektron shakldagi kitoblar yuzaga keldi. Ammo har qanday shaklda bo'lmasin, kitobning mohiyati o'zgarmaydi. Qo'lyozma holda ham, matbaa holda va elektron shaklda ham kitob o'zining tub mohiyatini, ahamiyatini yo'qotmaydi, uning o'rmini boshqa narsa egallay olmaydi.

Kitob insoniyat va jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida kishilarni tarbiyalash, ularning aqliy rivojlanish vositasi bo'lib keldi. Kitob barcha sohaga oid bilimlarni to'plash saqlash usuli sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, barcha formatsiyalarning almashinuvida va taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Inson tafakkurining rivojlanishida kitob va yozuv doimo hamroh bo'lgan. Ba'zi madaniyat va ma'rifat shakllari og'zaki aloqa munosabatlariga asoslangan bo'lsa-da, yozuv paydo bo'lgandan so'nggina hozirgi kungacha yetib keldi va voqelikka aylandi.

Insoniyat yaratgan muomala vositalari ichida eng ishonchlisi, eng qulayi kitobdir. Barkamol inson tarbiyasi, odamlar ma'naviyati, madaniyati, odob-axloqi, bilim saviyasi, jamiyatda o'ziga xos o'rinni egallashi faqat kitobdan olgan bilimiga bog'liq, chunki u inson aql-zakovati va bilimlarini saqlash hamda keng yoyishning eng mukammal qurolidir. Kitob kishilarga insoniyat erishgan yutuqlarni bilish imkonini beradi, xalqlar o'rtasidagi munosabatni, hamjihatlikni, o'zaro mehr-oqibatni tiklaydi. Dunyoda tinchlikni o'rnatishga, mustahkamlashga xizmat qiladi. Insoniyat yaratgan yozuvlar, kitoblar bo'lmaganda odamzod o'zining o'tmishini, bilim, donolik va hikmatlarini ham bilmagan, ilm-fanni ham taraqqiy ettira olmagan bo'lardi. Jami ixtirolar, kashfiyotlar, taraqqiyot darajasi ham kitoblar tufaylidir. "Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir", degan edi nemis yozuvchisi S.Sveyg. Kitoblar barcha zamonlar uchun eng zarur narsa, qalblar malhami, bilimlar xazinasi, donishmandlik chashmasi bo'lgan va bo'lib qolaveradi.

Davlatimiz rahbarining kitob ishlab chiqarish va kitobxonlik madaniyatini yanada yaxshilash masalasiga kuyunchaklik bilan yondashayotganida chuqur ma'no, ezgu maqsad mujassam. Chunki kitob insonning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch, insoniyatning tarixiy xotirasi, kelajak yo'llarini yorqin ko'rsatib berishga qodir mash'aladir.

Shuning uchun ham mamlakatimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsa-da ahamiyati yo'qolmaydigan tadqiqotu kashfiyotlari faqat kitob orqali yuz berdi. Bugungi avlodlar tomonidan ana shu olimlarning ilmiy-ma'rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilinishining sababi ham ular tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir.

Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi fikrlariga bir quloq tutaylik: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa, siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmasan.

Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "Kitob aql qal'asidir", deganlar".

Yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suyan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig'idek asraganlarni ziyoli, deb ataganlar. Ziyoli – nur tarqatuvchi, u o'zining sa'y-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchilar hisoblangan. Abdulla Avloniy idrok va zakoni ma'rifatparvarlik bilan bog'lab, "Yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlandurmoq uchun aziz umrimizni o'yin-kulgu, safsata, moloya'ni kabi behuda so'zlar ila o'tkarmay, har xil kitob, gazeta va jurnallarni o'qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmoq lozimdur" deydi. Bu esa, xalqni ma'rifatga tashviq qilganidan dalolat beradi.

Prezidentimiz farmoyishidagi yana bir holatga alohida e'tibor berish lozim. Bu hududlarda yozuvchi, shoirlar ishtirokida kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, aholi o'rtasida badiiy jihatdan yuksak milliy va jahon mumtoz adabiyotlari namunalarini targ'ib qilish, kitobxonlar, bosma va elektron kitob ishlab chiqaruvchilar, kitob sotuvchilar hamda kutubxonachi va targ'ibotchilar orasida turli tanlovlar o'tkazish masalasidir.

Bugungi kunda oilaviy kutubxonasi bor yuzlab, minglab yurtdoshlarimiz mavjud. Ularning kutubxonalarida shunday noyob, nodir kitoblar borki, ular juda kamyob va yagona nusxada. Prezidentimiz farmoyishi asosida o'tkaziladigan "Eng yaxshi kitobxon oila" tanlovi o'sha nodir asarlarning nafaqat mazkur oila, balki butun jamiyatning ma'naviy mulkiga aylanishiga, ulardan keng jamoatchilikning, soha mutaxassislarining samarali foydalanishiga imkon yaratadi². Oilaviy kutubxona faqatgina uying bezagi, uy egasining ziyoliligini bildiruvchi belgi bo'lib qolmaydi.

Badiiy asar kishilarning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy salohiyatini yuksaltirishi, ma'naviy barkamolligini ta'minlashi lozim. Bunday asarlar yaratilmoqda. Afsuski, bugungi asarlarning barchasiga ham ijobiy baho berib bo'lmaydi. Ayrim asarlar yaxshi niyatda yaratilayotgan bo'lsa-da, ular "teskari samara" bermoqda. Ba'zi asarlarda turli salbiy ko'rinishlar, zo'ravonlik, ur-yiqit, fahsh singari targ'ib etish holatlari avj olayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Mutafakkir-allomalarimiz johillikning birinchi belgisi go'zallikni

² **Mirziyoev Sh.M.** *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.* – 1-kitob. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

ko'rmaslikdir, deyдилar. Haqiqatdan ham shunday. Atrofimizda shuncha yangiliklar, yangilanishlar, islohotlar sodir bo'lmoqda, odamlarimizning tafakkuri o'zgarmoqda. Ana shu ijobiy holatlarni badiiy jihatdan pishiq asarlar orqali xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga yetkazish adiblarimizning eng muhim vazifasidir. Madaniyat, san'at, ayniqsa, badiiy adabiyotda zamonamiz qahramonini topish, uning obrazini yaratish, nazarimizda, o'ta dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimiz farmoyishida ko'rsatilgan eng muhim masalalardan biri ham shu. Bunday qahramonlar oramizda, ular har kuni jasorat ko'rsatmoqda. Angren – Pop temir yo'lida Farhodning jasoratini takrorlagan, chegarani mustahkamlashda mardlik ko'rsatgan, yangi texnologiyalar asosida fermerlik harakatini rivojlantirayotgan, jahon arenalarida mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarayotganlar – bular zamonamiz qahramonlari emasmi? Xalqimiz aynan ana shunday asarlarni kutmoqda. Ayrim yurtdoshlarimiz "Hozirgi yoshlarga jiddiy badiiy asarlarni tavsiya etgan bilan ular bunday kitoblarni o'qimaydi, chunki zamon o'zgardi", deydi. Yoshlarimizning kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularning ma'naviy ehtiyojini shakllantirish uchun ularga g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak asarlarni tavsiya etishimiz lozim. Hozirgi sharoitda maktab kutubxonalari fondining sohalar bo'yicha tarkibi, o'quvchilarni kitob bilan ta'minlanish me'yori bo'lishi kerak. Bunga aniq me'yorlarni ko'rsatishning iloji yo'q, chunki maktab kutubxonasi fondining tarkibi shu maktab joylashgan mintaqa (shahar yoki qishloqda ekanligi), maktab turi, ta'lim qaysi tilda amalga oshirilishi va boshqa bir qator sharoitlarga bog'liqdir.

Kitob mutolaasi-insonning ruhan va qalban ulg'ayishi, tafakkur ufoqlarining kengayishi, jamiyatda munosib o'rin, hurmat va e'tibor topishida muhim ahamiyatga ega. Kitob o'zini anglab yashaydigan har bir inson uchun do'st, doimiy hamroh, bitmas- tunganmas boylikdir. Kitoblarda ajdodlarimizning necha ming yillik izlanish va kashfiyotlari, fikru-tuyg'ulari manguga muhrlangan. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish masalasiga alohida e'tibor qaratish va kitobxonlik yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirish zarur.

MA'RIFAT FIDOIYLARI

Rezume. Maqola jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida turgan milliy ziyolilardan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning tarix va xalq oldidagi yuksak xizmatlari haqida. Uning maktablar ochish, o'quv va o'quv tizimini yangilash, gazeta va jurnallar, darslik, kitob va risolalar chop ettirganligi, milliy dramaturgiya teatr sohasidagi xizmatlari haqida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: *jadidchilik, jadid adabiyoti, milliy matbuot, teatr, darslik, yangi maktab, ma'rifat, adabiy meros, tarix, ma'rifatparvar, istiqloq, matbuot.*

Резюме. В статье рассказывается об истории и высоких заслугах Махмудходжи Бехбуди, одного из ведущих национальных интеллектуалов движения джадидов. Сначала в статье приводится краткая биография Махмудходжи Бехбуди. Он открыл школы, модернизировал систему преподавания и обучения и издал газеты и журналы, учебники, книги и брошюры. Также представлена информация о его заслугах в области национального драматического театра.

Ключевые слова: *джадидизм, джадидская литература, национальная пресса, театр, учебник, новая школа, просвещение, литературное наследие, история, просвещение, независимость, пресса.*

Abstract. The article is about the history and high services of Mahmudhoja Behbudi, one of the leading national intellectuals of the Jadid movement. He is said to have opened schools, modernized the teaching and learning system, and published newspapers and magazines, textbooks, books, and pamphlets. Information about his services in the field of national drama theater is also presented.

Key words: *jadidism, jadid literature, national press, theater, textbook, new school, enlightenment, literary heritage, history, enlightenment, independence, press.*

Tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilm ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin. Chorizm mustamlakasi davrida madaniy, adabiy hayotimizning hech bir sohasi yo'qki, unda ulkan iste'dodli siymolar etishmagan bo'lsin, o'z sohasining jonkuyar, fidoiy vakillari sifatida faoliyat ko'rsatmagan bo'lsin. Ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Sadriddin Ayniy, Abduqodir Shakuriy, Saidrasul Saidazizov, Siddiqiy-Ajziy, Ishoqxon Ibrat kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoiy insonlarning el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi. Tariximizning so'nggi yuz yildan ortiqroq davrida xalqimizning eng katta armoni bo'lib kelgan bugungi istiqloq kurtagi dastlab mana shu jadidlar ko'ksida nish urib etilgan edi. XX asr o'zbek maorifi, madaniyati va matbuoti, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir. "Usuli jaded", "usuli savtiya" nomlari bilan shuhrat qozongan yangi maktabni Turkistonda shular tashkil qildilar. Shular birinchi bo'lib zamonaviy oliy maktab g'oyasini ilgari surdilar, o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan-qancha yoshlarni ma'rifatlil qilishga harakat qildilar. O'zbek teatrlarining birinchi g'ishtini qo'ygan, nashru matbuotini boshlab bergan ham shulardir. Jadidlar o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloqlarga tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga urindilar. Inqilob yillarida esa, mustaqillik bayrog'ini baland ko'tardilar.



N.S. MIRSAIDOVA*

* **Mirsaidova Nilufar Sobirjonovna**, TDPU Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. **E-mail:** miraidovanilufar@gmail.com

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan davming eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bo'lgan bir davrda yashadi. XIV asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, jaholat va mutaassiblik o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni behad holdan toydirgan ediki, bu imkondan foydalanib o'lkani zabt etgan Rossiya zo'r berib, uni turg'un va tutqun saqlashga urinar edi. Mana shunday bir sharoitda millatni butunlay mahv bo'lishi va Vatanni butunlay g'orat etilishi xavfidan asrab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ma'rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi¹.

Mahmudxo'ja Behbudiy mana shu fidoyilar orasida mumtoz bir o'rinni egalaydi. U mana shu Turkiston jadidchilik harakatining otasidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida XIX asrning 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning tarjimai xolini yoritishda Hoji Muinning 1922-23 yillarda o'zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" (1922), "Zarafshon" (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudiy haqida bugungi kungacha e'lon qilinib kelayotgan Solih Qosimov, Ahmad Aliev, Naim Karimov, Sirojiddin Ahmedov, Sherali Turdiyev maqolarida mana shu Xoji Muin qoldirgan ma'lumotlar asos qilib olinadi. Unda keltirilishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yilning 19 yanvarida (xijriy 1291 10-zulh ijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib amir Shohmurod zamonida (1785-1880) Samarqandga kelib qolgan.

1894 yilda otasi, imom xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiya va qaramog'ida o'sib voyaga etadi. Arab sarfu nahvini kichik tog'asi Odildan o'rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshlaydi. Behbudiyning maktab madrasa hayoti haqida ma'lumotlar nihoyatda kam. Uning zamondoshlari bilan bo'lgan suhbatlaridan ayon bo'ladiki, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko'rgan. An'anaviy madrasa ilmini puxta egallagan Behbudiy 1915 yilda etnograf G.Andreev savollariga javob berar ekan, madrasa tahsilini alohida tilga olgani ma'lum. Xullas, an'anaviy tahsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi.

Taxmin qilish mumkinki, yosh Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida Rossiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprialining xizmati katta bo'lgan. Sharqu G'arbning tarixi va madaniyatini chuqur bilgan, arab, fors tillari bilan bir qatorda ingliz, nemis, frantsuz tillarida bemaol so'zlasha olgan bu kishi 1881 yilda rus tilida "Rusiya musulmonligi" kitobini yozadi. Bu kitobda u, Rusiyada yashovchi barcha musulmonlarning o'zligini saqlab qolish yo'li bitta, u ham bo'lsa, ma'rifat va u orqali mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotiga tengma teng aralashishga erishmoqdir, degan fikmi olg'a suradi. Bu yo'ldagi birinchi qadam "usuli jadid", "usuli savtiya" nomlari bilan tarixga kirgan yangi maktablarni tashkil qilish bo'ldi. 1884 yilda Ismoilbekning mashhur "Tarjumon" gazetasiga obuna bo'lgan 1000 kishining 200 tasi ham Turkistondan edi. Barcha narsaga qiziquvchan Mahmudxo'janing Yaqin va O'rta Sharqda nomi tanilgan Ismoilbek Gasprialining Turkiston safarlaridan bexabar qolishi mumkin emas edi. To'g'ri Ismoilbek kelib Turkistonda ochib ketgan yangi maktablar uzoq davom etmadi, g'ayri shar'iy sifatida mutaassiblar tomonidan yopildi. Lekin "Tarjumon"ning mushtariylari ko'payib bordi. Ustozshogird munosabatlari samimiy do'stlikka aylanadi. Behbudiy o'z xotiralarida ustoz bilan

¹ Karimov H. Istiqloq davri adabiyoti. – T., 2010. – B. 47-48.

uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi. 1899-1890 yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. "1318 sanai xijriyasi tavofi Baytullog'a Qafkaz yo'li ila Istanbul va Misr al Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilib edi", - yozadi Behbudiy bu haqda. Dunyo ko'rishi izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbus va g'ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofidagi alvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning "Risolai asbobi savod" (1904), "Risolai jug'rofiya umroniy" (1905), "Risolai jug'rofiyai Rusiy" (1905), "Kitobat ul atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi.

1903 yilda alvoyida qurilgan maktab binosi hozir ham saqlanib qolmoqda. A.Shakuriy maktabini esa, Behbudiy 1908 yilda Samarqandga o'z hovlisiga ko'chirib olib borgani ma'lum. Toshkentda, Farg'ona vodiysida yangi maktablar tashkil topa boshlaydi. Ibrat, Munavvarqori, A.Avloniy, So'fizoda nomlari tilga tushadi². Bular hali kifoya emas, millat bolalarini taraqqiy topgan shaharlarga o'qishga yuborish kerak. Mirmuhsin Shermuhamedov va bir qator o'zbeklar Markaziy Russiyaga – Ufadagi "Madrasai Oliya"ga yo'l oladilar. "Oliya"da o'ndan ortiq o'zbek o'qiydi. 10 yillarda Varshavada, Olmoniyada, Moskva, Peterburgda o'zbeklar o'qigani ma'lum.

Mahmudxo'ja 1903-1904 yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906 yilning 23 avgustida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so'zlaydi. Asrlar davomida qotib qolgan eski ta'lim tizimi, uning vositalaridan voz kechib, omma uchun yangilik bo'lgan yangi ta'lim usulini tadbiiq etish, ular uchun darsliklar yaratish, albatta katta mehnat va yana ma'lum ma'noda matonatni ham talab qilar edi. Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning sadoqatli shogirdi, jadid muallimlaridan biri bo'lgan Hoji Muin Shukurullayev ham bir qator darsliklar yozdi. U 1908 yilda fors tilida "Rah namoi savod", "O'qituvchi" nomli alifbe kitoblarini yozdi.

Yangi maktab muallimlari bolalarga nafaqat ta'lim, balki tarbiya berishni ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar. Bu haqda fikr yuritganda buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun nihoyatda dolzarb va ahamiyatlidir.

Mahmudxo'ja Behbudiyning sadoqatli shogirdlaridan biri Hoji Muin Shukurullayev mashhur ma'rifatparvar A.Shakuriyning iltimosi bilan bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha she'rlarni turkiydan forsiyga tarjima qildi. Keyinchalik ustoz Mahmudxo'ja Behbudiy ko'magi bilan ularni "Guldastai adabiyot" nomi bilan to'plam holida chop ettiradi. Keyinchalik ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi ilgari surgan "Dunyoda turmak uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilm va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur" degan haqqoniy fikrlar asosida jadiclarning sa'yi xarakatlari bilan tashkil topayotgan yangi maktablarda bolalarga dunyoviy fanlarni o'qitish g'oyasini ilgari surdi. Aynan shu g'oya Turkiston ahlining ongu shuurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta. Aynan jadid ziyolilarining, ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiyning sa'yi xarakatlari o'laroq milliy maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish ham yo'lga qo'yildi. Mahmudxo'ja Behbudiy bir qator darsliklar ham yozdi. O'zbek entsiklopediyasidagi "Mahmudxo'ja Behbudiy" maqolasi muallifi S.Qosimov adibning 6 ta darsligini qayd etadi: "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" (Qisqacha umumiy geografiya), "Kitobatul atfol" (Bolalar maktublari), "Muxtasari tarixi islom" (Islomning qisqacha tarixi), "Madxali jug'rofiyai umroniy" (Ah oli geografiyasiga kirish), "Muxtasar jug'rofiyai Rusiy" (Rossiyaning qisqacha geografiyasi). Shulardan bittasi – "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" asari haqida to'xtab o'tamiz.

² Qosimov B. Milliy uyg'onish. – T.: Ma'naviyat, 2005; Uyg'ongan millat ma'rifati. – T.: Ma'naviyat, 2011. – 210 b.

Asarning to'la nomi "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya". 1905 yil 24 avgustda Sankt-Peterburg tsenzurasidan ruxsat olinib, 1906 yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sah ifadan tashkil topgan. Muallif bu "qadim" fanga taaluqli "turkiy, arabiy, forsiy, rusiy lug'atlarga tasnif bo'lgan o'ttuz qadar qadim va jadid kutub va risonli jug'rofiya, hay'ati riyoziy, tarixiy, tabiiy"lardan va yana juda ko'p turli-tuman ma'lumot va manbaalardan foydalanib yozganini ma'lum qiladi.

"Jug'rofiya degan so'z yunoniy, lug'ati arabiyga ta'rifi ard ma'nosiga ya'ni er va tufroqni bayon qilaturg' on ilmni aytilur", deya izoh beradi muallif. So'ng Behbudiy uning turlariga to'xtaydi. "Chunonchi, – yozadi u, – erni shakldan, osmon ila Er arosidagi xosiyati va Osmondagi nimarsalar ila nisbati va harakatidan bayon qilaturg' on ilmni "jug'rofiyai riyoziy", Erni xosiyati, tufroq past balandligi, har xil giyoh u konlari, tog'-daryo, ko'l mijozu havosidan bahs qilaturg' on ilmni jug'rofiyai tabiiy deb atalur". Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qaboh atini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mahmudxo'ja Behbudiy "Teatr – bu ibratxonadir" degan g'oyani ilgari suradi va o'zbek milliy dramaturgiyasiga ham tamal toshini qo'yadi. Aynan Mahmudxo'ja Behbudiyning teatr sohasidagi xizmatlari eng buyuk xizmatlaridan bo'lib, milliy ong va madaniyatimiz tarixida g'oyat katta rol o'ynadi. Buni faqat dindoshlari, millatdoshlari emas boshqalar ham e'tirof etganlar. Mashhur turkolog A.N.Samoylovich 1916 yilda Behbudiyning "Padarkush" asarini Toshkentning "Kolizey"da Avloniy trupпасi ijrosida tomosha qilar ekan, Toshmurodning o'z uyiga o'g'rilikga kirib otasini o'ldirishidan xalqning junbushga kelganini yozadi. "Padarkush"³ – o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasi. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif "Milliy fojea" deb atagan 3 parda 4 manzarali bu hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n. U jaholat va nodonlik haqida, o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa oldini o'ylamagan boyning Toshmurod ismli o'g'li bor. O'g'li o'qimagan. Boy atrofida qilarning gapiga kirmaydi. O'g'lini o'qitmaydi, oqibatda u ko'cha bezorilariga qo'shiladi. Restoranda maishatga puli etmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab kiradi. Boy uyg'onib ularni sezib qoladi, lekin uni o'ldirib pulini olib ketadilar. Xulosa jaholat va nodonlik otaning ham bolaning ham boshiga etadi. Agar butun boshli millat shu ahvolga tushsachi?!

«Padarkush» dastlab Samarqandda 1914 yilning 15 yanvarida sahnada qo'yildi. «Xalq nihoyatda ko'p kelib belat yetmagani va joyini yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib B.A.Pestkovskiy 1922 yildagi "Inqilob" jurnali sahifalarida e'lon qilingan "O'zbek teatri tarixi" maqolasida uning maydonga kelish tarixi haqida fikr yuritar ekan, "O'zbek teatrlarining asosini qo'yib beruvchi Samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiydir" deb yozadi.

1929 yilda Qozonda bosilib chiqqan "O'zbek adabiyoti" kitobida esa, "O'zbek milliy adabiyotining negiz toshini Behbudiy va Fitrat qo'yib berdi" (8-b.) degan e'tirofga duch kelamiz. Jadidlar zulm va zo'ravonlikni, sinfiy kurashni, millatni qoq ikkiga ajratib orasiga nifoq va dushmanlik solishni rad etdilar va haq bo'lib chiqdilar. Bugun ular muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqloq avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu millat va Vatan umri qadar boqiydir. Yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish yangi insonni tarbiyalashda jadid bobolarimizning bizga qoldirib ketgan ma'naviy-ma'rifiy va adabiy meroslarining qiymati g'oyatda muhimdir.

³ **Abdulla Avloniy.** *Tanlangan asarlar.* – T.: Ma'naviyat, 2009. – 280 b.

КОНЦЕПЦИЯ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Резюме. В статье раскрываются пути формирования лингво-методической компетентности будущих учителей начальных классов по предмету родной язык, концептуальные подходы и практические решения по данному направлению образовательного процесса.

Ключевые слова: компетенция, концепция, подготовка, лингвометодика, метапредметность.

Rezume. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanidan lingvometodik kompetentsiyasini shakllantirish yo'llari, o'quv jarayonining bu yo'nalishidagi kontseptual yondashuvlar va amaliy yechimlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: kompetentsiya, kontseptsiya, o'qitish, lingvistik metodologiya, meta-intizom.

Abstract. The article reveals the ways of forming the linguo-methodological competence of future primary school teachers in the subject of mother tongue, conceptual approaches and practical solutions in this direction of the educational process.

Key words: competence, concept, training, linguistic methodology, meta-discipline.



Р.М.САДИКОВ

Подъем экономических, социальных, политических и культурных аспектов жизни населения Республики Узбекистан диктует необходимость дальнейшего развития системы образования, поиска кардинально новых форм, методов и технологий выстраивания образовательного процесса¹.

В рамках образовательного процесса русский язык (как и узбекский язык) рассматривается в качестве метапредметного языка обучения, в связи с чем, при его изучении очень важно принимать во внимание комплекс культурных, нравственных, духовных ценностей, который в идеале должен соответствовать ожиданиям и потребностям общества.

Под концепцией лингвометодической профессиональной подготовки учителей начальных классов можно принять систему теоретической и методической подготовки будущих учителей начальных классов, направленную на формирование у них высокого уровня лингвометодической компетентности, отвечающего реалиям и потребностям инновационного образовательного пространства.

Использование данной концепции требует изучения, анализа, полного и всестороннего осмысления таких базовых понятий, как: профессиональная компетентность, лингвометодическая компетентность, лингвистическая компетенция, методическая деятельность.

В связи с этим формирование лингвометодических компетенций должно происходить не только на уроках русского языка, но и при изучении других предметов, а также при проведении духовно-просветительских мероприятий.

Характерной чертой метапредметности является её гуманистическая направленность, т.е. признание ценности каждого индивида, его чувств, мыслей и сознания, в то же время развитие его языковой компетентности и культуры речи.

¹ **Садиков Рустам Мансурович**, преподаватель ТГПУ. **E-mail:** sadikovrustam2@mail.ru

¹ Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» № УП-4947 от 7 февраля 2017 года // Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6, ст. 70.

На уровне методологии при разработке методологической концепции многими исследователями используется культурологический подход, положения которого основаны на общепрофессиональном рассмотрении образовательной технологии, как самостоятельного процесса, направленного на приобщение личности к социокультурной системе. Именно за счет ориентации человека на культурные и нравственные нормы, действующие в обществе, обеспечивает развитие индивидуальности, стимулирует потребность людей в самопознании и самосовершенствовании, создает оптимальные условия для культурной преемственности.

Под профессиональной компетентностью понимается комплексный ресурс личности, который обеспечивает возможность эффективного взаимодействия с окружающим миром в той или иной профессиональной сфере и который зависит от необходимого для этого набора определенных компетенций².

Разными авторами разработаны различные модели и их варианты компонентного состава профессиональной компетентности педагога. Так, в рамках профессиональной компетентности выделяются пять ее элементов: специальная компетентность в области преподаваемой дисциплины; методическая компетентность в области способов формирования знаний, навыков, умений учащихся; психолого-педагогическая компетентность в сфере обучения; дифференциально-психологическая компетентность в области мотивов, способностей, направленности обучаемых; аутопсихологическая компетентность.

Специальная компетентность предполагает наличие глубоких знаний, квалификации и опыт производственной деятельности в области преподаваемого предмета, направления, по которому ведется обучение; знание способов решения технических, творческих задач, связанных с конкретным производством.

Методическая компетентность включает владение различными методами обучения, знание дидактических методов, приемов и умений применять их в процессе обучения, знание психологических механизмов усвоения знаний и умений в процессе обучения³.

Психолого-педагогическая компетентность предполагает владение педагогической диагностикой, умение строить педагогически целесообразные отношения с обучаемыми, осуществлять индивидуальную работу на основе результатов педагогической диагностики, знание возрастной психологии, психологии межличностного и педагогического общения, умение пробуждать и развивать у обучаемых устойчивый интерес к выбранной специальности, к преподаваемому предмету.

Отбор содержания процесса формирования лингвометодической компетентности у будущих учителей начальных классов должен осуществляться с ориентацией на знания и умения, входящие в компонентный состав методической компетентности на всех этапах ее формирования.

Наиболее эффективными приемами работы, используемыми на лабораторных занятиях по методике преподавания родному языку, являются кейс-метод, учебно-методическая задача, анализ видеоуроков и анализ учебно-методических комплектов, наблюдение. Приемы и формы организации процесса формирования лин-

² **Болотов В.А., Сериков В.В.** Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. – М., 2003. – № 10. – С. 3-12.

³ **Стебеньева Т.В., Баранов Е.Ф., Юрятина Н.Н.** Педагогические условия и компонентный состав методической системы формирования профессиональной компетентности будущих специалистов. – М., 2012.

гвометодических умений реализуются в условиях современной инновационной образовательной среды, которая характеризуется преимущественно внедрением информационных технологий, позволяющих использовать современные программные продукты, предназначенные для обучения родному языку в начальной школе, ресурсы глобальной сети Интернет, а также цифровые технические средства обучения.

Для эффективного формирования методической компетентности на рецептивном, репродуктивном, продуктивном и рефлексивном этапах соответственно необходима система упражнений, состоящая из когнитивных, аналитических, проблемно-исследовательских, конструктивно-креативных и рефлексивно-оценочных упражнений.

Специфика данных упражнений состоит в использовании современных информационных возможностей инновационной образовательной среды, таких как: цифровые технические средства обучения, включая интерактивную доску, специальное программное обеспечение процесса обучения родному языку, а также ресурсы глобальной сети Интернет, включая образовательные платформы дистанционного обучения Moodle, Google classroom и др⁴.

⁴ **Бегимкулов У.Ш.** Педагогик таълим замонвий ахборот технологияларни жорий этишининг илмий-назарий асослари. – Т.: Фан, 2007. – 143 б.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYA FANINI "STEAM – TA'LIM" YONDASHUVI ASOSIDA O'QITISH MAZMUNI

Resume. Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitishga "STEAM-ta'lim"ni tadbiiq etish yo'nalishlari, mazmuni, metodlari, shakllari taklif etilgan.

Tayanch so'zlar: "STEAM-ta'lim", kompetensiyalar tizimi, darsning pedagogik ssenariysi, o'qituvchining faoliyati, o'quvchining faoliyati.

Резюме. В статье предлагаются направления, содержание, методы и формы реализации «STEAM-образования» в обучении предмета технология в системе непрерывного образования.

Ключевые слова: «STEAM-образование», система компетенций, педагогический сценарий урока, деятельность учителя, деятельность ученика.

Abstract. The article offers directions, content, methods and forms of implementation of «STEAM-education» in teaching the subject of technology in the system of lifelong education.

Key words: «STEAM – education», competence system, pedagogical lesson scenario, teacher activity, student activity.



G.O.ABDURAIMOVA

Bugungi kunda respublikamizda jahon ta'lim muhitiga integratsiyalanishiga yo'naltirilgan yangi tizim shakllanmoqda. Ta'lim paradigmasining almashinuvi yuz bermoqda: yangi mazmun, yangi yondashuvlar, yangi pedagogik mentalitet taklif qilinmoqda. Ta'lim mazmuni yangi malakalar, qobiliyatlarning rivojlanishi, axborot bilan ishlash, fan va bozor amaliyotining muammolarini ta'lim dasturlarini individuallashtirishga yo'naltirgan holda ijodiy yechish bilan boyitilmoqda.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o'sib kelayotgan avlodning jamiyatda mehnatga layoqatli bo'lishiga ob'ektiv ehtiyoj maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini yaratilishiga hamda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv rejasiga "Texnologiya" fanining kiritilishiga olib keldi. Uning asosiy maqsadi – o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashdir. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi mazmunidagi mashg'ulotlar hamda "Texnologiya" fanining maqsad-vazifalari tarbiyalanuvchi va o'quvchilarda politexnik bilim va malakalarni, texnologik fikrlashni shakllantirishga, o'quvchilarni ijodiy va estetik jihatdan rivojlantirishga, xulq-atvor madaniyati va ziddiyatsiz muloqot qilishni egallashga, o'z-o'zini anglash va kasb egallash imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lganligi sababli texnologiya fanini maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflarda o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Bo'lajak mutaxassislar butun umri mobaynida o'qishga tayyor bo'lishi, bundan tashqari, texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalariga oid har tomonlama tayyorgarlik va bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Ta'lim jarayonini "STEAM-ta'lim" yondashuvi asosida tashkil qilish yangicha loyihani taqozo etadi. STEAM – qisqartma bo'lib, quyidagi so'zlardan tarkib topgan: Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematics – matematika.

"STEAM-ta'lim"ni amalga oshirish: tadqiqotchilik va tajriba-sinov orqali ta'lim oluvchilar ongida olamning yaxlit manzarasini shakllantirish; integratsiyalab o'qitishni (fanlararo aloqadorlikni) ta'minlash; ilmiy-texnik bilimlarni hayotda qo'llash; tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'z kuchiga ishonch hosil qilish; faol kommunikatsiya va jamoada ishlash malakasi; texnik fanlarga qiziqish, ijodga motivatsiya,

¹ Abduraimova Gulchiroy Ozotovna, TDPU katta o'qituvchisi. E-mail: abduraimova@gmail.com

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-57 12-sonli Farmoni.

tashabbuskorlik, mustaqillik, raqobatbardoshlik, mobillikni rivojlantirish; kasbga yo'nalganlikni shakllantirish; ta'lim oluvchilarni hayotdagi innovatsiyalarga tayyorlash; asosiy ta'lim dasturining majburiy qismini to'ldirish; pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish imkonini beradi.

"STEAM-ta'lim" dasturi dars mashg'ulotlari, darsdan tashqari mashg'ulotlar va sinfdan tashqari tadbirlarni o'z ichiga oladi. "STEAM-ta'lim" – bu o'quv dasturlaridan o'rin olgan turli fanlarga oid "o'tuvchan" mavzularni tadqiqotchilik va loyihalash metodlari asosida o'rganishda integratsiyalangan darslar siklogrammalari, ilmiy, texnik va muhandislik tarkibiy qismlarini qo'llab-quvvatlovchi, ta'lim oluvchilarning muhandislik va texnik mutaxassisliklarga qiziqishini oshirish hamda fan-texnika sohasida o'qishni davom ettirishga motivatsiyalash imkonini beradigan tadqiqotchilik laboratoriyalari, to'garaklar tarmog'idir. O'quv mashg'ulotlarida pedagoglar tomonidan ilg'or ta'lim texnologiyalari va metodikalari faol qo'llanadi. Pedagoglar HP Reveal, QR-kod yaratish uchun sayt-generatorlardan, internet-servislardan foydalanadi. Bu darslikdagi rasmlarni jonlantirish, multimediali interaktiv o'yin va mashqlarni yaratish imkonini beradi. Mobil ilovalardan foydalanish o'quvchilarda fanni o'zlashtirishga qiziqish uyg'otadi, ularning bilish faolligini oshirishga ko'maklashadi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar, qo'shimcha ta'lim, sinfdan tashqari tadbirlar tizimi sifatida qaraladi².

Maktabgacha ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida bir-birini to'ldiruvchi "Matematik kamalak", "Matnli topshiriqlarni bajarish", "Qiziqarli matematika olamiga sayohat" kabi to'garak mashg'ulotlar dasturlari joriy etilmoqda, ular orqali modellashtirish, loyihalashtirish, o'zgartirish ko'nikmalari takomillashtirilmoqda. "Rangtasvir. Grafika. Skulptura" to'garak mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchi va o'quvchilarda fazoviy tasavvur, ijodiy qobiliyatlar, kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Qo'shimcha ta'lim turli yo'nalishdagi uyushmalar tarzida tashkil etilgan. Bular: "Yosh ijodkor va fantaziya egalari maktabi", "Yosh iqtidor egalari", "Unut bo'lmagan hunarlar", "San'at tarixi", "Yog'och o'ymakorligi", "Erudit", "Palitra", "Kompyuter va biz", "Ekologik klub", "Arduin-mexanikus" kabilardir. Sinfdan tashqari ishlar global muammolarni hal qilish kuni, fan va axborot texnologiyalari haftaligi, "IT chegara", "STEM – fest", ilmiy-amaliy konferensiya, xalqaro konferensiyalar, kasbga yo'naltirish yo'nalishidagi tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok shaklida olib boriladi. Global muammolarni hal qilish kunlari o'quvchilarda integrativ tafakkur va dunyoning umumiy manzarasini hosil qilishga qaratilgan. Bu yo'l bilan o'quvchilarning ta'limiy darajasi oshiriladi, bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi va chuqurlashtiriladi, to'ldiriladi. Atrof-muhitning ifloslanishi, global iqlim o'zgarishlari kabi muammolarni o'rganib, o'quvchilar bu kabi murakkab savollarga faqat turli sohalarga oid bilimlarga tayangan holda va birgalikda ishlab javob topish mumkinligini, bitta fan doirasidagi bilimlarga ishonish kerakmasligini anglab yetadi.

Metodik, o'quv va sinfdan tashqari ish shakli sifatida fan haftaliklari turli tadbirlar, tanlovlar, olimpiadalar, viktorinalarning ko'p maqsadli birligi tarzida gavdalanadi. Ular bir vazifa atrofida birlashtirilib, tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, iqtidorli va iste'dodli bolalarni ajratish, ularning intellektual rivojlanishiga ko'maklashish imkonini beradi. Fan haftaliklari pedagoglarning ortib borayotgan qobiliyati, ijodi, mahorati va professionalligining o'ziga xos namoyishidir.

Kasbga yo'naltirish tadbirlari korxonalariga sayohatlar, muassasa bitiruvchilari, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, sinf hamda axborot soatlari, ta'lim muassasalarida ochiq eshiklar kunlari, oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik, "IT – ta'til", ota-onalar yig'ilishi, sotsium bilan o'zaro hamkorlik, konferensiyalar va boshqa ko'rinishda o'tkaziladi.

"STEAM-ta'lim" dasturining joriy qilinishi ancha material, talab, vazifa, maxsus jihozlar

² **Abduraimova G.** *Methodical training of elementary school teachers in technology subject // Eastern European Scientific Journal. – Dusseldorf, 2018. – Vol. 2. – P. 285.*

mavjud bo'lishini talab qiladi. Plastilin, xamirdan va shunga o'xshalardan narsalar tayyorlash tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning kichik motorikasini va fantaziyasini rivojlantiradi, shuningdek, san'at va modellashtirishning qay tarzda birlashtirilishini namoyish qiladi. Plastilindan buyumlarni tayyorlayotib, o'quvchilar uchta o'lchamga duch keladi: balandlik, uzunlik va en (kenglik). Kartondan ishlangan konstruktor – sotib olinadigan konstruktorning eng yaxshi muqobili. Kartondan ishlangan rangli geometrik shakllar o'quvchilarni shakl va ranglarni farqlash, konstruksiyalashga o'rgatishda qo'l keladi.

Konstruksiyalash aqliy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Konstruktiv faoliyat davomida bola pedagog tomonidan berilgan qandaydir predmet modelini tayyor detallardan yasaydi. Bu jarayonda u o'zining atrofidagi predmetlar haqidagi tasavvurlarini real modellarda gavdalandiradi. Konstruksiyalash davomida tarbiyalanuvchi o'zining tasavvurlarini aniqlashtiradi, shakl, kattalik, konstruksiya kabi xossalarni va boshqa tushunchalarni yanada puxta o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

1-4 sinflarda qo'shimcha ta'lim mashg'ulotlarida metall konstruktordan foydalaniladi. Uning yordamida o'quvchilar ma'lum mexanizmlarni modellashtirishi va yaratishi, shuningdek, fantaziyasini ishga solib, kutilmagan texnik yangiliklarni kashf qilishi mumkin. Yengil avtomobil va yuk avtomobili, traktor, ko'tarma kran, motosikl, samolyot, vertolyot, poezd – bular hammasi va boshqalar metall konstruksiyalardan yig'ilishi mumkin.

Konstruktorning foydasi, shubhasiz: nafaqat jismoniy, balki ijodiy sifatlarni ham rivojlantiradi. Bunday bolalar konstruktori orastalik (ozodalik) va o'troqlikni namoyon qilish imkonini beradi, chunki har bir to'plamda modelni yasash uchun zarur ko'plab kichik detallar bor. Kichik detallarni yig'ishda sezgi ishga tushadi, motorika, obrazli va fazoviy tafakkur, shuningdek, mexanik xotira rivojlanadi³.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida qobiliyatlarni rivojlantirish, uni yuqori texnologik ijodiy mehnatga tayyorlash, butun umri mobaynida yangi bilimlar olishga o'rgatish talab etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "STEAM – ta'lim" yondashuvi asosida tayyorlashda ta'lim traektoriyalarini individuallashtirish, shaxs xususiyatlarini hisobga olish va ijodiy salohiyatini oshirish hamda texnologiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarlikni ta'minlovchi kompetensiyalar tizimini shakllantirish talab etiladi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "STEAM – ta'lim" yondashuvi asosida "ilk qadam" davlat o'quv dasturi va texnologiya fanini o'qitishga tayyorlashda tadqiqotchilik xarakteridagi dars mashg'ulotlari (dars – laboratoriya, kashfiyotchilik darsi, dars – ijodiy hisobot, dars – qiziqarli yonimizda, dars – olimlar haqida hikoya, dars – tadqiqotchilik loyihasi himoyasi, dars – ekspertiza, dars – "tadqiqot uchun patent", ochiq fikrlar darsi, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv tajriba-sinov, tadqiqotchilik xarakteridagi uy vazifasi) muhim ahamiyat kasb etadi.

"Ijodiy makon" sharoitida norasmiy va informal ta'lim doirasida loyihalash faoliyati uning har bir ishtirokchisida raqamli davr kishisi uchun zarur ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi⁴.

"STEAM – ta'lim"ning afzalliklari:

1. "STEAM – ta'lim" kuchaytirilgan moliyalashtirish zonasiga aylanib bormoqda: soni tobora ortib borayotgan turli notijorat tashkilotlar maktablarda texnologik yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish uchun grantlar taqdim qilmoqda.

2. "STEAM – ta'lim" – kasbiy rivojlanishning nihoyatda keng imkoniyatlari tanlovi

³ **Go'ysinov O.A.** Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Dis. ... ped. fanl. d.-ri. – T., 2019. – 221 b.

⁴ **Mardonov Sh.Q.** Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006. – 232 b.

(foydalanish samaradorligi mamlakatda STEAM fanlari bo'yicha o'qitish texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha harakatlar tobora kengayib borishiga bog'liq).

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bir qancha millat, din vakillari taxsil olayotgan ta'lim muassasalarining ingliz tili darslarida madaniyatlararo bag'rikenglik shakllantirish samarali natija beradi. Bunday guruhlar orasidagi hamkorlikni tashkil etishda maktab o'quvchilarining bilish faolligini jonlantirish, jamoa bo'lib ishlash harakatini tadbiq etish natijasida ushbu guruhlarning a'zolari orasida do'stlik, birodarlik, hamjihatlik, bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlash hissi tarkib topib, mustahkamlanib boradi. Ular sekin-asta bir-birlariga ko'nikib, o'zaro bardoshli bo'lishni boshlaydilar. Turli millat va dinga tegishli bo'lgan bunday o'quvchilar bir-birlarining urf-odat va qadriyatlarini, turmush tarzlariga hurmat bilan qarashni o'rganadilar. Shu bilan birga, shaxsiy bag'rikenglik tushunchasi kamayib, o'quvchilar ko'proq ijtimoiylashib boradilar.

Ingliz tilini o'rganishda asosiy e'tibor ingliz tilida gaplasho'vchi xalqlari hayotining turli jihatlariga va o'zbeklar hayoti bilan taqqoslab o'rganishga qaratiladi. Madaniyatlar ta'limga yo'naltirilgan o'quvchilar ijodkor, moddiy va ma'naviy boylikni yaratishga qodir, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bag'rikeng shaxsning psixologik va pedagogik

¹ Bada E. *Culture in ELT. Cukurova University Journal of Social Sciences*, 2000. – P. 100-110.

² Qodirova Z. *Yoshlarda tolerantlikni rivojlantirishning ba'zi masalariga doir // Falsafa va huquq. – T., 2008. – B. 42.*

³ Fitzgerald M.H. *Establishing cultural competency for mental health professionals. In: V. Skultans, J.Cox (Eds.), Anthropological approaches to psychological medicine: Crossing Bridges. 2000. P. 184-201.*

⁴ Von Bergen C.W., Von Bergen, B.A., Stubblefield, C., Bandow D. *Authentic tolerance: between forbearance and acceptance // Journal of Cultural Diversity, 19(4), 2012. P. 111-117.*

sharoitlarini ta'minlashga intiladi. Ba'zi olimlar madaniy komponentni tilshunoslikning ajralmas qismi deb hisoblashadi: "hozirgi kunda tilni o'rganishda ishlatilayotgan har qanday manba milliy va madaniyatga tegishli ma'lumotlarsiz imkonsiz"⁵.

Shunday ekan, darsga oid bo'lgan manbalar bag'rikenlikka oid mavzular bilan boyitilishi kerak. Tilni o'rgatish xalq madaniyatidan xabardor bo'lishga va xorijiy tilni o'qitish esa, boshqa xalq madaniyatlariga nisbatan bag'rikeng bo'lishga o'rgatadi.

Chet tili o'qituvchilari o'quvchilarning dunyoqarashini va o'quvchilarning qadriyatlarini shakllantirish imkoniyatiga ega. O'quvchilarda chet tili darslarida madaniyatlararo bag'rikenglikni shakllantirishda quyidagi mavzulardan keng foydalanish mumkin: Millatlararo do'stlik, O'zbekiston jahon integratsiyalasho'viga yo'l, O'zbekiston umumiy uyimiz, Millatlararo totuvlik, Bu ulug' Vatan meniki, Men O'zbekiston fuqarosiman, Vatanim faxrim, Til - dunyo kalitidir, Dunyo ma'naviy meroslari, Turli millat urf-odatlari.

Millatlararo do'stlik mavzusini o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarga "Mening xorijlik do'stim" mavzusida erkin insho yozishni topshiriq sifatida berishi mumkin. Bunda o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan insonlari haqida insho yozishlari mumkin. Insho yozish jarayonida o'quvchilar ingliz tilida yozish kunikmasini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'libgina qolmay ularni boshqa xalq madaniyatni hurmat qilish, qadriyatlarini qadrlash, uning madaniyatidan xabardor bo'lishlikni o'rgatadi. Shuningdek, o'quvchilarda madaniyatlararo bag'rikenglikni shakllantirish uchun dars jarayonini quyidagi metodlar yordamida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1-metod. "Ijodkor sheriklar". Bu ajoyib sinf faoliyati o'quvchilar orasida ijodkorlikni uyg'otishi mumkin. O'quvchilar, avvalo, juft bo'lib o'tirishadi va bir-biriga teskari holatda joylashtiriladi. Bir o'quvchiga o'zga xalq madaniyatini o'zida aks ettiruvchi rasm, boshqasiga esa, qog'oz va qalam beriladi. Rasmga ega o'quvchi aslida nima ekanligini aytmadan rasmdagi narsani tasvirlashi kerak. Boshqa odam uning tavsifiga ko'ra ijodkorlik va tasavvurlarni ishga solib uni chizishi kerak.

2-metod. "Quvnoq poezdcha". Bu boshlang'ich darajadagi o'quvchilar bilan o'ynash mumkin bo'lgan quvnoq o'yin. O'quvchilarni 1 yoki 2 ga guruhga ajratish mumkin. Ulardan poezdni ifodalash uchun saflanish va o'zaro bog'lanish talab qilinadi. O'qituvchi poezd asta-sekin oldinga harakatlenganda boshlang deydi. O'qituvchi keyin buyruqlar berishni boshlaydi. Masalan: to'xta, sekin, orqaga harakat, chap va o'ngga buriling kabi buyruqlar o'qituvchi tomonidan beriladi. O'quvchilar bu buyruqlarni tinglashadi va ularning harakatlanishida ularga amal qiladilar. Bu o'quvchilar o'rtasida hamjixatlik, do'stlik, bir-biriga ishonch kabi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.

3-metod. "Tashakkur bildirish". Ushbu metod o'quvchilarni tashakkurlarini izxor etishga o'rgatishadi. Ular o'z yaqinlariga qanday tashakkur bildirishni o'rganishadi.

4-metod. "O'ylab top". Bu metod yuqori sinf o'quvchilari uchun yaxshi. Dars jarayonida sinfni 2 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bir nafardan vakil doskaga chiqish so'raladi. Guruhning usha a'zosi doskaga orqa qilib turadi. O'qituvchi doskaga birorta xalq madaniyatiga tegishli bo'lgan birorta narsani yozadi yoki rasmini ko'rsatadi. Uning guruhi esa, ushbu narsani doskada turgan guruh vakiliga ta'riflab berishadi. U esa, ta'riflardan uni nima ekanligini topishi kerak.

Shunday qilib, o'quvchilarda madaniyatlararo bag'rikenglikni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, ingliz tili darslarida birmuncha samaraliroq bo'ladi. Madaniyatlararo bag'rikenglikni o'quvchilarda hosil qilish orqali biz yurtimiz hududida necha yuz yildan beri yashab kelayotgan turli millat vakillarining tinch, osoyishta, o'zaro hamjixatlikda bir-birlarining madaniyati bilan bir qatorda o'zbek madaniyatiga ham hurmat bilan qarashga o'rgatamiz. Buning uchun esa, chet tili darslarida o'qitish jarayonini yangi g'oyalar bilan boyitish va qurollantirish talab etiladi.

⁵ Sadykova A.G., Yashina M.E., Zakirova L.R. *Implementing Environmental Culture in the Language Learning Laboratory. English Language Teaching. Canada: Canadian Center of Science and Education. 7(12). 2014. P. 88.*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA YORUG'LIK XOSSLARINI O'QITISHNING METODOLOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI

Rezume. Yorug'likning elektromagnit to'liqin ekanligini o'rganish, nurlanishning to'liqin va korpuskulyar xossalari tushuntirish bilan yakunlanadi. Bu tushunchani o'zlashtirish ancha murakkab bo'lib, buning sababi uni yaqqol model yoki odatdagi o'xshatishlar bilan ifodalash mumkin emasligida, ya'ni uzgachaligidadir. Buning uchun maktabda fizika o'qitishda takrorlash va umumlashtirish darslarini izchillik tamoyili asosida olib borish kerak. Darsni evristik suhbat tarzida olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi, natijada o'quvchilar faolligi oshib, ularning bilimini umumlashtirishga hamda tabiat dialektikasiga oid muhim metodologik g'oyani, ya'ni nurlanishning to'liqin va korpuskulyar xossalari to'laqonli tushunib olishiga xizmat qiladi.



R.M.XO'JANAZAROVA'

Tayanch so'zlar: model, korpuskulyar-to'liqin dualizmi, takrorlash va umumlashtirish darslari, tabiat dialektikasi, evristik suhbat, metodologiya.

Резюме. Изучение света как электромагнитная волна заканчивается объяснением излучения на основе корпускулярно-волнового дуализма. Усвоение этого понятия является более сложным, потому что его невозможно объяснить на основе конкретной модели или простыми аналогиями. Для этого при изучении физики в общей средней школе следует исходить из опытов и следует объяснить их на основе принципа преемственности. При этом целесообразным является урок, связанный с собеседованием на основе преемственности. Повышается активность учащихся и обобщаются их знания, что приведет полноценному формированию корпускулярно-волнового дуализма микрочастиц.

Ключевые слова: модель, корпускулярно-волновой дуализм, уроки повторения и обобщения, диалектика природы, эвристическая беседа, методология.

Abstract. The study of light as an electromagnetic wave ends with an explanation of radiation on the basis of wave-particle duality. The assimilation of this concept is more difficult, because it cannot be explained on the basis of a specific model or simple analogies. For this, when studying physics in secondary school, one should proceed from the whole and explain them on the basis of the principle of continuity. At the same time, expediency is a lesson associated with interviewing on the basis of continuity. At the same time, the activity of the students increases and their knowledge is generalized, which will lead to the full formation of the wave-corpuscular dualism of microparticles.

Key words: model, wave-particle dualism, repetition and generalization, dialectics of natures, heuristic conversation, methodology.

Bizga ma'lumki, elektromagnit to'liqinlarni o'rganish nurlanishning to'liqin va korpuskulyar xossalari tushuntirish bilan yakunlanadi. Bu tushunchani o'zlashtirish ancha murakkab bo'lib, buning sababi, uni yaqqol model yoki odatdagi o'xshatishlar bilan ifodalash mumkin emasligidadir. Shunga qaramasdan, bu tushunchani o'zlashtirishda o'quvchilar duch keladigan psixologik to'siqni bartaraf qilish mumkin. Buning uchun maktabda fizika o'qitishda aniq fizik tajribalardan kelib chiqib, ularning natijalarini tushuntirish va to'g'ri xulosalar chiqarish lozim^{1,2}. Buning uchun takrorlash – umumlashtirish darslarini izchillik tamoyili asosida olib borish kerak. Bizga ma'lumki, izchillik tamoyili deganda, o'quv materialini o'qitish bosqichlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash va ular orasidagi bog'lanishni aniqlash va ularni bosqichlar bo'yicha rivojlanishini tushunamiz. Darsni evristik

* Xo'janazarova Raygul Muratbayevna, Berdaq nomidagi QDU fizika kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: rai.khozha@mail.ru

¹ Тарасов Л.В. Современная физика в средней школе. – М.: Просвещение, 1990. – 288 с.

² Тарасов Л.В. Введение в квантовую оптику. – М.: Просвещение, 1990. – 304 с.

suhat tarzida olib borish maqsadga muvofiq bo'lib, u etarli darajada o'quvchilarni aktivligini oshirishga, ularning bilimini umumlashtirishga hamda tabiat dialektikasiga misol bo'lgan muhim metodologik g'oyani, ya'ni nurlanishning to'lqin va korpuskulyar xossalari birligini tushuntirishga imkon yaratadi.

Izchillik tamoyili fizikaga 1918-yili danyalik fizik, kvant nazariyaning asoschilaridan biri Nils Bor tomonidan kiritilgan bo'lib, fundamental sof fizikada moslik tamoyili deyiladi, fizika o'qitish metodikasida esa, izchillik tamoyili sifatida ishlatiladi.

O'qitilayotgan fizik tushunchalarni o'quvchilar to'laqonli o'zlashtirishlari uchun ularni metodologik va metodik nuqtai nazardan to'laqonli tahlil qilishni taqazo qiladi. Jumladan, quyida keltirilgan fundamental fizikadagi moslik prinsipi fizika o'qitish metodikasida izchillik tamoyili sifatida ishlatiladi. Izchillik tamoyili o'zining manosiga ko'ra, o'quv materialini o'qitishning turli bosqichlari bo'yicha to'g'ri taqsimlashni ular orasidagi bog'lanishlarni va ularning rivojlanishini nazarda tutadi.

Dastlab sinfga yorug'likning to'lqin tabiatini tasdiqlovchi, aniqrog'i, yorug'lik – elektromagnit to'lqin ekanligini ko'rsatuvchi dalillarni keltirish taklif qilinadi. XVII asrning oxirida yorug'likning tabiati haqida o'zaro qarama-qarshi nazariya paydo bo'ldi: Nyutonning korpuskulyar nazariyasi va Gyuygensning to'lqin nazariyasi³.

Birinchisi - yorug'lik nurlanuvchi jismdan katta tezlik bilan chiqishi va to'g'ri chiziq bo'ylab tarqaluvchi zarrachalar haqidagi nazariya (korpuskulyar nazariya) edi. Nyutonning korpuskulyar nazariyasi ba'zi optik hodisalar va qonunlarni tushuntirib berishda qiyinchilikka uchradi. Nyuton nazariyasi asosida yorug'likning interferensiya va difraksiya hodisalarini tushuntirib bo'lmaydi, sinish qonunlari ham xato chiqadi. Ikkinchisi, yorug'likning to'lqin turida tarqalishi bo'lib, yorug'lik elastik muhitda tarqaluvchi elastik to'lqin deb qaraladi. Bu erda Gyuygensning to'lqin nazariyasidagi kamchiliklaridan biri - elastik muhit tushunchasini kiritishi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, yorug'lik qutblanishi sohasidagi tadqiqotlar, yorug'lik ko'ndalang to'lqin ekanligini dalillaydi. Ko'ndalang to'lqinlar, odatda, faqatgina qattiq jismlardagina tarqaladi. Bu qiyinchiliklarni elektromagnit nazariya xal qildi. Gers elektromagnit to'lqinlarning muhit chegarasida sinishini yorug'likning sinishi va qaytishiga o'xshash tajribada ko'rsatdi. Muhitning elektromagnit to'lqinlar uchun sindirish ko'rsatkichi muhitning elektr va magnit parametrlari bilan bog'liqligini Maksvelning

$$n = \frac{c}{v} = \sqrt{\epsilon\mu} \text{ formulasi ko'rsatadi.}$$

Har ikkala nazariya ham yorug'likning qaytish va sinish qonunlarini qoniqarli tushuntirib berdi. Ammo, yorug'likning interferensiyasi, difraksiyasi va qutblanishi kabi hodisalarni bu nazariyalar tushuntira olmadi.

XIX asrning boshlarida Yung va Frenelning tadqiqotlari sababli to'lqin nazariyasi rivojlana boshladi. Gyuygens-Yung-Frenel to'lqin nazariyasi shu vaqtda ma'lum bo'lgan barcha yorug'lik hodisalari, shuningdek, yorug'lik interferensiyasi, difraksiya va qutblanishini etarli darajada tushuntirib berdi. Maksvell yorug'likning bo'shliqda $c = 3 \cdot 10^8$ m/s tezlik bilan tarqaluvchi elektromagnit to'lqin ekanligini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Bu elektromagnit to'lqin nazariyasi G.Gers tajribalarida tasdiqlandi. Yorug'likning tabiati haqidagi to'lqin nazariyasi yorug'likning elektromagnit nazariyasiga aylandi. Ammo bu XIX asrning oxiriga kelib to'lqin nazariyasi bilan tushuntirib bo'lmaydigan fotoeffekt,

³ Глазунов А.Т., Нурминский И.И., Пинский А.А. Методика преподавания физики в средней школе: Электродинамика нестационарных процессов. Квантовая физика. – М.: Просвещение, 1989. – 92 с.

Kompton effekti, absolyut qora jismning issiqlikdan nurlanishi va boshqa hodisalar paydo bo'ldi⁴.

Natijada 1905 yili Eynshteyn tamonidan yaratilgan yorug'likning kvant nazariyasi ma'lum ma'noda Nyuton korpuskulyar nazariyasini qayta tikladi. Ammo, fotonlar korpuskulalardan farqli, yorug'lik tezligiga teng tezlik bilan harakatlanadi va foton tinch holatda massaga ega emas degan fikrni kiritadi.

Shunday qilib, o'quvchilarning javoblari bilan birgalikda umumlashtirib xulosa chiqaramiz: yorug'likning to'lqin tabiatini uning tezligini elektromagnit to'lqin tezligi bilan mos tushishi, yorug'lik to'lqinlarning ko'ndalang ekanligi va qutblanishi, yorug'likning interferensiyasi va difraksiyasi tasdiqlaydi.

Bundan to'lqin (elektromagnit) va korpuskulyar (kvant) nazariya bir-birini to'ldirdi, yorug'lik hodisalarining korpuskulyar – to'lqin dualizmi yuzaga keldi.

1924-1927 yillarda L. Broyl, J. Devisson va L. Djermerlar tomonidan yorug'likning ikki xil zarra va to'lqin xususiyatlari kashf etilgan bu haqiqat muhim metodologik ahamiyat kasb etdi. Bu bilan bog'liq holda muhim metodik muammo vujudga keldi, ya'ni yorug'likni maktab fizika kursining alohida bo'limi sifatida ajratish maqsadga muvofiqligini, buning uchun esa, maktab fizika kursida yorug'lik bo'limining mazmunini va tuzilishini ko'rsatish kerak bo'ldi.

Hozirgi zamon metodikasi materiallari tarixiy ketma-ketlikda emas, balki yorug'lik tabiatiga muvofiq o'rganishni taqozo etadi. Ana shunga muvofiq Maksvellning asosiy g'oyasi o'rganilgandan keyin radioto'lqinlarning nurlanishi va qabul qilish metodlari bilan tanishtirilib, to'lqin optikasining asosiy g'oyasi kiritiladi. Geometrik optika to'lqin optikaning chegaraviy holi tariqasida o'rganiladi hamda eng sodda optik asboblarni o'rganishda foydalaniladi. To'lqin optikadan keyin kvant optikasi bayon qilinib, yutilish va chiqarish spektrlarining hosil bo'lishi atom tuzilishiga bog'liq holda o'rganiladi.

Yorug'lik tabiatiga bo'lgan qarashning rivojlanish tarixi ibratli ekanligini bilib, o'quvchilar yorug'lik haqidagi ta'limotning rivojlanishi eng muhim bosqichlarini tasavvur etishi kerak. Yorug'lik bo'limini tuzishda yorug'lik hodisalari tabiatini zamonaviy tushunishga kurs tuzilishi tarixiy material hal qilmaydi, balki hodisaning fizik tabiatini hal etadi. Tarixiy materiallardan faqat fizikaviy g'oyalarning kelib chiqishini ochib berishda foydalaniladi. Bizdagi 11 yillik maktab dasturiga asosan geometrik optikaning ba'zi bir tushunchalari 9 sinfga kiritiladi. 11 sinfdan optika alohida bo'lim holida ajratilib berilmaydi.

Fizik optikaning asosini tashkil etgan butun materiallar uch bo'limga bo'lingan: to'lqin optikasi elektromagnit to'lqinlar haqidagi ta'limotga kiritilgan, kvant optika asoslari "Yorug'lik kvantlari", "Yorug'lik ta'sirlari" bo'limida ko'riladi, spektral hodisalar va lazerlar atom tuzilishi bilan birga o'rganiladi. Optik hodisalarni shu asosda bayon qilish fundamental fizik nazariyalar asosida materialni ko'rib chiqilishiga imkoniyat yaratadi.

Yorug'liqning to'lqin xossasini bayon qilishda ikki xil qarash mavjud.

Birinchi yorug'lik – to'lqin ekanligini isbotlash mumkin, so'ngra qutblanishi asosida ko'ndalang to'lqin degan xulosaga kelinadi, faqat dars oxirida Maksvell g'oyasi asosida yorug'lik – bu elektromagnit to'lqin ekanligi beriladi. Bunday yondashish, tabiat qonunlarini bilishning tarixiy rivojlanish yo'liga mos keladi.

Ikkinchi xil yondashishda o'quvchilarga yorug'lik – elektromagnit to'lqindan iborat degan hozirgi zamon tasavvuri beriladi. Bu hozirda dalillar asosida to'la tasdiqlandi.

⁴ *Джораяев М. Физика ўқитиш методикаси. – Т., 2015. – С. 253.*

Tajribaga asoslangan ko'plab hodisalar umumlashtirilib, hozirgi zamon fizik nazariyasi yaratildi. Bunday yondashuv qator hodisalarni kuzatish shartlarini oydinlashtirib, o'quv tajribalarida kuzatish mumkin.

Bunday yondashuvning ilmiy va metodik nuqtai nazardan afzal tomonlari shundaki, u muammoli holatni vujudga keltirishi, o'quv eksperimentida uni nazariy mulohaza qilishda katta imkoniyatlar ochib beradi. Ikkinchi tomondan, o'quvchilarda zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun qaralayotgan muammoning metodologik va didaktik asoslarini o'quvchilarga tushuntirish lozim. Metodologik asos deganda o'quv materialini o'qitish bosqichlari bo'yicha to'g'ri taqsimlashni hamda ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlash va ularning bosqichma bosqich rivojlanishini hisobga oluvchi ta'limot tushuniladi. Didaktik asoslari deganda o'quv materialini o'qitishni didaktik tamoiillar asosida o'qitish nazarda tutiladi. Shundagina o'quvchilar o'qitilayotgan tushunchani to'laqonli o'zlashtirib va tushunib olishadi.

KREATIV PEDAGOGIKA – INNOVATSION SOHA VA PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHISI KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAROITLARI

Rezume. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda kreativ pedagogikaning o'rnini, kreativ pedagogika fanining bugungi kundagi ta'lim sifatini takomillashtirish borasidagi ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: zamonaviy ta'lim, kreativ pedagogika, ta'lim va tarbiya, pedagogika tarixi, metodlar, texnologiyalar.

Резюме. В статье рассматривается роль креативной педагогики в современном обществе, показано значение предмета творческой педагогики в повышении качества образования сегодня.

Ключевые слова: современное образование, творческая педагогика, образование и воспитание, история педагогики, методы, технологии.

Abstract. The article examines the role of creative pedagogy in modern society, the importance of the subject of creative pedagogy in improving the quality of education today.

Key words: modern education, creative pedagogy, education and upbringing, history of pedagogy, methods, technologies.



K.N. YUSUPOVA *

Zamonaviy jamiyatda kreativ shaxslarga nisbatan talab ortib bormoqda, sababi, ular yuqori darajadagi moslashish va ijtimoiylashuv xususiyatiga ega bo'lib, muntazam o'zgarib boradigan va yangilanayotgan dunyoga ko'proq mos keladi. Bu borada turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitlarida o'quvchi shaxsining kreativ imkoniyatini aniqlash va rivojlantirish masalasiga qaratilgan. Bunda zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi.

Ijtimoiy buyurtma, ilmiy izlanishlar va ta'lim amaliyoti darajasi talablarining ta'siri ostida pedagogikada yangi yo'nalish – kreativ pedagogika yuzaga keldi.

“Kreativ pedagogika” atamasi zamonaviy ilmiy pedagogik leksikaga kirib ulgurdi, biroq u ilmiy soha sifatida hali mustaqil emas va o'rganish borasida murakkab tasavvurga ega. Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariyada va insoniyat to'g'risidagi boshqa fan tizimlarida ko'rib chiqiladi, ular: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi; umumiy va kasbiy pedagogika; psixologiya; ta'lim va tarbiya metodikalari va texnologiyalari; kasbiy etika va boshqalar.

Ijod – bu nafaqat faoliyat, balki uning yaratuvchanlik potensialini oshiruvchi maxsus faoliyat ham. Boshqachasiga aytganda, ijod faqatgina obyektning emas, balki, asosiysi ijod subyekti, ya'ni insondagi o'zgarishlar va bosqichma-bosqich islohotlardan iborat. Ijodkorlik qobiliyati – “tabiat in'omi” va shu tufayli uni o'rgatishning iloji yo'q degan keng tarqalgan fikrga qarama-qarshi tarzda M.M.Zinovkina boshqa nuqtai-nazarni ko'rsatadi.

Texnika va kashfiyotlar tarixini o'rganish, atoqli olim va kashfiyotchilarning ijodiy hayotini tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatadiki, ular o'zining yuqori chuqur bilimlari (o'z zamonasida) bilan bir qatorda, fikrlashning o'ziga xos tuzilishi yoki algoritmiga, shuningdek, evristik metod va usullarni o'z ichiga olgan ma'lum bir bilimlarga ham ega bo'lgan. Madaniyat kabi ijod ham, butun inson hayotining, demakki butun ta'lim tizimining ham ichiga kirmog'i lozim. Shu bois, kreativ pedagogikani pedagogikaning yangi sohasi sifatida rivojlantirish bugungi shiddatli ta'lim talablaridan hisoblanadi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining ma'lum qismini qamrab oladi – kasbiy maqsadlarning shakllanishidan (14-17 yoshdan) boshlab to kasbiy hayotning (55-70 yoshgacha) yakuniga qadar davom etadi². Muntazam o'zgaruvchan ichki va tashqi dunyoga, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyatning tarkibiga mos ijodkor shaxsni shakllantirish va rivojlantirish inson ontogenezining butun davri – tug'ilishdan hayotining yakunigacha bo'lgan davr qamrovini, to'xtovsizlikni va izchillikni talab

* Yusupova Kamola Nuriddinovna, PIKHTTBPKQT va UMO instituti tayanch doktoranti. E-mail: kamolayusupova1987@gmail.com

¹ Тутолмин А.В. Формирование и развитие креативной компетентности будущего учителя в процессе профессионального педагогического образования // Вестник Удмуртского университета, 2012. – № 2. – С. 49.

etadi¹.

Mamlakatimizdagi pedagogika sohasida insonning kasbiy-ijodiy imkoniyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida uning kasbiy-ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha deyarli ilmiy izlanishlar qilinmagan. Kasbiy-ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish, uni samarali ravishda amalga oshirish nafaqat qobiliyat va mahoratlarni rivojlantirish va integratsiyalash, kasbiy faoliyatni amalga oshirishning individual usul va uslublarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o'zlashtirish, ijodiy fikrlash va zaruriy kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Kreativ shaxsga aylanishni bajarilgan ijodiy faoliyat va olingan ijodiy natijalarga mos shaxsni shakllantirish va rivojlantirish sifatida belgilash mumkin. Kreativ shaxsga aylanish va kreativ ta'lim o'rtasida chambarchas bog'liqlik yuzaga keladi.

Shu tufayli, kreativ pedagogika insoniyat haqidagi fanlar tizimida yanada ahamiyatli o'ringa ega. Bu insonning kasbiy-ijodiy faoliyati darajalariga, erishilgan natijalari va uning kreativ tayyorgarligi darajalariga, ularni amalga oshirish va erishishga tayyorlik sifatida bog'liqligini anglatadi. Natijada, umumiy va kasbiy ta'limning barcha muammolari professional kreativ shaxsga aylanishning yaxlit jarayoni atrofida birlashishini ko'ramiz. Bunda, ushbu muammolarni pedagogikaning bir sohasi – kreativ pedagogika bilan integratsiyalash maqsadga muvafiqligi aniq.

Olimlar kreativ pedagogikani, uni pedagogikaning boshqa turlariga, masalan, majburlash pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi, tanqidiy pedagogikaga qarama-qarshi bo'lgan bir tur sifatida hisoblagan holda, ijodiy ta'lim fani va san'ati sifatida ko'radilar.

Professor V.V.Popov va akademik Y.G. Kruglovlarning ta'kidlashlaricha: "Kreativ pedagogika shaxs, uning qobiliyatlarini faol rivojlantirish va shakllantirish bo'yicha bir maqsadli faoliyatni o'rganadi. Pedagogika obyekt sifatida shaxs, uning psixikasi emas, balki uning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan pedagogik hodisalar tizimi: jamiyatning bir maqsadga qaratilgan faoliyati jarayonida inson shaxsining rivojlanishi bilan belgilaydigan voqelikning hodisalari. Ushbu hodisalar ta'lim atamasini olgan. Ta'lim umumiylik bilan birdek, kreativ pedagogikaning ham izlanish obyektini hisoblanadi, biroq, ikkinchi turning asosiy jihati shundaki, u e'tiborni ko'proq ijodiy rivojlanayotgan ta'limga qaratadi". Internet-resurslarining birida ta'kidlanishicha: "Kreativ pedagogika – o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogika. O'quvchilarga allaqachon ma'lum bo'lgan faktologik bilimlarning yetkazilishini ta'minlovchi, ta'limni obyektiv aniqlangan rivojlanish jarayoni sifatida hisoblaydigan, an'anaviy didaktikaga asoslangan pedagogika ham ma'lum bir kreativlikka ega"². Kreativ yo'nalish natijasiga erishish uchun quyidagilar muhim sanaladi: o'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ochish va rivojlantirishga xizmat qiladigan, markazdan qochirma (meta-xududga, meta-bilimdan, ya'ni tor mutaxassislik doirasidan tashqariga chiqish) yuqori kritik (faqatgina xayrixoh, "konstruktiv" tanqidga yo'l qo'yadigan) o'zaro ta'sir muhitini yaratish; ta'lim jarayonini, uning davomida o'quvchi – yaratuvchiga, o'quv materialini esa – yaratuvchanlik maqsadiga erishish vositasiga aylanishi uchun qayta tashkillashtirish; evristik usullar ta'siri tasnifi va namoyishini o'z ichiga olgan qo'shimcha o'quv materialini kiritish. Bunda shuni yodda tutish lozimki, o'quvchi muammolilik muhitida o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin".

Innovatsion soha sifatida kreativ pedagogikaning ilmiy maqomi to'g'risida so'z yuritishda davom eta turib, uning izlanish predmeti va obyektini belgilab o'tish muhim. M.M.Zinovkinaning fikriga ko'ra, kreativ pedagogikaning predmeti muntazam ta'lim tizimidagi, ya'ni umumiy ta'lim, kasblar va mutaxassisliklarni o'zlashtirish, o'z-o'zini kasbiy qayta yangilash jarayondagi psixologik-pedagogik xususiyatlar, kreativ shaxsni shakllantirishning qonuniyatlari va mexanizmlari² hisoblanadi. Kreativ pedagogikaning fan sifatidagi obyektini

² **Ибрагимова Г.Н.** Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: *Ped. fanl. d-ri ... Автореф.* – Т., 2017.

muntazam kreativ ta'lim tizimini o'z ichiga oladi, o'quv intizomi doiralarida esa, kreativ pedagogika obyekti ontogeneznining barcha davrlaridagi kreativ shaxs hisoblanadi.

Shunday qilib, kreativ pedagogika, bir tomondan, ilmiy bilimlarning fanlararo sohasi hisoblanadi. U insoniyat haqidagi fanlar tizimiga chambarchas bog'langan: umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, kasbiy ta'lim psixologiyasi, kasbiy ta'lim va tarbiya metodikalari va texnologiyalari. Boshqa tomondan, u pedagogika fanining mustaqil sohasi, shuningdek, o'quv intizomi hisoblanadi.

Kreativ pedagogika shaxsda innovatsion harakatchanlik, kreativlik va zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgacha kreativlik atamasiga nisbatan odatga aylanib qolgan tushuncha to'g'risida shaxslarning original qadriyatlarini yaratish, nostandard qarorlarni qabul qilish, ma'lumlik chegaralaridan chiqish kabi xususiyatlarini aks ettiruvchi sifatlar; shaxsning ijodiy imkoniyatlarini mujassamlantiruvchi uning integral xususiyatlari sifatida so'zlashish mumkin.

Kreativlikning muhim tasniflari sirasiga intuitsiya, tasavvur, o'ylar, oldindan ko'ra olish, originallik, tashabbuskorlik, qat'iyatlik, o'z-o'zini tashkillashtira olish va ishchanlik qobiliyatlari kiritiladi. Ushbu xususiyatlarga ega shaxs nafaqat muvaffaqiyatga erisha olishdan, balki ijod jarayonining o'zidan ham bahra oladi.

O'quv-tarbiya jarayonini gumanitarlashuvi bilan bog'liq zamonaviy ta'lim tizimining yangilanishi har bir o'quvchi ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik sharoitlarni yaratish zarurligini nazarda tutadi. Pedagogik sharoitlar tushunchasi ostida omillar, prinsiplar va o'quvchilarning shaxs sifatida o'sishiga xizmat qiluvchi turli tarbiyalovchi choralarining o'zaro bog'liq jamlanmasi nazarda tutiladi.

Biz o'quv-tarbiya faoliyatiga o'quvchi va pedagogning subyektiv pozitsiyasi sifatida qaraymiz. Bizning nuqtai-nazarimizda o'quv-tarbiya tizimidan yanada sifatli darajaga – o'z-o'zini rivojlantirish darajasiga chiqish ijodiy rivojlanishning samaradorligini oshirishga va o'quvchi shaxsining o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kreativ muhitni yaratishga qaratilgan pedagogik faoliyatning bir qator belgilari aniqlangan: noodatiy savol va g'oyalarga e'tiborli munosabat bildirish, ularning qiymatini namoyon qilish; erkin mustaqil o'quv sharoitini yaratish.

Yuqorida ta'kidlanganlar bilan bog'liq holda, ta'lim muassasasi uchun ijodiy muhit yaratishga qaratilgan pedagogik yordamni tashkil etish alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarga pedagogik yordam ko'rsatish ikki xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: umumiy guruh tarzda va individual shaxsiy tarzda. Birinchi vaziyatda – kreativ muhitning yaratilishi pedagog va o'quvchilarning hamkorligi, faoliyatning dialogik shakli, o'quvchilarning ijodiy faolligini nazarda tutuvchi topshiriqlarning qo'llanilishi orqali ta'minlanadi. Ikkinchi yondashuv – o'quvchilar uchun individual rivojlanishda mustaqil qarorlarni qabul qilish, ijod, o'qish va xulq-atvorning tarkibi va usullarini tanlash hisobiga sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Kreativlikni rivojlantirishda pedagogik yordam ko'rsatish quyidagi prinsiplar orqali yo'lga qo'yiladi: o'quvchilar manfaatlarining ustuvorligi; muntazamlik; qo'llab-quvvatlashning multidissiplinarligi; barcha qo'llab-quvvatlash ishtirokchilari tomonidan o'quvchilarga nisbatan yagona munosabatni shakllantirish; o'quvchilar qadriyatlarining ustuvorligini tan olish.

Pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayonida pedagog o'quvchilarga shaxsiy to'siqni his etishga yordam beradi, har bir o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni va shaxsiy ahamiyatlilikni his etishni qo'llab-quvvatlaydi. Buning uchun pedagog o'quvchilarning takrorlanmas va mukammal xususiyatlarini tan olishi, ularga individual psixologik portretni

taqdim etishi, yoshga doir o'ziga xos xususiyatlar, o'quvchi xulq-atvorini belgilovchi dominant motivlar, o'quvchining ta'limga bo'lgan munosabati va kattalar hamda tengqurlari bilan o'zaro munosabatini bilishi, o'quvchilar hayotining mazkur davridagi ijtimoiy-shaxsiy rivojlanish masalalari va ta'lim dasturi o'rtasida mutanosiblikni o'rnatish zarur.

O'z o'quv faoliyatini qurish haqidagi bilimlar – o'ziga xos turdagi bilimlar bo'lib, ular nafaqat miqdoriy (besh ballik tizim bo'yicha), balki sifatli ravishda: o'quvchi faoliyatining turli sohalarida ma'lum bir sifat rivojlanishining quyi darajasidan yuqori darajasigacha baholanishi lozim. Ko'plab izlanuvchilar o'qituvchining pozitsiyasiga, uning ijodiy shijoatiga, u tomonidan yaratilgan fikrlash erkinligi va o'z-o'zini namoyon qilish muhitiga ham katta ahamiyat beradilar. Bunga erishish uchun ko'plab usullar mavjud: o'quvchilar harakatlariga qiziqish bildirish; ko'plab javob variantlarini tan olish va rag'batlantirish; tanish jarayonlar, hodisalarga boshqa fikrlarni namoyish qilish va h.k.

Pedagogik yordam berishda amalga oshiriladigan pedagogga nisbatan zamonaviy talablar shundan iboratki, pedagog ma'lumot beruvchi emas, balki koordinator, menedjer, suhbat tashkillashtiruvchi, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning maslahatchisi bo'lishi lozim.

Pedagog bilimlarni o'zlashtirishning eng samarali yo'llarini qo'llab-quvvatlaydi va ularga yo'naltiradi, qiziqarli topilmalar uchun rag'batlantiradi, muvaffaqiyatsiz urinishlarni tahlil qiladi, o'quvchilarni o'z muvaffaqiyatsizliklari va g'alabalarini anglashga undaydi. Ko'plab pedagogik va psixologik izlanishlardagi birgalikda ijod qilish muammosi hamkorlik g'oyasi kontekstida ko'proq ishlab chiqiladi (A.A.Bodalev, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, Y.D.Krasilnikov va boshq.). Biroq, hamkorlik birgalikda ijod qilishning muhim sharti sifatida ahamiyatga ega bo'lgan holda, uning o'zaro ta'sir subyektlari pozitsiyasining o'ziga xos tomonlari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarini to'liq aniqlamaydi. Birgalikda ijod qilish o'quvchilarga o'z tempida o'quv materialini o'zlashtirishga, o'z ijodiy imkoniyatlarning potensialiga va ularni amalga oshirishning o'z yo'lini tutishga huquq beradi³.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shartlariga o'quv mashg'ulotida bir maqsadli yaratiladigan kreativ ta'lim muhitini; o'quvchilar ijodiy imkoniyatlarining personifikatori sifatida o'qituvchining o'zidagi xulq-atvor na'munasining kreativ mavjudligini; o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi ijodini; ijodiy faoliyatdagi subyekt pozitsiyasini; ijodiy muhitni yaratish va muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratishni kiritish mumkin.

O'quvchilarda kreativlikni eng samarali ravishda rivojlantirish bir maqsadga yo'nalgan, kompleks pedagogik o'zaro ta'sir orqali uzluksiz kreativ ta'lim tizimi sharoitlarida ta'minlanadi. Bu va boshqa masalalar ishlanmasi bilan boshlang'ich amaliy pedagogik tarmoq sifatida kreativ pedagogika shug'ullanishi lozim degan fikrni ilgari suramiz.

³ **Арипджанова А.Р.** Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: Ped. ... falsafa fanl. d-ri Автореф. – Т., 2017.

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI TAJRIBAVIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK SHARTLARI

Rezume. Hozirgi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim sifati va tuzilmasini takomillashtirishga, maktab bitiruvchilarini tayyorlashda ularda kompetensiyalarni shakllantirish kabi ta'lim sohasidagi zaruratlar qaratilgan. Ushbu maqolada o'quvchilarda kimyo faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish sifatini oshirish masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, tajribaviy tadqiqotchilik faoliyati, kompetentlik.

Резюме. В настоящее время к качеству образования и его поддержке в рамках его реформирования предъявляются новые требования, указывающие на необходимость подготовки выпускников школ, ориентированных на развитие компетенций. В данной статье рассматриваются вопросы повышения качества предметных компетенций у учащихся по предмету химии.

Ключевые слова: компетентный подход, экспериментально-исследовательская деятельность, компетентность.

Abstract. This article discusses the issues of improving the quality of subject competencies in students in chemistry. Currently, new requirements are being presented to the quality of education and its content as part of the reform, indicating the need for training school graduates focused on developing competencies.

Key words: competent approach, experimental and research activities competence.



G.X.KADIROVA*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmonida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash lozimligi ko'rsatilgan¹. Shuningdek, ushbu Farmonga muvofiq 2019-yil 4-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Prezident Farmonida umumta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish hamda mavjud muammolarni o'z vaqtida hal etish talab etilayotganligi, o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish lozimligi, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirish zarurati borligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalar va o'quv jarayonini interaktiv boshqarish mahorati tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish, o'quv muddatlarini o'zgartirmagan holda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish kabi hozirgi kunning dolzarb masalalari ko'rsatilgan². Shu bois, quyida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri

* **Kadirova Gulnora Xasanovna**, Pedagogik innovatsiyalar instituti tayanch doktoranti. **E-mail:** gulnora.kadirova.86@mail.ru

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi PF-5538-sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi. – T., 2018. – 5 sentyabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi. – T., 2019. – 29 aprel. – 06/19/5712/3034-son.

tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlari mavjud.

Insonning amaliy harakat usullari avval boshdan borliqning qonunlari va xususiyatlari, uning bevosita muloqot buyumlari ob'ektiv mantig'i bilan o'zaro muvofiqlashuvini taqozo qilgan.

Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatlarining asosiy mazmuni, birinchi navbatda, amaliyot asosida tekshirilgan ilmiy nazariyalardir. Shuning uchun ham amaliyot va nazariya o'rtasida mavjud tafovutlar funksional xarakterga ega: amalga oshirilgan tadqiqotning nazariy natijasi sifatida shakllangan faoliyat dastlabki tadqiqotlarning yuzaga kelish sharti hisoblanadi. Tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatining o'ziga xos jihatlari tegishli bo'lgan metodik masalalarga to'xtalib o'tamiz va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlaymiz.

O'quvchilarning tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatini biz Yu.K.Belov, A.D.Ivanova kabi tadqiqotchilarning fikrlariga qo'shilgan holda, ularning ma'lum bo'lmagan faktlarni ochishlariga olib keladigan izlanish xarakteridagi harakatlar majmui, nazariy bilimlari va faoliyat turlarini tushunamiz. O'quvchilar shunday yo'llar bilan kimyoda mavjud asosiy tadqiqot usullari bilan tanishadilar, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalariga ega bo'ladilar^{3,4,5}.

Tadqiqotchilik ko'nikma va malakalari – bu tadqiqotlarni mustaqil amalga oshirish uchun zarur bo'lgan intellektual, taktik namunalari tizimidir.

Tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyati o'quvchilar tomonidan turli maqsadlarda amalga oshirishi mumkin: a) yangi bilimlarni egallash maqsadida; b) nazariy holatlarni tekshirish maqsadida; v) olingan bilimlarni umumlashtirish maqsadida; g) o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilimlarini yangi nostandart sharoitlarda qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirish maqsadida; d) o'quvchilarda kimyoviy tajribalarni tashkil etish va o'tkazish kompetensiyalarini shakllantirish⁶.

Tadqiqot topshirig'i mazmunida mavjud muammoni hal qilish uchun o'quvchilarni zarur bilimlarni qo'llashga jalb qilish murakkab o'quv ko'nikmasi hisoblanadi.

So'nggi yillarda nazariyada, jumladan, amaliyotda o'quv-tadqiqot usullari tizimini yaratishga e'tibor kuchaydi, chunki bu o'quvchilarning kreativ mazmunga qo'yilgan muammolarni samarali hal qilishlari uchun zaruriy shartligi bilan izohlanadi. Ularga umumilmiy metodlar hamda maxsus ko'nikmalar mansub bo'ladi.

Tadqiqotchilik xarakteridagi kimyoviy tajribani o'tkazish uchun u yoki bu tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarga egalikning o'zi yetarli emas. Bu o'rinda o'quvchilardan majmuaviy tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini o'zlashtirganlik talab etiladi. Metodik adabiyotlarni tahlil qilish, izlanuvchi-olimlar tomonidan taklif qilingan tadqiqotchilik ko'nikmalari bo'linish tamoyillarini umumlashtirish asosida biz o'quvchilarni tajribaviy-tadqiqot faoliyat usullariga o'rgatishda ularning kreativ fikrlashlarini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirsak, mazkur jarayon nisbatan samarali kechadi, - degan farazdan kelib chiqdik⁷.

³ **Белов П.С.** Лабораторный практикум как эффективный способ формирования знаний и развития экспериментальных умений студентов химико-биологических специальностей в педагогическом вузе // НЕОФИТ. Выпуск 3: Сборник материалов научно-практической конференции студентов и магистрантов НГПУ. – Нижний Новгород, 2006. – С. 102-103.

⁴ **Белов П.С.** Применение лабораторного практикума как эффективного способа формирования знаний и развития экспериментальных умений студентов // Актуальные проблемы химии и методики её преподавания: Сборник материалов межрегиональной научно-практической конференции. – Нижний Новгород, 2006. – С. 129-132.

⁵ **Кудинова Н.Ф.** Использование материала, связанного с жизнью на уроках химии. – Москва: МГОУ, 2009. – 39 с.

⁶ **Кудинова Н.Ф.** Использование материала, связанного с жизнью на уроках химии. – Москва: МГОУ, 2009. – 39 с.

⁷ **Do'monov B.M.** Kimyodan qiziqarli tajribalar. – Andijon, 2017. – B. 36.

Tajribaning asosiy urg'usi yuqori sinf o'quvchilarining quyidagi uch psixik faoliyatini dolzarblashtirishiga qaratiladi: kognitiv, emotsional-motivatsion va axloqiy.

Tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyat usullarini egallashning ijodiy faoliyat kognitiv komponenti – bu kimyoviy tajribalarni belgilash va o'tkazish yuzasidan ko'nikma va malakalarni mukammal egallashga intilish.

Emotsional-motivatsion komponent – ijodiy motivatsiyalar mavjudligi, o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati usullarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarining davom etayotganligi, o'zaro hamkorlik va ijodiy muhit asosida ifodalanadigan emotsional qulaylik.

O'quvchilarning kimyo fanidan dastur materiallarini o'zlashtirishlariga ijodiy munosabatlarining xulqiy jihatlari ularning o'quv-biluv faoliyati bosh vazifalarini bajarishlarida mustaqillik va ijodiy faolligi, axloqiy yondashuvlari bilan belgilanadi⁸.

Yuqori sinf o'quvchilarini tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda biz quyidagi tamoyillarga asoslandik:

Kimyo fanidan umumiy o'rta ta'lim dasturlarini hisobga olgan holda tajribalarni o'tkazishda mavjud tarkibiy bilimlarini maksimal tarzda optimallashtirish (nazariyalar, qonunlar, tushunchalar). Biz taklif qilayotgan tajribaviy vazifalar ma'lum hajmdagi nazariy materiallarni qamrab olishi mumkin.

Amaliy ko'nikma elementlari tarkibini takomillashtirish. Tajribaviy topshiriqlar tarkibiga o'quvchilarning ijodiy tadqiqotchilik faoliyat usullari uchun keng imkoniyatlar beradigan vazifalar kiritiladi.

Aqliy harakatlar usullaridan atroflicha foydalanishni ta'minlash. O'quvchilarga taklif etilayotgan tajribalar ularga umumlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, aniqlash, mavhumlashtirish, induksiya, deduksiya, tahlil, tarkib kabi usullarni qo'llash imkonini beradi.

Vaziyatlar yangiligi va noodatyligi. Bu tamoyilni bajarish, bir tomondan, o'quvchilarning oldin egallagan bilimlarini yangi sharoitlarda qo'llash ko'nikmalarini aniqlash, ikkinchi tomondan, aniq bir vazifani bajarish va natijalarni olishga katta qiziqish uyg'otadi.

Kimyoviy tajribani amalga oshirish variativligi tajribaviy-tadqiqotchilik vazifalari yechimini aniq va to'g'ri hal qilish yoki o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Fanlararo aloqalarni ta'minlash. Mazkur tamoyil bizga o'quvchilarning dialektika asosiy masalalarini tushunishlari to'g'risida, qiziqish doiralarning kengligi, kimyoning boshqa fanlar bilan aloqalari xususida mulohaza yuritishga ko'maklashadi.

Kimyoviy tajribalar murakkablik darajasining xilma-xilligi. Bu tamoyil psixologik ahamiyatga ega. Dastlab nisbatan oddiy tajribalarni amalga oshirib, o'quvchilar katta ishonch bilan navbatdagi nisbatan murakkab tajribalarni bajarishga kirishadilar. Soddadan murakkabga qarab asta-sekinlik bilan o'tish yuqori sinf o'quvchilarini jiddiy ijodiy topshiriqlarni bajarishga ilhomlantiradi.

Tashkiliy bosqich. Nazariy bilimlarni takrorlash, tadqiqotchilik faoliyatini maqsad va vazifalarini belgilash, farazlarni ilgari surish, amaliy mashg'ulot rejasi va algoritmini tuzish, texnika xavfsizlik qoidalari bilan tanishish va shu kabi xarakterliklar majmuidan iborat.

Asosiy bosqich amaliy mashg'ulotlar shaklida o'tkaziladi. Tashkiliy bosqichda o'quvchilarning zarur boshlang'ich ko'nikma va malakalari shakllangach, ularga amaliy va laborator ishlarini bajarishlariga ruxsat beriladi. Amaliy mashg'ulotlar uchun taklif etiladigan variantlar o'quv dasturlariga mos tarzda amalga oshiriladi, lekin u yoki bu ishning qanday (produktiv, reproduktiv) metodlar asosida qiziqarli va tushunarli tarzda

⁸ **Панькова С.В.** Из опыта формирования химической компетенции // Химия в школе. – Москва, 2009. – № 4. – С. 29-32.

o'tkazilishi o'qituvchining bilim darajasi, mahorati, mashg'ulotlarga bo'lgan kreativ yondashuviga bog'liq bo'ladi.

Yakunlovchi bosqich. Amaliy mashg'ulotga o'tkazilgan tajribalar, kuzatuvlar va olingan natijalar asosida xulosalar beriladi. Ish joyi tartibga keltiriladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'quvchilarning tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash tamoyillari va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bosqichlarini kreativ yondashuv asosida amalga oshirish kutilgan natijalarni bera oladi.

Kreativ yondashuv o'quvchilarni tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, ularda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa o'rnida quyidagi mulohazalarimizni keltirib o'tamiz:

O'quvchilarni tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlashda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tabiat hodisalari, kundalik turmushda, tabiatda kuzatilayotgan kimyoviy jarayonlarni mohiyatini anglashga qaratilgan muammoli vaziyatlarni yaratish va ularga javob topish tarzida tashkillash kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni amalga oshirish uchun hizmat qila oladi.

Kreativ yondashuv asosida amaliy mashg'ulotlarni olib borish o'quvchilarda yaratuvchanlik, tajribalar o'tkazish, yangilikka intilish, o'z g'oyalari va loyihalari ustida izlanish ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi.

DOIRA IJROCHILIGINI OMMALASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA MUSIQIY TA'LIMNING O'RNI

Rezume. Mazkur maqolada musiqiy ta'lim jarayonida doira ijrochiligini yanada ommalashtirish va ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash muammolari o'rganilgan hamda ularni bartaraf etish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar borasida takliflar berib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: doira ijrochiligi, bolalar musiqa va san'at maktablari, uzviylik, san'at va madaniyat maktablari, ta'lim bosqichlari, ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi, uzluksiz ta'lim.

Резюме. В этой статье исследуются проблемы дальнейшей популяризации исполнительства дойры в процессе музыкального образования и обеспечения преемственности между этапами обучения, а также предлагаются предложения по их преодолению.

Ключевые слова: исполнительство дойры, детские школы музыки и искусства, преемственность, школы искусств и культуры, этапы обучения, специализированный музыкально-академический лицей, непрерывное образование.

Abstract. This article is within the process of musical education in further education and the popularization of competition between the stages of performance of doyra and mentioned in the offer in respect of work that must be done to overcome them.

Key words: doyra performance, children's schools music and art, competition, schools of music and art, the stages of education, specialized schools of music and art, continuing education.



Q.B. QOBILQORIYEV*

Doira cholg'usi qadimdan xalqimiz madaniy hayotidan chuqur o'rin egallagan barchamizga ma'lum. Turli xil bayramlar, ommaviy tadbirlar, xalqimizning shodiyona kunlari doira sadolarisiz o'tmaydi.

“Doira uzoq yillardan buyon musiqa amaliyotimizda qo'llanib kelinayotgan bo'lsa-da, uning milliy san'atimizdagi ahamiyati, ustoz-shogird an'analari hamda ijrochilik maktablari haqida ma'lumotlar yetarli emas. Bundan tashqari, doira cholg'usi va undagi ijrochilikning ommalashuvida mohir sozandalarning o'ri, ularning bu borada amalga oshirgan xizmatlari, shuningdek, doira ijrochilarini tayyorlashda musiqiy ta'limning o'ri va ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash kabi jihatlar o'rganilmagan. Bu borada ilmiy izlanishlar olib borish, sohadagi mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi”¹.

Respublikamizda musiqiy ta'lim sohasida mutaxassislarni tayyorlash uch bosqichli tizim asosida amalga oshirib kelinmoqda. Ularning birinchisi – maktabdan tashqari ta'lim bosqichi bo'lib, asosan, bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqiy ta'limning tegishli yo'nalishlari bo'yicha boshlang'ich bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishdan iborat. Shuningdek, o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida madaniyat markazlari, “Barkamol avlod” yoshlar ijodiyot markazlari tashkil etilgan. Lekin ulardagi to'garaklar dasturi o'qishning keyingi bosqichini davom ettirish imkonini bermaydi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish va bu orqali o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning bir-biriga bog'langan yaxlit

* **Qobilqoriyev Qudratilla Baxtiyor o'g'li**, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi.
E-mail: qobilqoriyev93@mail.ru

¹ **Qobilqoriyev Q.** Doira cholg'usining o'zbek milliy musiqa madaniyatidagi o'ri: Magistrlik dissertatsiya. – T., 2020. – 116 b.

tizimini shakllantirish, bolalarning ijodiy salohiyatini yanada keng ochib berish, musiqa va san'atning boshqa turlarini chuqurroq tushunishi hamda ularga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, milliy hamda jahon musiqiy merosini o'rganishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2015-yil 20-noyabrda PQ-2435-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi" ishlab chiqildi. Dasturga muvofiq, bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yangi sifatli mazmun bilan boyitish, ma'lum bir cholg'uni ijro etish texnikasini egallash bilan bir qatorda, jahon mumtoz musiqasini, dunyoga mashhur, buyuk bastakorlar va rassomlarning ijodini chuqur o'rganish, o'quvchilarning musiqiy va umumiy madaniyatini oshirish, bolalarda butun umri davomida hamroh bo'ladigan musiqa hamda san'atning boshqa turlariga qiziqishni kuchaytirish asosiy maqsad etib belgilandi. Bunga, asosan, bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash hamda foydalanish samaradorligini oshirish, ularni yangi avlod zamonaviy o'quv uskunalari va anjomlari, shu jumladan, multimediya shaklidagi o'quv adabiyoti va metodik qo'llanmalar, mahalliy va xorijiy kompozitorlar ijodiga doir nota to'plamlari va klavirlar, shuningdek, sifatli ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlash kabi vazifalar belgilab berildi.

Ikkinchi bosqich – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (hozirda kasbiy ta'lim) tizimida ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari, akademik litseylar, maxsus maktab-internatlarida o'quvchilarga o'rta maxsus ma'lumot beruvchi kichik mutaxassislar tayyorlash orqali amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-son Qarori bilan san'at va madaniyat kollejlari ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarga aylantirildi². Mazkur Qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi 9-son "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlar to'g'risida" nizomi ishlab chiqildi. O'quvchilarni mutaxassislik fanlaridan chuqurlashtirilgan va kasbga yo'naltirilgan holda o'qitish, ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

Shuningdek, yuqoridagi qaror va nizom orqali o'quvchilarni san'at va madaniyat yo'nalishida tanlagan kasblari bo'yicha mutaxassislik fanlaridan chuqurlashtirilgan va kasbga yo'naltirilgan davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq sifatli o'qitishni tashkil etish, kelgusida oliy ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishi yoki tanlagan kasbi va ixtisosligiga muvofiq mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun yuqori darajada sifatli bilimlar olishi va kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydigan davlat talablari doirasida ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlarini amalga oshirish belgilab berildi. Musiqiy ta'limning mazkur bosqichida o'quvchilar ikki yil davomida tahsil oladilar.

So'nggi uchinchi bosqich – oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va uning hududiy filiallarida talabalarga bakalavr hamda magistr darajasidagi oliy ma'lumot berish orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

² Lex.uz

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'tgan yillar davomida bolalar musiqa va san'at maktablarini barpo etish, mavjudlarini kapital rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu ta'lim muassasalarida zamonaviy, xalqaro talablar darajasidagi shart-sharoitlar yaratilmoqda. Qolaversa, musiqa va san'atga ixtisoslashgan akademik litseylar, shuningdek, sohadagi oliy ta'lim muassasalari faoliyati ham bir-biriga muvofiqlashtirilib, yagona uzluksiz musiqa ta'lim tizimi shakllandi.

Yurtimizdagi barcha musiqiy ta'lim muassasalari zamonaviy musiqa cholg'ulari, o'quv jarayonini tashkil etishda zarur bo'lgan barcha kerakli jihozlar bilan ta'minlangan. Hozirda bu o'quv dargohlarida ta'lim olish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Buning barobarida ta'lim sifati oshdi. Natijada yuzlab iste'dodli yoshlar o'z yo'nalishlari bo'yicha xorijiy davlatlarda o'tkazilayotgan turli xil nufuzli xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, o'z san'atlarini dunyo sahnalarida namoyish etib, xorijliklarni lol qoldirishmoqda va sovrinli o'rinlarni egallab qaytmoqdalar.

Musiqiy ta'limda erishirilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda kamchilik va muammolar ham yo'q emas. Quyida doira ijrochilarini tayyorlashda musiqiy ta'limdagi uzviylikni ta'minlash borasida uchrayotgan kamchiliklarga to'xtalib o'tmoqchimiz.

"Musiqiy ta'limda doira ijrochilarini tayyorlashning eng muhim bosqichi bu bolalar musiqa va san'at maktabi hisoblanadi. BMSMda doira ijrochiligi bo'yicha ta'lim olish muddati besh yil hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchi doira cholg'usi haqida ilk tasavvur hosil qiladi hamda undagi ijrochilik mahoratini egallashning dastlabki jarayonlarini o'zlashtiradi. Ushbu jarayonda cholg'udagi ijro holati, uslublari, zarblari (shtrixlari)ni puxta o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlar yakka tarzda olib boriladi. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ijrochilik mahorati egallanadi"³.

BMSMdagi doira sinfida tahsil oluvchi o'quvchilar kelgusida o'z tanlagan yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishi tegishli o'quv dasturi va undagi belgilangan fanlarni chuqur o'zlashtirishi talab etiladi. Bolalar musiqa va san'at maktabida doira ijrochiligidan saboq beruvchi pedagoglar o'quvchining ijrochilik mahoratini rivojlantirishda uning qobiliyatini ko'ra bilishi va shunga qarab ish rejasini tuzishi lozim. Birinchi darsdan boshlab doiraning kelib chiqish tarixi, milliy san'atimizdagi o'rni, uni xalqimiz orasida ommalashtirgan ustoz doirachilar haqida qisqacha ma'lumotlar berib borishi lozim. Darslarni nazariy va amaliy tarzda olib borish zarur. Yuqori sinflarga o'tgan sari asta-sekinlik bilan murakkab o'lchov va mashqlarga o'tish lozim. Bunda turli qo'l mashqlari, etyudlar bilan birgalikda ustoz doirachilar yaratgan va ijro etgan doira usullari, milliy musiqa madaniyatimizning barcha sohalarida qo'llaniluvchi usullar, doira raqslarida ijro etiluvchi usullardan namunalar sinflar kesimida, o'quvchilarning ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda oddiydan murakkabgacha bo'lgan shaklda nota savodxonligiga e'tibor bergan holda o'rgatib borilishi maqsadga muvofiq. O'quvchilar darsga kirishdan 15-20 daqiqa avval doirani o'rta darajada qizdirib, qo'l yurgizish mashqlarini bajarib, so'ngra darsga kirishlari lozim. Aks holda qo'l barmoqlarini qizdirmasdan, ularni doiraga moslashtirmasdan ijro qilish, shuningdek, darhol qizigan doirani ijro qilish qo'llarning xastalanishiga, kerakli natijaga erishilmasligi sabab bo'lishi mumkin. Bolalar musiqa va san'at maktablarining asosiy vazifasi – o'quvchilarning doira ijrochiligi bo'yicha boshlang'ich bilimlarni berish, ustoz doirachilar qoldirgan musiqiy merosdan boxabar etish, iqtidorli o'quvchilarni shu sohaning o'rta maxsus ta'lim muassasalariga tayyorlashdan iborat.

³ **Qobilqoriyev Q.** *Doira cholg'usining o'zbek milliy musiqa madaniyatidagi o'rni: Magistrlik dissertatsiya.* – T., 2020. – 98 b.

Kuzatuvlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, ayrim bolalar musiqa va san'at maktablaridagi doira sinfi darslarini yuqorida qayd etilgan jihatlarga rioya qilmagan holda yuzaki tarzda o'tish hollari uchramoqda. O'quv jarayonida doira usullarini o'rgatish, asosan, og'zaki tarzda olib borilmoqda. Bu esa, o'quvchilarning nota savodxonligini egallashlari va kelajakda doira ijrochiligini har tomonlama puxta egallashlariga salbiy ta'sir o'tkazadi. Afsuski, ba'zi bolalar musiqa va san'at maktablarida boshqa cholg'u mutaxassisligiga ega bo'lgan pedagoglar doira cholg'usi ijrochiligidan saboq berib kelayotgan holatlari ham yo'q emas. Bu holat doira cholg'usiga e'tiborsizlik natijasi desak, adashmagan bo'lamiz.

"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, ustoz san'atkor G'afur Azimov doira cholg'usiga quyidagicha ta'rif bergandi: "Kuyning avvali doira usullaridan boshlanadi. Bir qaraganda doira musiqani boshidan oxiriga qadar kuzatayotganga o'xshaydi. Ba'zilar doira ijrosida murakkab san'at namunasi sezilmaydi, deb o'ylashadi. Shundanmi, ko'pchilik doirani ikkinchi darajali musiqa cholg'usi hisoblaydi. Bu noto'g'ri. Men doira ijrochiligini eng qadimiy, yillar davomida shakllangan, murakkab san'at turi deb bilaman"⁴.

Darhaqiqat, doira sodda ko'rinishga ega bo'lgani bilan, ijro paytida o'ziga xos tovush hosil qilish imkoniyatlariga boy cholg'u sifatida boshqa cholg'ulardan farq qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir soha qatori doira ijrochilarini yetishtirishda, ularga saboq beruvchi ustozlarning bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga jiddiy e'tibor qaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bundan tashqari, "Barkamol avlod" bolalar ijodiyot markazlaridagi "Yosh doirachi" to'garaklarida ham 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan ko'plab yoshlar doira ijrochiligidan saboq olmoqdalar. Shu o'rinda bir muhim jihatni ta'kidlash joiz. "Barkamol avlod" bolalar ijodiyot markazlaridagi doira to'garaklariga qatnashayotgan yoshlarning ijro mahorati bolalar musiqa va san'at maktablarida tahsil olayotgan doirachilar bilan solishtirganda birmuncha yuqori bo'lmoqda. Birgina kamchilik doira to'garaklaridagi ta'lim jarayoni faqat amaliy jihatdan olib borilishi va ularning o'quv dasturiga doira ijrochiligining nota tizimi kiritilmaganligidir. Bu esa, o'z navbatida, ushbu ta'lim dargohlarining to'garak maqomida ekanligi bilan bog'liq. Lekin bu to'garaklarning faoliyatini, ular erishayotgan natijalarni bolalar musiqa va san'at maktablarida doira sinfidan saboq berib kelayotgan mutaxassislariga o'nak qilib ko'rsatsa arziydi. Yana bir muhim jihat shundaki, doira to'garaklarini tamomlagan yoshlarga beriladigan hujjat bilan musiqiy ta'limning keyingi bosqichida tahsilni davom ettirib bo'lmaydi. Bu jihat ham ko'plab iqtidorli yoshlarning san'at yo'lidagi keyingi faoliyatlariga to'siq bo'lmoqda.

Doira ijrochilarini tayyorlashning keyingi bosqichi madaniyat va san'at maktablari, iqtidorli bolalar akademik litseylarida davom ettiriladi. Unda o'quvchilar ikki yil davomida tahsil oladilar. Bu bosqichdagi dolzarb muammolardan biri shundaki, ularning ikki yillik ixtisoslashtirilgan maktablarga aylantirilganligidir. Ikki yillik musiqiy ta'limda doira ijrochiligidan saboq oladigan o'quvchilar mutaxassisligi bo'yicha yetarlicha bilimni egallay olmaydilar. Sababi, BMSMlarida doira ijrochiligidan saboq berish davri besh yilni tashkil etadi. Shu orada BMSMlarda ba'zi o'quvchilar umumiy o'rta ta'limni tugatmasdan oldin BMSMlarini bitiradi. Natijada musiqiy ta'limning keyingi bosqichi orasida bo'shliq yuzaga keladi. Bu davr mobaynida o'quvchi BMSMda olgan bilimlarini unutilib, keyingi bosqichda yana boshidan boshlashga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, o'quv rejada mutaxassislikka oid bo'lmagan fanlarning ko'pligi, mutaxassislik fanlari bilan bog'liq yakka darslarning

⁴ Islomov D. Doira san'ati darg'alari: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 50 b.

vaqti 45 minut etib belgilanganli o'quvchilarning mutaxassislik fanlarini chuqur o'zlashtirishiga to'sqinlik qilmoqda. Doira ijrochiligidan saboq oluvchi o'quvchilar ijro etayotgan asarlar tahsil olayotgan ta'lim bosqichi talablari asosida bo'lishi lozim. Bu o'rinda ham kamchiliklar mavjud.

Har bir cholg'uda bo'lgani kabi doirada ham ijrochilik mahoratini oshirish oddiylikdan murakkablik sari bosqichma-bosqich rivojlanib borishi lozim. Lekin hozirgi kunda BMSMLarda o'qiyotgan o'quvchilarning ta'limning keyingi bosqichida o'rganishi lozim bo'lgan asarlarni ijro qilishlarini kuzatishimiz mumkin. Natijada ayrim o'quvchilarning asarni to'laqonli maromiga yetkazolmay ijro qilolmasliklarini, ijro mahorati yetmasligini guvohi bo'lamiz. Balki ijro qilinayotgan bunday asarlar o'quvchining iqtidoriga qarab tanlanayotgandir. Lekin shunday bo'lsa-da har bir bosqichda tizimli dastur asosida asarlar bosqichma-bosqich o'rganib borilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu holat ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida ham shu ko'rinishda davom etmoqda. Oliy ta'limda o'rganishi kerak bo'ladigan asarlarni o'quvchi maktab davrida o'zlashtirmoqda. Natijada oliy ta'limdagi to'rt yillik tahsil davomida quyi bosqichda o'rgangan asarlarini ijro qilib, bitirib ketish holatlari kuzatilmog'ida. Buning sababi musiqiy ta'lim sohasida uzviyiligi yetarli darajada ta'minlanmagani desak to'g'ri bo'ladi. Bu borada musiqiy ta'limning barcha bosqichlari bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida tizimli o'qitish jarayonini tashkillashtirish lozim. Buning uchun har bir bosqichda faoliyat olib boradigan malakali mutaxassislarning o'zaro hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish lozim. Ijro dasturlarini tizimli ravishda shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu jarayonlarga musiqiy ta'lim muassasalarida doira ijrochiligidan saboq beruvchi tajribali mutaxassislarni jalb etgan holda ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni to'g'ri yo'lga qo'yish va bu orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilash mumkin.

"Fikrimizcha, oliy ta'limda doira ijrochiligidan saboq olayotgan talabalarga ijrochilikdagi amaliy ko'nikmalar bilan birgalikda ularning mutaxassislik cholg'usi bilan bog'liq nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Kelajakda o'z sohasi bo'yicha o'qishni davom ettirib, ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yuqori 3-4-kurs talabalari uchun ta'limning keyingi bosqichi va undagi ta'lim jarayonlari haqida tushunchalar berib borish foydadan holi bo'lmaydi"⁵.

Xulosa o'mida doira cholg'usi bilan bog'liq ilgari o'rganilmagan jihatlarni tadqiq qilish, doira ijrochiligi bilan bog'liq zamonaviy o'quv dasturlari, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratish, ulami musiqiy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy ta'limning har bir bosqichida doira ijrochiligini tizimli dastur asosida o'rgatib borish maqsadga muvofiq. Bu borada musiqiy ta'limning barcha bosqichlari bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida tizimli o'qitish jarayonini tashkillashtirish lozim. Buning uchun har bir bosqichda doira ijrochiligidan saboq berayotgan malakali mutaxassislarning o'zaro hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish, ijro dasturlarini tizimli ravishda shakllantirish zarur.

⁵ **Qobilqoriyev Q.** *Doira cholg'usining o'zbek milliy musiqa madaniyatidagi o'rimi: Magistrlik dissertatsiya.* – T., 2020. – 99 b.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI KADRLARINI TAYYORLASHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Rezume. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida, asosan, umumiy o'rta ta'lim maktablari, professional ta'lim tizimi muassasalarida va turizm markazlarida o'quvchilar va aholini jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ta'lim muhitini yaratgan holda, salomatlik va sog'lom turmush tarzi qadriyatini shakllantiruvchi sharoitlarni sport-sog'lomlashtirish turizmini tashkil etishga qaratilgan muammolar o'rganib kelinmoqda.

Tayanch so'zlar: sport-sog'lomlashtirish turizmi, operetning, sport, sport turizmi, sog'lomlashtirish majmuasi, turoperator.

Резюме. Создавая образовательную среду в ведущих мировых учебных заведениях, в основном, общеобразовательных школах, профессиональных учебных заведениях и туристических центрах, направленную на сохранение и укрепление здоровья учащихся и населения в процессе физического воспитания, решаются проблемы, направленные на организацию занятия спортивно-оздоровительным туризмом в условиях, определяющих ценность здоровья и здорового образа жизни.

Ключевые слова: спортивно-оздоровительный туризм, опереттинг, спорт, спортивный туризм, оздоровительный комплекс, тuroperator.

Abstract. By creating an educational environment in the world's leading educational institutions, mainly secondary schools, vocational schools and tourist centers, aimed at preserving and improving the health of students and the population in the process of physical education, problems are being solved aimed at organizing sports and recreational activities in conditions determining the value of health and a healthy lifestyle.

Key words: sports and health tourism, operetning, sports, sports tourism, health complex, tour operator.



V.SH.RAXIMOV

So'nggi yillarda respublikada turizm va sport sohalarini yanada rivojlantirish, aholini jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, infratuzilmani yaxshilash, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali turistlar sayohati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, madaniy merosni muhofaza qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, yaratilgan imkoniyatlarga qaramasdan turizm, sport va madaniy meros sohalarini rivojlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmagan, raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan, xususiy sektorning ushbu yo'nalishlardagi rolini oshirish bo'yicha o'z yechimini topmagan masalalar mavjud.

Bugungi kunda jahon turizm bozori hajmi qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda. Tahillarga ko'ra, turistlar havo transportida uchish vaqti 5 soatgacha bo'lgan o'lkalarga eng ko'p sayohat qiladi. Mamlakatimiz atrofida bunday masofada 60 ga yaqin davlat, 3 milliard aholi bor. Yiliga ularning qariyb 360 millioni xorijga sayohat qiladi. Bu ulkan turizm bozori degani. O'tgan yili yurtimizga 6,7 million nafar sayyoh kelgan. Diyorimiz 10 dan ortiq nufuzli xalqaro nashrlarda eng jozibali turistik maskan sifatida e'tirof etildi¹.

* **Raximov Vladimir Shavkatovich**, O'zbekiston milliy universiteti Taekvondo va sport faoliyati fakulteti dekani, p.f.n., dotsent. **E-mail:** vladimir.raximov@list.ru

¹ **Aliev I.B., Rahimov V.Sh., Sadullaev O.** Barkamol avlodni tarbiyalashda sportning o'rni // Миллий якка кураш турларининг замонавий муаммолари: Республика таълим муассасалараро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Бухоро, 2014. – 164 б.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 28 yanvar kuni turizmni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Yig'ilishda turizm sohasida kadrlar masalasiga e'tibor qaratilar ekan, 20 ta oliy ta'lim muassasasida hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasiga birlashtirilgan 3 ta texnikum va 9 ta kollejda ishchi kasblar tayyorlash tizimini joriy etish bo'yicha hali ko'p muammolar o'z yechimini topmagani ko'rsatib o'tildi. O'quv jarayonida ilg'or tajribalarni joriy etish bo'yicha vazifalar belgilandi. Yig'ilishda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari ham muhokama qilindi. Davlatimiz rahbarining 2020 yil 24 yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sohaning kelgusi rivojiga asos yaratdi². Farmonda barcha tuman va shaharlarni kamida 3 ta sport turiga ixtisoslashtirish orqali katta sportga sifatli zaxira shakllantirish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari belgilandi. Bugungi kunda aholimizning bor-yo'g'i 19 foizi jismoniy tarbiya va sport bilan qamrab olingan. Aksincha, nosog'lom turmush tarzi tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va nonni meyoridan ortiq iste'mol qilish holatlari ko'p uchraydi. Koronavirus infeksiyasi, avvalo, yurak-qon tomir, nafas yo'llari kasalligiga chalingan, ortiqcha vaznli fuqarolarda og'ir kechgani hammaga ma'lum. Bu ham sog'lom turmush tarzi va sportning ahamiyatini yana bir bor yaqqol ko'rsatdi. Davlatimiz rahbarining 2020 yil 30 oktyabrdagi farmonida sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha juda muhim chora-tadbirlar belgilangan edi. Jumladan, tuman markazlari va shaharlarda 3-5 kilometrlik "Salomatlik yo'laklari" barpo etish vazifasi qo'yilgan.

Ekspertlarning baholashlariga ko'ra, sport va sog'lomlashtirish turizmi har yili musobaqalarni tashkil etuvchilar, ularning ishtirokchilari va tomoshabinlarning millionlab miqdorda ko'chib yurishlarini rag'batlantiradi.

Ishirokchilarning sportga qiziqishlari sohasi tashkiliy chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli o'tkazish va musobaqalarda yutuqlarga erishish istagi bilan bog'liqdir. Bunda sport turizmi ishtirokchilari qiziqishlarining yo'naltirilganligi sof sport yo'nalishidan tashqari madaniyat, san'at, adabiyot, u yoki bu mamlakat mintaqasidagi aholining turmushi va mehnat faoliyatining o'ziga xosliklarini anglab yetish bilan bog'liq bo'ladi.

Sport va turizm sohasi kasaba uyushmalarining turizm tarmog'ida ishchi-xodimlarning mehnat va turmush sharoitlarini kelgusida yaxshilash bo'yicha ishlarni amalga oshirish imkonini beruvchi majmuaviy tizim harakatga keltirilgan bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi: ish joylarini rejalashtirish, attestatsiyadan o'tkazish va ko'rsatiladigan xizmat hisobni yuritish; mehnatni meyorlashtirish; moddiy va ma'naviy rag'batlantirish; turizm sohasi xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Ish joylarini rejalashtirish, attestatsiyadan o'tkazish va ko'rsatiladigan xizmat hisobni yuritishda quyidagilarga erishildi: ish joylarini ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga moslash asosida mehnat unumdorligi o'sishini jadallashtirish; og'ir jismoniy, qo'l mehnat va zararli sharoitlardan foydalanishni kamaytirish (ayniqsa, yo'l transport, ta'mirlash-qurilish korxonalari va umumiy ovqatlanish korxonalarida) va natijada mehnat jozibadorligini oshirish; har bir ish joyida mehnat sharoitlarining yaxshilanishi va natijada turizm-sayohat xizmatlarini ko'rsatish, ishlab chiqarish madaniyati sifatining ortishi; mehnatni muhofaza

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

qilish darajasining ortishi, jarohatlanishning pasayishi, kasb kasalliklarning bartaraf etilishi; ishchi-xodimlarning ijtimoiy faolligi va malakasining ortishi, ularning boshqaruv jarayonlariga, shu jumladan, turistlarga ko'rsatilgan xizmatlarda erishilgan darajani baholash va uni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashga keng jalb etilishi.

Mazkur ishlarni tashkil etish turizm tashkilotlari ma'muriyati tomonidan kasaba uyushmalari qo'mitasi bilan hamkorlikda va ishchi-xodimlarni keng jalb qilish bilan amalga oshirildi. Bulardan oldin ish joylarini takomillashtirishning taraqqiyparvar, optimal yo'nalishlarini belgilab olish uchun turizm tashkilotlarida texnologik jarayonlarni, mehnatni va boshqaruvni tashkil etishning dastlabki tahlili o'tkazildi.

Tashkiliy darajani baholashda quyidagi ko'rsatkchilar hisobga olindi: ish joyining tashkiliy jihozlanganligi va rejalashtirilishining ratsionalligi; mehnatni tashkil etishning amaldagi shakllari taraqqiyparvarligi; mehnat bo'yicha amaldagi meyorlar va normativlarning sifati; bajariladigan ishlarning murakkabligi va sifatiga xodim malakasining mosligi; xodimning bandligi samaradorligi.

Turizm va sayohatlar bo'yicha kengashlarda, turizm-sayohat ishlab chiqarish birlashmalarining attestatsion hay'atlari tomonidan yetakchi mutaxassislarni, kasaba uyushmalarining vakillarini jalb qilish bilan ish joylarini ratsionallashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

Ish joylarining texnik darajasini oshirish bo'yicha: turistlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha taraqqiyparvar texnologik jarayonlarni joriy qilish; ish jarayonlarini kompyuterlashtirish, qurilmalarni modernizatsiyalash, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishdan keng foydalanish.

Ijtimoiy turizm sohasidagi mehnat meyorlari (unumdorlik, xizmat ko'rsatish, miqdor) texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishning erishilgan darajasini hisobga olish bilan mamlakat qonunchiligi asoslari bilan mos holda o'rnatildi. Mehnat meyorlari majburiy tarzda turizm tarmog'ida bitta ishlovchiga to'g'ri keladigan turizm-sayohat xizmatlarining hajmi ortishini ta'minlagan ish joylarini attestatsiyadan o'tkazish va ratsionallashtirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish hamda boshqa tashkiliy-texnik chora-tadbirlarning amalga oshirila borishi bilan yangi meyorlarga almashtirib borildi.

Turistik korxonalarda mehnat meyorlarini joriy qilish, almashtirish va qayta ko'rib chiqish ma'muriyat tomonidan faqat kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda amalga oshirildi. Ish vaqtining davomiyligi qonuniy belgilangan meyorga ega bo'ldi, meyordan ortiqcha ishlarga faqat mamlakat qonunchiligida ko'zda tutilgan va kasaba uyushmasi tomonidan ruxsat berilgan hollardagina yo'l qo'yildi.

Mehnatni meyorlashtirish bo'yicha ishlar turistik korxonalar ma'muriyati tomonidan kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda "mehnat jamoalarining keng ishtirokida va ularning korxonani boshqarishdagi rolini oshirish bilan birga amalga oshirildi. Qo'llanilayotgan mehnat meyorlarining sifatini yaxshilash, ularni yangi meyorlar bilan almashtirish, eski meyorlar ko'rib chiqilishini ta'minlash va mana shu asosda turistik korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish jarayonlariga mehnat jamoalarini keng jalb qilish maqsadlarida turistik korxonalarda ma'muriyat va kasaba uyushmasining meyorlashtirish darajasini oshirish bo'yicha o'zaro majburiyatlar qabul qilindi. Ko'rsatib o'tilgan majburiyatlar turistik xizmatlarning hajmi ortishi bo'yicha topshiriqlar bilan jips bog'landi va jamoaviy shartnomaning "Mehnatga haq to'lash va meyorlashtirish" bo'limida aks ettirildi.

Ijtimoiy turizm xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash, uning ijodiy mazmunini

oshirish turistik-sayohat xizmatlarini ko'rsatish sifatining oshishi zahiralardan biri sifatida mehnatning jamoaviy xususiyatlari kuchayishini, mana shu asosda ilg'or jamoalarda ishlab chiqarishni boshqarishning iqtisodiy metodlarining kelgusi rivojlanishini belgilab berdi. Mehnatni tashkil etishning mana shunday shakllarining iqtisodiy mohiyati shundan iborat ediki, bunda xodimlar jamoasi o'z zimmasiga ishlarni bajarish yoki turistik-sayohat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarni oladi, korxonada ma'muriyati esa, pudrat jamoasiga buning uchun zaruriy bo'lgan resurslarni taqdim etadi va amalga oshirilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun oldindan qabul qilingan shartlar, narxlar yoki shartnoma baholari bo'yicha haq to'laydi.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash, uning ijodiy mazmunini kuchaytirish pozitsiyasidan mehnatni tashkil etishdagi pudratli shakllarning afzalliklari va samaradorligi quyidagilarda namoyon bo'ldi: korxonalarining tuzilmaviy bo'linmalari bir maromda ishlashini ta'minlashda; og'ir qo'l mehnati, jismoniy va monotonli mehnatli ish joylarini bartaraf etishga, zarali mehnat sharoitlarini qisqartirishga, mehnatning mazmundorligi va jozibadorligi ortishiga imkon bergan fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni joriy etini tezlashtirishda; pudrat tashkilotlarida faoliyatning o'zini-o'zi boshqarish taoyillarini rivojlantirishda, ularga operativ-ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda mustaqillikni taqdiq etishda; turistlar va ijtimoiy turizm sohasi xodimlari orasidagi noqulay o'zaro munosabatlar oqibatida yuzaga keladigan stressli zo'riqishlarni kamaytirish imkonini bergan turistik-sayohat xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirishda; jamoaviy mehnatga haq to'lash va yakuniy natijalar bo'yicha rag'batlantirishni qo'llashda. Turizmning moddiy asoslari, kadrlarning va faollarning ijtimoiy-malakaviy tuzilmasi, turistik tashkilotlar, muassasalar, yo'nalishlar va obyektlarning tarmog'i, turizmning tashkiliy va iqtisodiy asoslari yuzaga keldi³. Turizm va oliy kasbiy ta'limning hozirgi rivojlanish bosqichlari ish joylarini yaratish, turizmni tadqiq qilishning xalqaro standartlashtirilishini tarqatish, yangi mintaqalararo turistik assotsiatsiyalarni tashkil etish, turoperatorlikni, transmilliy mehmonxonalar va restoranlar tarmoqlarini yiriklashtirish, turizmning individallashuvi va uning zaruriy ijtimoiylashuvi foydasiga talabning barcha joylarda o'zgarishi sharoitlarida turistik korxonalar konsorsiumlarini paydo bo'lishi sohasi sifatida turizm potensialining o'sishida xalqaro va mamlakat ichidagi chastotalar, miqdor va geografyaning kengayishi bilan tavsiflanadi⁴.

Bugungi kunlarda ko'plab mamlakatlarda mavjud bo'lgan ta'lim tizimlari, shu jumladan, turizm sohasida ham chuqur inqiroz holatidadir. Shu bilan birga, bunday inqiroz holatidan chiqib ketish yo'llari, jumladan, bizning mamlakatimizda ham izlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish didaktikasining asosiy masalasi bo'lib "nimani o'qitish" masalasi hisoblanmoqda. Bu masala to'la ravishda haqlidir, chunki bo'lajak mutaxassisni o'qitish mazmuniga ko'p jihatdan ko'plab avlodlarning madaniy darajasi, xalq ma'naviyatining, axloqiylikning, fuqaroviylikning, vatanparvarlikning rivojlanishi bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamon didaktikasida ta'lim mazmuni deganda, o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, mahorat va ko'nikmalar tizimini olish qabul qilingandir.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, turizm sohasidagi oliy kasbiy ta'lim sifati yangi malakaviy standartlar asosida ishlab chiqilgan ta'limning ko'p bo'g'inli tizimini rivojlantirish sharoitlaridagi zamonaviy talablarga mos kelishi lozimdir. Yevropa oliy ta'limining yutuqlariga asoslangan holda turizm (shu jumladan, sport turizmi bo'yicha ham) zamonaviy ta'lim standartlarini va dasturlarini tayyorlash maqsadga muvofiq.

³ **Daurenov E.Y.** *Turizm: Darslik.* – Ch.: O'zDJTSU, 2020. – 127 b.

⁴ **Tajibayev S.S., Daurenov E.Y.** *Sport sog'lomlashtirish turizmi: O'quv qo'llanma.* – Ch.: O'zDJTSU, 2020.

**“DUNYO – HARAkat UCHUN” SHIORI OSTIDA
IJOD ETAYOTGAN ILM DAGI ALTRUIST OLIMA**

*Har yo'l, har sohaning bir piri bo'lur,
Ehtirom dil ahlin tadbiri bo'lur,
Har ishda ustozning bir siri bo'lur,
Kashfi asror bo'lmas, ustoz bo'lmasa.*

Mirzo Kenjabek

Darhaqiqat, insonni inson qilib kamol toptirishda, unga bilim va odamiylik, mehr-oqibat, ezgu orzu-niyatlar bilan yashash tuyg'ularini singdirishda, muayyan soha yoki ilmnning sirlarini o'rganishda ustozlarning beminnat xizmatlari kattadir.

Bugungi kunda psixologiya sohasini rivojlanishiga, mazkur yo'nalishda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda kamarbasta, mehnatkash ustozlarimiz ko'p.

O'sib kelayotgan yosh kadrlar ulardan psixologiya ilmining sir-asrorlarini, inson psixologiyasining o'ziga xos jihatlarini o'rganib kelmoqdalar. Respublika miqyosida psixologiya sohasi bo'yicha ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlashga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan, mehribon, oqko'ngil, hokisor ustozlardan biri – psixologiya fanlari doktori, professor Nishanova Zamira Taskarayevnadir.

Nishanova Zamira Taskarayevna 1961 yil 14 dekabrda Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Nazarbek qishlog'ida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan.

1978 yilda umumiy o'rta maktabni oltin medal bilan tugatgan. 1978-1984 yillarda Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) falsafa iqtisod fakulteti psixologiya bo'limini imtiyozli diplom bilan tugatgan.

Toshkent davlat pedagogika universitetida 1990 yildan to hozirgi kungacha kichik ilmiy xodim, aspirant, o'qituvchi, dotsent, doktorant, kafedra mudiri, professor lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

Nishanova Zamira Taskarayevna 1993 yilda “Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyat usullari va yo'llarini egallash” mavzusida psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshin ilmiy rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini muddatidan ilgari himoya qilgan. 2000 yilda dotsent ilmiy unvonini olgan. 2005 yilda “Mustaqil ijodiy fikrlashning psixologik asoslari” mavzusida 19.00.07 – Yosh va pedagogik psixologiya ixtisosligidan psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan. 2008 yilda professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan.

Hozirga qadar 13 nafar fan nomzodi va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktorlari Z.T.Nishanova rahbarligida ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan.

Ustoz har qaysi sohada ulug'lanuvchi zotdir. Ustoz va uning qadrini madh etuvchi afsona, she'rlar juda ko'pdir. Shunday afsonalarning biriga ko'ra, mashhur sarkarda Iskandar Rumiyan “Nechun Arastuni otangizdan ortiq izzat qilasiz?”, deb so'radilar. Iskandar Rumi javob berdi: “Otam go'yoki meni osmondan yerga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko'tardi. Ya'ni, otam meni dunyoga kelmog'imga sabab bo'ldi. Ustozim ilm va odob o'rgatib, martaba va izzatimning ortmog'iga sabab bo'ldi”, deb izoh beriladi. Ko'rinib turibdiki, ustoz shogirdlari taqdiriga befarq bo'lmaydi, ularning kamol topishi, akmeologik rivojlanishi uchun doim intiladi.

Kafedramizning faxriy professori Nishanova Zamira Taskarayevna ham nafaqat

* **Atabayeva Nargis Batirovna**, TDPU “Amaliy psixologiya” kafedrasida dotsent v/b. **E-mail:** nargis_aziza@mail.ru

o'zlarining bilimlari, tanqidiy tafakkurlari, ijtimoiy dadilliklari bilan, balki Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni" kitobida keltirilgan ustoz qanday bo'lishi lozimligi haqidagi, ya'ni "u pok mazhabli, o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir. Unda hasad, gina va baxillikdan asar ham bo'lmas!" tavsiflariga to'liq mos keladigan, shogirdlariga motivatsiya berishni biladigan, mehribon, samimiy olima ayoldirlar.

Nazdimda, aynan shu jihatlari uchun shogirdlari ardog'idalar. Respublikamizning turli hududlaridan ustozni ilm bulog'idan bahramand bo'lish uchun o'nlab tadqiqotchilarning ularni izlab kelishi ham bejizga emas. Z.T.Nishanovadan ibrat olish lozim bo'lgan tomonlar ko'p. Shulardan eng muhimi, ilmga fidoyilik va o'z ustida ishlashdan charchamaslikdir.

Psixologiya sohasida o'z ilmiy maktablarini yaratgan olima ayol shogirdlaridagi "dangasalik" illatini "psixokorreksiyalash" uchun ilmiy motivatsiya bera oladilar, maqsad hamda vazifalarni aniq loyihalashtiradilar. Natijada ustozdagi shogirdlarning ilmiy salohiyatini prognozlash qobiliyati hamda talabchanlik psixologiya ilmini ommalashishiga, yangi olimu-olimlarni "tug'ilishi"ga sabab bo'lmoqda. Birgina 2020 yilning o'zida ustozning ilmiy rahbarligida 5 nafar psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktorlarining o'z ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilishlari yuqorida aytgan gaplarimizning yorqin misolidir.

Qolaversa, Zamira Nishanova shu kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining Toshkent davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston milliy universiteti hamda Buxoro davlat universiteti qoshidagi ilmiy Kengashlarida a'zo sifatida ko'pgina fan nomzodlari va fan doktorlarining ilmiy himoyalarni tashkil etilishida faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Z.T.Nishanova yigirmadan ortiq o'quv qo'llanma va darsliklar muallifi, ulardan uch nafari "Yilning eng yaxshi o'quv adabiyoti" respublika tanlovida faxrli ikkinchi va uchinchi o'rinlarni 2008, 2011, 2014 yillarda egallagan. Olimaning shogirdlari bilan tayyorlagan "Psixologik xizmat", "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya", "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi", "Psixologik maslahat", "Etnopsixologiya va din psixologiyasi", "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya", "Taraqqiyot psixologiyasi. Differensial psixologiya" kabi nomli qator o'quv adabiyotlari respublikaning barcha pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishlari talabalari tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda. Mazkur o'quv adabiyotlarining har biri olimaning mashaqqatli mehnati, fan yo'lidagi fidoyiligining mevasidir. Doimo o'z ustida ishlaydigan va o'z bilimlarini kelajak avlod bilan o'rtoqlashadigan zahmatkash insongina rivojlanishdan to'xtab qolmaydi va atrofda qilgan ham shunga chorlaydi.

Fursatdan foydalanib, mening ham ilm olamiga kirib kelishimga, g'ayrati va shijoatlari bilan doim olg'a intilishimga sababchi bo'lgan ustozim mehribon, jonkuyar Nishanova Zamira Taskarayevnaning tavallud ayomlari bilan muborakbod etaman. O'z fidoyiligi va mehribonligi, intiluvchanligi bilan barchaga ibrat bo'layotgan, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida, ilmga muhabbati baland qilib tarbiyalashda talabchan ustozga fakultet hamda kafedra jamoasi nomidan ilmiy-ijodiy barkamollik va mustahkam sog'lik, xonadonlariga fayzu-baraka tilab qolamiz.

¹ *Хусайн Воиз Кошифий Футувватномаи Султони. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. – Б. 376.*

MUNDARIJA

Abdullayeva Sh.A.

Oliy ta'lim didaktikasida zamonaviy ta'lim trendlari islohotlarni belgilovchi tendensiya sifatida.....3

Hamrayev M.A.

Jadvalli mashqlar «Ona tili» fanini o'qitishdagi qulay vosita sifatida.....7

Shodmonqulova D.X.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish.....10

Yunusov R.A.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish (pedagog-psixologlar misolida).....14

Садыкова А.В.

Психолого-педагогические особенности развития информационной компетентности студентов.....18

Sanakulov X.R., Boltaboev S.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb-hunarga yo'naltirishning didaktik vositasi.....22

Toshpulatova M.I.

Matematika o'qitish metodikasi integrativ fan sifatida.....24

Миртурсунова Ю.А.

Применение современных педагогических технологий на уроках русского языка в начальных классах.....27

Sattorova X.J.

O'quvchilar bilimini baholashda PIRLS topshiriqlaridan foydalanish.....31

Pardaev B.O.

Maktab o'quvchilarini ijtimoiylashuvida oila va maktab mikromuhitning o'rni.....34

Nisanbayeva A., Chinalieva A.

Buyuk mutafakkirlarning ta'lim va tarbiya xususidagi qarashlari talqini.....39

Уразова З.М.

Содержание внеклассных занятий по русскому языку в начальных классах.....44

Раджапова У.Р.

Современный менеджмент в спорте как отдельный вид профессиональной деятельности.....48

Raxmatova X.A., Xo'janazarova

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va uni tashxislash.....51

Садыкова Р.Р.

Применение программы «Pickers» в начальной школе.....56

Nusratova H.Ch.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish borasidagi tarixiy tajribalar va ularning o'rni.....60

Mirsaidova N.S.

Ma'rifat fidoiylari.....64

Садыкова Р.М.

Концепция лингвометодической профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.....68

Abduraimova G.O.

Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini «Steam – ta'lim» yondashuvi asosida o'qitish mazmuni.....71

Abrorxonova K., Berdibekova F.A.

Innovatsion yondashuv asosida tarbiya darsini tashkil etishni o'rgatish.....75

Sangirov N.I.

Talaba yoshlarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun motivatsiyaning shakllanishi.....79

Yusupova M.J.

O'qitish malakasini shakllantirishni tashkil etish.....81

Qurbonova D.A.

Ingliz tili darslarida o'quvchilarda madaniyatlararo bag'rikenglik kompetensiyasini shakllantirishning ahamiyati.....85

Xo'janazarova R.M.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yorug'lik xossalarni o'qitishning metodologik va didaktik asoslari.....88

Yusupova K.N.

Pedagog imiji va mas'uliyati.....92

Kadirova G.X.

Yuqori sinf o'quvchilarini tajribaviy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlari.....96

Qobilqoriyev Q.B.

Doira ijrochiligini ummalashtirish va rivojlantirishda musiqiy ta'limning o'rni....100

Raximov V.Sh.

Oliy ta'lim tizimida sport-sog'lomlashtirish turizm kadrlarini tayyorlashning ijtimoiy pedagogik muammolari.....105

Atabayeva N.B.

«Dunyo – harakat uchun» shiori ostida ijod etayotgan ilmdagi altruist ilima.....109

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY
NAMED AFTER NIZAMI

PEDAGOGICA
(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 5

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ
ПЕДАГОГИКА

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 5

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Mas’ul kotib – R.M.Medetova

Muharrir – D.A.Qurbonova

Sahifalovchi – S.Pirmatov

Nashr ko’rsatkichlari:

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2021-yil 30-oktabr bosishga ruxsat etildi. 09-buyurtma.

Adadi – 300 nusxa. 7 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100^{1/16} “Roboto” garniturasida.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo’limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko’chasi, 27-uy.